

O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti

Iqtisodiet fakul`tet

“Moliya” kafedrası

“Bank ishi”

fanidan ma`ruza matnlari to`plami

Пахратдинова Ш.

Nukus – 2008

Mavzu 1. Banklar va O'zbekiston Respublikasi bank tizimi

Reja:

1. Banklarning kelib chiqishi va mohiyati
2. Banklarning funktsiyalari
3. Kredit tizimi, uning tarkibiy qismlari
4. Markaziy bank, ularning vazifalari va funktsiyasi

1. Banklarning kelib chiqishi va mohiyati

“Bank” deb pul mablag'larini yig'uvchi, saqlab beruvchi, kredit-hisob va boshqa har xil vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasalarga aytiladi.

Banklar paydo bo'lishining asosi bo'lib tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Tovar-pul munosabatlarining bo'lishi va ularning rivojlanib borishi barcha ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda banklarning ham bo'lishini taqozo qiladi.

Banklar o'rta asrlarda puldorlar tomonidan pulni qabul qilish va boshqa davlat, shahar puliga almashtirib berish asosida kelib chiqqan. Keyinchalik puldorlar o'z bo'sh turgan mablag'laridan foyda olish maqsadida, ularni vaqtincha foydalanishga mablag' zarur bo'lgan sub'ektlarga ssudalar berishgan. Bu hol pul almashtiruvchi puldorlarning bankirlarga aylanishiga olib kelgan.

“Bank” so'zi ital'yancha “banca” so'zidan olingan bo'lib, “stol”, aniqrog'i “pullik stol” degan ma'noni anglatadi. O'rta asrlarda italiyalik puldorlar hamyonlaridagi, idishlardagi monetalarni stol ustiga qo'yib hisob-kitob qilganlar.

XII asrlarda Genuyada pul almashtiruvchilarni “bancherii” deb atashgan. Agar puldorlardan birortasi ishonchni oqlamasa va o'z ishiga ma'suliyatsizlik qilsa, u o'tirgan stolni sindirib tashlashgan va uni “Banco rotto”, ya'ni “bankrot” deb atashgan. Bizga ma'lum bo'lgan “bankrot” so'zi ham ital'yancha “banca” so'zidan olingan.

2. Banklarning funktsiyalari

Banklar bajaradigan funktsiyalar ularning bajaradigan vazifalariga qarab turli xil bo'lishi mumkin. Bu mavzuda biz banklarga taalluqli bo'lgan umumiy funktsiyalar to'g'risida gapirib o'tmoqchimiz. Keyingi mavzularda biz alohida-alohida olingan holda birinchi va ikkinchi zveno banklarining funktsiyalari to'g'risida fikr yuritamiz.

Shunday qilib, bank tizimi miqyosida olib qaraydigan bo'lsak, banklar quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni yig'ish va kapitalga aylantirish;

kredit munosabatlarida vositachilik qilish;

to'lov jarayonlarida vositachilik qilish;

muomalaga kredit vositalarini chiqarish.

Xalq xo'jaligidagi vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni yig'ish va ularni kapitalga aylantirish - banklarning ilk funktsiyalaridan biri hisoblanadi. Bu funktsiyaning amalga oshirilishi natijasida bir tomondan, huquqiy va jismoniy shaxslar jalb qilingan mablag'lari bo'yicha ma'lum miqdorda daromadga ega bo'ladilar, ikkinchi tomonidan bu mablag'lar banklarning kreditlash qudratini tashkil qiladi va shu resurslarga asoslangan holda banklar ssuda operatsiyalarini olib boradi.

Vaqtincha bo'sh pul mablag'lar banklar ishtirokisiz bir korxonona (tarmoq) tomonidan ikkinchi korxonona (tarmoq)ga vaqtincha foydalanishga beriladigan bo'lsa, bu munosabatlarni tashkil qilishda ma'lum qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin:

birinchidan, kreditga so'ralayotgan summa bilan kreditga berilishi mumkin bo'lgan summa o'rtasida nomutanosiblik bo'lishi mumkin;

ikkinchidan, ortiqcha bo'sh mablag'ga ega bo'lgan korxonaning mablag'larni vaqtincha foydalanishga beradigan muddati mablag' zarur bo'lgan korxonani qoniqtirmasligi mumkin;

uchinchidan, banklar ishtirokisiz korxonalarni to'g'ridan-to'g'ri kreditlashda qarz beruvchi qarz oluvchi korxonaning moliyaviy ahvolini to'liq o'rgana olmasligi mumkin. Qarz oluvchining

to'lovga layoqatsiz bo'lishi, kreditor korxonaning ham moliyaviy ahvolidan yomonlashuviga va boshqa salbiy hollarga olib kelishi mumkin.

Xalq xo'jaligidagi barcha bo'sh mablag'larning bank tomonidan yig'ilishi natijasida vujudga keladigan kredit resurslar hisobidan qarz oluvchi korxonaga zarur bo'lgan summada, zarur bo'lgan muddatda kredit berishga imkoniyat yaratiladi. Undan tashqari, bank korxonalarining to'lovga layoqatliligini har tomonlama tahlil qilishi, ularning moliyaviy ahvolidan yaqqolroq baholab bera olishi mumkin.

Iqtisodiy rivojlanishining o'sishi, bank kreditining qo'llanilish ko'lamini kengaytirib boradi. Kredit faqatgina har kunlik faoliyat bilan bog'liq ishlab chiqarish va muomala jarayonining qisqa muddatli ehtiyojlari uchun emas, balki uzoq muddatga kapitalga bo'lgan ehtiyojni qoplashga yo'naltiriladi. 60-yillardan boshlab banklar yirik mijozlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslasha bordi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun banklar mablag'larni jalb qilish miqyosini, iste'mol uchun kreditlar berish ko'lamini kengaytirdi.

To'lovlarda vositachilik funksiyasida banklar o'z mijozlarining topshirig'iga asosan to'lov jarayonlarini amalga oshiradi, hisobvaraqlariga mablag'larni qabul qiladi, pul tushumlarining hisobini olib boradi, mijozlarga pul mablag'larini beradi.

Hisob-kitoblarning bank orqali olib borilishi muomala xarajatlarining kamayishiga olib keladi. Mijoz mamlakat ichida va boshqa mamlakat bilan qiyinchiliksiz o'z mablag'larini bank orqali o'z hisobvaraqasidan boshqa korxonaga hisobvaraqasiga yoki boshqa mamlakat bankiga o'tkazishi mumkin.

Muomalaga kredit vositalarini chiqarish. Bank kreditining manbai faqat vaqtincha bo'sh mablag'lar va kapital bo'lib qolmasdan, kredit asosida chek-depozit emissiyasi ham amalga oshiriladi. Bank tomonidan beriladigan kredit miqdori mavjud jamg'armalardan ko'p bo'lsa, bank chek-depozit emissiyasini amalga oshirishi mumkin.

Undan tashqari, kredit yordamida muomalaga naqd pullar - banknotalar chiqariladi.

Bank kredit pullar chiqarish depozitlar yaratish yo'li bilan to'laqonli pullar o'rnini bosuvchi kredit vositalarini vujudga keltiradi.

3. Kredit tizimi, uning tarkibiy qismlari

“Kredit tizimi” deb kredit munosabatlar majmuasi va kredit munosabatlarni tashkil qiluvchi va amalga oshiruvchi kredit institutlar yig'indisiga aytiladi. Kredit tizimi orqali huquqiy va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh mablag'lari yig'iladi va korxonaga, tashkilotlarga, aholiga, davlatga vaqtincha foydalanishga beriladi. Kredit tizimi bir necha bo'g'inlardan iborat bo'lishi mumkin. Mablag'larni jalb qilishi va taqsimlanishiga qarab kredit tizimi bo'g'inlari o'z xususiyatlariga ega bo'ladi. Jahon amaliyotida kredit tizimi o'zining tashkil qilinish turiga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi.

markaziy bank;

tijorat banklar;

maxsus-kredit institutlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ikki pog'onali kredit-bank tizimi ko'p mamlakatlar iqtisodining asosi hisoblanadi. Bular Markaziy bank, bank institutlari va nobank kredit muassasalaridir.

Bank institutlariga quyidagi banklar kiradi:

tijorat banklari;

investitsiya banklari;

jamg'armalar jalb qiluvchi banklar (O'zbekistonda Xalq banki);

ipoteka banki;

savdo banklari;

tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha banklar

tarmoqlar bo'yicha ixtisoslashgan banklar va boshqalar.

Nobank kredit tashkilotlarga:

investitsiya kompaniyalari;

sug'urta kompaniyalari;
nafaqa va boshqa fondlar kiradi.

Kredit tizimida asosiy o'rinni bank institutlari, bank institutlari tarkibida salmoqli o'rinni tijorat banklari egallaydi. Tijorat banklari kredit tizimining boshqa bo'g'inlariga nisbatan ko'proq bo'sh resurslarni jalb qiladi va ko'p miqdorda mijozlarga kreditlar beradi.

Maxsus ixtisoslashgan kredit institutlari (banklar) tijorat banklari faoliyatini to'ldiradi va ular xalq xo'jaligining kam rentabellik, kam foydali tarmoqlariga (qishloq xo'jaligi, uy-joy qurilishi, tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar) engil sharoitda kreditlar berish yo'li bilan ularning faoliyatini rag'batlantirib, rivojlantirib boradi. Banklar ma'lum belgilariga qarab quyidagi turlarga:

mulk shakliga qarab: aktsiyador, noaktsiyador, kooperativ, kommunal, davlat, aralash, xalqaro banklarga;

kredit beruvchi banklarga;

milliy mavqei bo'yicha: milliy va xorijiy banklarga;

faoliyat ko'rsatishi va bajaradigan funktsiyalariga qarab: depozit, universal, ixtisoslashgan banklarga bo'linadi.

Aktsiyador banklar aktsiyador kompaniyalar sifatida yuzaga kelgan banklar bo'lib aktsiyalar chiqarish hisobidan ular kapitalining asosiy qismi yuzaga keladi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda bank tizimining asosiy qismini aktsiyador banklar tashkil qiladi.

Noaktsiyador banklar paychilar mablag'lari hisobidan tashkil qilingan banklar bo'lib, ular bir yoki bir necha shaxs ixtiyorida bo'lishi mumkin.

Mayda ishlab chiqaruvchilar, hunarmandlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida kooperativ banklar tashkil qilinadi. Bu banklarning mablag'lari ishtirokchilarning mablag'lari hisobidan vujudga keltiriladi va mijozlarga ularning faoliyatini rivojlantirish uchun engil sharoitda kredit beriladi. Kommunal banklar ixtisoslashgan kredit tashkilotlar bo'lib, kommunal xo'jalik va uy-joy qurilishini kreditlash va moliyalashtirish bilan shug'ullanadi.

Davlat banklari davlat ixtiyorida bo'lgan kredit muassasa bo'lib, o'zining birinchi kurtaklari qadimiy Rimda, Misrda, keyinchalik XVI-XVII asrlarda evropada vujudga kelgan. Davlat banklarining quyidagi turlari: markaziy, tijorat banklari va maxsus kredit institutlar amaliyotda bo'lishi mumkin.

Aralash banklar kapitali davlat tomonidan va bir qismi xususiy kapital tomonidan vujudga keltiriladi. Xalqaro banklar xalqaro pul, hisob va kredit munosabatlarini olib boruvchi bank bo'lib davlatlar o'rtasida valyuta, kredit va moliya munosabatlarini boshqarib boradi. Yirik xalqaro banklar qatoriga evropa rivojlanish va taraqqiyot bankini, Xalqaro valyuta fondini, Xalqaro Moliya korporatsiyasini, Xalqaro hisob-kitoblar bankini, evropa investitsiya bankini va boshqalarni kiritish mumkin. Xorijiy banklar to'liq yoki qisman chet el investorlariga tegishli bo'lgan banklar bo'lib, ular o'z faoliyatini mahalliy qonunlar doirasida olib boradi. Hozirgi vaqtda bunday banklar yirik banklarning shu'balari sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ba'zi davlatlarda mavjud depozit banklar jalb qilingan depozitlar hisobidan hisob, kredit, ishonch operatsiyalarini olib boradi. Depozit banklar, asosan, aholi jamg'armalarini jalb qilish va joylashtirish bilan shug'ullanadi. Universal banklar turli xil bank operatsiyalari: depozit, kredit, hisob, foiz, vositachilik va boshqa operatsiyalarni bajaruvchi bank hisoblanadi. Germaniya, Shveysariya, Avstriya kabi mamlakatlarning tijorat banklari universal banklar hisoblanadi. Ixtisoslashgan banklar xalq xo'jaligining ma'lum sohalariga xizmat ko'rsatuvchi, aholiga xizmat ko'rsatuvchi banklardir.

Ixtisoslashtirilgan banklarning turlari sifatida investitsiya, jamg'arma, rivojlanish va taraqqiyot banklarini keltirish mumkin.

Uzbekiston Respublikasi bank tizimini qaytadan tashkil etish 1987 yilda boshlandi. Bu jarayonda bank tizimining tashkiliy to'zilmasini o'zgartirish, banklarning rolini oshirish, iqtisodiy tizimning rivojlanishiga ularning ta'sirini kuchaytirish, kreditni harakatdagi iqtisodiy dastakchaga aylantirish ko'zda tutilgandi.

Qayta tashkil etish jarayonining birinchi bosqichida davlat banklarining yangi to'zilmalarni tashkil etish boshlandi. Qayta tashkil etish modeli quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish: Markaziy emission bank va bevosita xo'jaliklarga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan davlat banklari;
- ixtisoslashtirilgan banklarni to'laligicha xo'jalik hisobiga va o'z-o'zini moliyalashga o'tkazish;
- iqtisodiy tizim doirasida yuridik va jismoniy shaxslar bilan bo'ladigan kredit munosabatlari uslublari va shakllarini takomillashtirish.

Bank tizimini takomillashtirish jarayoni davomida davlat banki o'zining kredit tizimidagi markaziy o'rnini saqlab qolgan holda korxonalar va tashkilotlarga kredit berish va ular bilan hisob-kitoblarni olib borish funksiyasini maxsus ixtisoslashgan banklarga topshirdi. Ya'ni bankning emission faoliyatini bilan kreditlash faoliyati birga olib borish funksiyasiga chek qo'yiladi. Davlat banki ixtisoslashgan banklar faoliyatini boshqaruvchi, barcha banklar uchun bir xil pul kredit siyosatini olib boruvchi muassasaga aylandi. Bank tizimining takomillashtirilishi natijasida vujudga kelgan maxsus ixtisoslashgan banklar: sanoat qurilishi banki, kommunal qurilish va sotsial taraqqiyot banki, Agrosanoat banki, Milliy bank, Jamg'arma banki xo'jaliklar bilan banklar o'rtasidagi aloqalari tobora yaqinlashtirildi. Ixtisoslashtirilgan davlat banklari o'zlarida ma'lum darajada boshqaruvchilik rolini saqlab qoldilar. Bank tizimini takomillashtirish jarayonida juda muhim natijalarga erishildi, lekin tashkil qilingan banklar iqtisodiy munosabatlarning xususiyatlarini to'liq ifoda qilolmasdi. Shuning uchun ham bank tizimini takomillashtirishning 2-bosqichi ob'ektiv zaruriyatga aylandi.

1988 yildan boshlab, ikki bosqichli bank tizimi tashkil etila boshlandi. Lekin bu davrda, birinchidan, markazlashgan rejalashtirishda Markaziy bankning roli hali ham yuqori edi, ikkinchidan, sohalar deyarli hamma qismi bilan davlat tasarrufida edi.

O'zbekiston Respublikasida ikki bosqichli bank tizimini tashkil etishga real asos 1991 yil 15 fevralda "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi" qonuni hisoblanadi. Bu qonunga binoan davlat boshqaruv organlari respublika Markaziy banki faoliyatiga aralashmasliklari kerak. U faqat Respublika Oliy Majlisiga hisobot beradi. Bu qonunni amalga tadbiriq etish, asosan, Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng boshlandi. Tijorat banklarining soni tobora oshib bordi.

O'zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich yo'lini tanlaganligi bois, 1-bosqichdagi kredit-pul siyosati sohasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat qilib qo'yildi:

- Markaziy bank hamda keng tarmoqli mustaqil tijorat va xususiy banklar boshchiligida ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish, respublika hududida yirik chet el banklarining bo'limlari va vakolatxonalarini ochish uchun qulay sharoit yaratish;
- barqaror pul muomalasini ta'minlash;
- kredit va naqd pul massasining asossiz o'sishini keskin cheklash;
- O'zbekiston Respublikasining milliy pulini muomalaga kiritish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlari hamda imkoniyatlarni yaratish.

Birinchi bosqichda belgilangan vazifalarni bajarilishiga jadal kirishilishi respublika bank tizimining zamonaviylashgan ko'rinishini olishiga olib keldi. Hozirda respublikada keng tarmoqli banklar zamonaviy talablarga javob beradigan holda xo'jaliklar, tashkilotlar, aholiga xizmat ko'rsatmoqda.

4. Markaziy bank, ularning vazifalari va funksiyasi

Markaziy bank-pul-kredit siyosatini emissiya jarayonlarini olib boruvchi, kredit tizimining bosh banki hisoblanadi.

Bozor iqtisodi sharoitida Markaziy bankning asosiy maqsadi - pul-kredit tizimi va valyuta barqarorligini ta'minlash asosida iqtisodiy o'sishga erishishdan iborat.

Hozirgi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun asosida faoliyat ko'rsatmoqda.

Markaziy bank huquqiy shaxs sifatida davlat mulkiga asoslangan bo'lib, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa sifatida xarajatlarni o'z daromadlari hisobidan qoplashi kerak.

O'zbekistonda zamonaviy bank tizimi 2 bosqichli usulda tashkil etilgan: Markaziy bank va tijorat banklari. Markaziy bank keng tarmoqli tijorat banklari o'rtasidagi sog'lom raqobat kurashidagi nazoratchi vazifasini bajaradi.

Respublika Markaziy banki o'z miqyosi va faoliyat doirasiga ko'ra respublikamizdagi eng yirik bank hisoblanadi. Markaziy bankning asosiy maqsadi, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat va monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirishdan iborat.

Markaziy bankning asosiy funktsiyalari quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiyotni pul-kredit richagi yordamida boshqarish.
2. Hisob-kitob va pul o'tkazish operatsiyalarini bajarishni yo'lga qo'yish.
3. Tijorat banklari faoliyatini boshqarish va nazorat qilish.
4. Boshqa kredit muassasalari kassa zaxiralarini saqlash.
5. Rasmiy oltin - valyuta zaxiralarini saqlash.
6. Hukumat uchun hisob-kitob va kredit operatsiyalarini bajarish.
7. Tijorat banklariga kredit berish.
8. Pul emissiyasi.

Markaziy bank - o'z sarf xarajatlarini o'zining daromadlari hisobidan amalga oshiruvchi iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasadir. Markaziy bankning mol-mulki uning pul va boshqa moddiy boyliklaridan iborat bo'lib, ularning qiymati Markaziy bank balansida aks ettiriladi. O'zbekiston Markaziy banki yuqoridagi vazifalariga qo'shimcha ravishda quyidagi vazifalarni ham bajaradi:

Monetar siyosatni va valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, samarali hisob-kitob tizimini tashkil etish va ta'minlash, banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish, oltin va valyuta zaxiralarini saqlash va boshqarish, davlat byudjetining kassa ijrosini Moliya vazirligi bilan birgalikda tashkil etishdan iborat.

Markaziy bank moliyaviy yordam ko'rsatish va tijorat faoliyati bilan shug'ullanmaydi. Respublika Markaziy bankining ustav kapitali 2 mlrd. so'm deb belgilangan. Shuningdek, Markaziy bank soliqlar va bojlardan ozoddir. Markaziy bank kelgusi yil uchun O'zbekiston Respublikasi monetar siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi va har yili keyingi moliya yili boshlanishidan 30 kun oldin Oliy Majlisga bu haqida axborot beradi.

Markaziy bank pul-kredit, moliya, valyuta va narx munosabatlarining ahvoliga asoslanib muomaladagi pul massasining bitta yoki bir qancha ko'rsatkichlari o'zgarishining aniq mo'ljallarini belgilash mumkin. Shuningdek, o'z hisob va kredit operatsiyalari bo'yicha stavkalarni mustaqil ravishda belgilaydi.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to'lov vositasida banknotalar va tanga ko'rinishida pul belgilarini muomalaga chiqaradi. Markaziy bank va u vakolat bergan banklar talabga ko'ra, bir nominal qiymatdagi banknota va tangalarni boshqasiga hech qanday to'lovsiz yoki vositachilik haqisiz almashtirib beradi. Naqd pul mablag'larini muomalaga chiqarish va qaytarib olishni faqat Markaziy bank amalga oshiradi. Markaziy bank valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish davlat organidir. Shuning bilan birga Markaziy bank yuridik va jismoniy shaxslarga chet el valyutasida operatsiyalar o'tkazishga litsenziyalar beradi va milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini aniqlash tartibini belgilaydi.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hukumatining bankiri, maslahatchisi va xazina vakili sifatida ish tutadi. Markaziy bank banklarni ro'yxatga oladi va ularga bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar beradi.

Markaziy bank boshqa banklar bilan o`zaro munosabatga kirishadi. Bunda Markaziy bank va boshqa banklar bir-birlarining majburiyatlari bo`yicha javobgar emas, ular shunday javobgarlikni o`z zimmasiga o`zlari olgan hollar bundan mustasno.

Markaziy bank hukumat muassasalari va tashkilotlari, xazina, mahalliy, hukumat organlari hisoblarini yurgizadi, davlat qimmatli qog`ozlari yuzasidan operatsiyalarni bajaradi, xukumat organi topshirig`i bilan oltin va chet el valyutasi operatsiyalarni o`tkazadi.

Markaziy bank respublika Moliya vazirligi bilan hamkorlikda respublikada pul-kredit siyosatini olib borish, islohotlar o`tkazish va amalga oshirish ishlarini bajaradi.

Adabiyotlar ro`yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Uzbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari. - T.: 1998, 1999.
2. Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Šarori. Bank tizimini isloh qilish chora-tadbirlari tug`risida. T.: 1999 yil 15 yanvar.
3. Uzbekiston Respublikasining Markaziy banki tug`risidagi Qonuni. - T.: Sharq, 1997. - 47 b.
4. Banklar va bank faoliyati tug`risida. Uzbekiston Respublikasining Qonuni. - T.: Sharq, 1997. - 48 b.
5. Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Bank tizimini erkinlashtirish buyicha 21 mart 2000 yil karori
6. Uzbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish qoidali” yuriqnomasi. № 10. 1997 yil 22 fevral.
7. Aktsiyadorlik tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari tug`risida. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 1998 yil 2 oktyabr.
8. Analiz ekonomicheskoy deyatel`nosti klientov banka. Pod. Rek. Lavrushina O.I. - M.: Infra-M, 1995. - 152 s.
9. Bankovskoe delo. Uchebnik. Pod. Rek. Gavrushina O.I. - M.: Finansi i statistika, 1998. - 576 s.
10. Bankovskie operatsii I, II, III chast`, pod. red . Gavrushina O.I. - M.: Infra-M, 1995. 301 s.
11. Banki i bankovskie operatsii pod. Red. Jukova e.F. - M.: YuNITI, 1997. - 387 s.

Quyidagi tayanch so`zlarning mohiyati va ularning ishlatilishi sohasini asoslab bering.

Bank,
Bankning funktsiyalari,
ssuda,
Kredit munosabati,
ssuda kapitali,
bo`sh pul mablag`lari,
kapital xarakati,
banklar yiriklashuvi,
jalb qilingan mablag`lar,
mablag`larning kapitalga aylanishi,
bank ishtiroki,
kredit berish,
kredit olish,
moliyaviy ahvol,
to`lovda vositachilik,
kredit tizim,
kredit tizim bo`g`inlari,
Markaziy bank,

Tijorat bank,
maxsus kredit institutlar,
Investitsiya banklar,
Ipoteka,
ipoteka banki,
Nobank tashkilotlar,
Investitsion fondlar,
Aksioner bank,
bank paychilari,
bank tizimi,
xorijiy banklar,
universal banklar.

O`z bilimini tekshirish bo`yicha savollar.

Bankning mohiyatini tushuntiring.
Banklar qanday funktsiyalarni bajaradi?
Markaziy bankning asosiy bosh maqsadi nima?
Tijorat banklarining vazifalari va funktsiyalarini tushuntirib bering?
Markaziy bank qaysi funktsiyalarni bajaradi?
Kredit tizimi deganda nimani tushunasiz va uning tarkibiy qismlarini ko`rsating.
O`zbekiston Respublikasi bank tizimi to`g`risida nimalarni bilasiz?
Bank tizimining qanday xususiyatli tomonlari mavjud.
Nobank tashkilotlarga nimalar kiradi va ular nega zarur?
Banklar qaysi xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi?
Bank tizimini erkinlashtirish deganda nimani tushunasiz va uni amalga oshirish yo`llarini ko`rsating.

2-mavzu. Tijorat banklari faoliyatining huquqiy va iqtisodiy asoslari

Reja:

1. Tijorat banklarining iqtisoddagi roli va funktsiyalari
2. Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish asoslari

1. Tijorat banklarining iqtisoddagi roli va funktsiyalari

O`zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan bank - tijorat muassasasi bo`lib, jismoniy va huquqiy shaxslarning bo`sh turgan pul mablag`larini jalb qilish va ularni o`z nomidan, to`lovlilik, muddatlilik, qaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi.

Tijorat banklari bank tiziminining muhim bo`g`ini bo`lib, kredit resurslarning asosiy qismi shu banklarda yig`iladi va bu banklar huquqiy, jismoniy shaxslarga o`z xizmatlarini ko`rsatadi.

O`zbekiston Respublikasida tijorat banklari bank tizimining Markaziy bankdan keyingi ikkinchi pog`onasi hisoblanadi.

1987 yildan boshlab tashkil qilingan bank tizimi bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos keluvchi bank tizimining boshlang`ich pillapoyasi hisoblanadi.

Oxirgi yillarda tijorat banklarining soni, ular bajaradigan operatsiyalar, ularning ustav fondi va qo`yilmalar salmog`i oshib bormoqda. Hozirgi kunda O`zbekistonda 30 dan ortiq tijorat banklari faoliyat ko`rsatmoqda. Salmoqli ustav fondi, kredit resurslar va mijozlarga ega bo`lgan - katta

banklar O'zbekiston sanoat qurilish banki, Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki, Paxta bank, Asakabank va boshqalar keng faoliyat olib bormoqda. Tijorat banklarni tashkil qilishdagi ustav kapitali miqdori 2007 yil 1 yanvarda Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatuvchi banklar uchun 50 mln. AQSh dollari ekvivalenti miqdoridagi mablag'ga ega bo'lishi kerak. Tijorat banklarini belgilariga qarab quyidagi turlarga bo'lish mumkin. Mulkchilik shakliga qarab banklar: davlat bankiga, aktsiyador banklarga, kooperativ, xususiy, mintaqaviy, aralash mulkchilikka asoslangan bankka bo'linadi. Yuksak rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarning aksariyat qismi mulk shakli bo'yicha aktsiyador bank hisoblanadi.

Aktsiyador banklar aktsiyador jamiyat kabi ochiq turdagi yoki yopiq turdagi aktsiyador banklar bo'lishi mumkin. Aktsiyadorlar safiga kirish aktsiyalarni sotib olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Huquqiy va jismoniy shaxslar banklarning aktsiyalarini sotib olishi va aktsiyadorlar bo'lishi lozim.

Ba'zi tijorat banklari paylar (badallar) hisobidan tashkil qilinishi mumkin. Bu turdagi banklarning qatnashchilari ham huquqiy va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin.

Xususiy banklar - jismoniy shaxsning pul mablag'lari hisobidan tashkil qilingan banklar hisoblanadi.

Bajaradigan operatsiyalariga qarab tijorat banklar - universal va maxsus banklarga bo'linadi.

Universal banklar xilma-xil operatsiyalar bajarish, har xil xizmatlar amalga oshirish xususiyatiga ega bo'ladi. Maxsus banklar ma'lum yo'nalishlarga xizmat ko'rsatib, o'z faoliyatini shu yo'nalishlarda yutuqlarga, samaradorlikka erishishga bag'ishlaydi. Bunday banklarga tarmoqlarga xizmat ko'rsatuvchi banklar, eksport-import operatsiyalarini olib boruvchi banklar, investitsiya banklari, ipoteka-zamin banklari kirishi mumkin.

Joylashish belgisiga qarab tijorat banklar: xalqaro, respublika, mintaqaviy, viloyat banklariga bo'linishi mumkin.

Tarmoqlarga xizmat ko'rsatishga qarab: sanoat, qurilish, qishloq xo'jalik, savdo va boshqa banklarga bo'linishi kerak.

Bozor iqtisodi sharoitida banklarining roli, ularning iqtisodga ta'siri o'sib bormoqda.

Kredit muassasalari, aholi, korxonalar, tashkilotlar, kompaniyalarning bo'sh pul mablag'larini yig'ish va joylashtirishdan tashqari, korxonalarining xo'jalik faoliyatini takomillashtirishga yordam beradi va korxonalar faoliyati ustidan nazorat olib boradi.

Banklar va uning krediti yordamida mavjud kapital tarmoqlar o'rtasida, ishlab chiqarish va muomala sohasida taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Sanoat, transport, qishloq xo'jaligi sohasida qo'shimcha investitsiyaga bo'lgan talablarni moliyalashtirib, banklar xalq xo'jaligida progressiv yutuqlarga erishishni ta'minlashi mumkin.

Tijorat banklarining iqtisodiy roli uning faoliyat doirasining keng bo'lishiga olib keladi.

Tijorat banklari quyidagilarni bajaradi:

- vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larni yig'ish va ularni kapitalga aylantirish;
- korxonalar, tashkilotlar va aholini kreditlash;
- muomalaga kredit pullar (muomalaning kredit vositalari) ni chiqarish;
- xalq xo'jaligida hisob-kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish;
- moliya - valyuta bozorida faoliyat ko'rsatish;
- iqtisodiy-moliyaviy axborotlar berish va maslahat xizmatlarini ko'rsatish.

Banklar bo'sh pul mablag'larini yig'ish va ularni kapitalga aylantirish funksiyasini bajara turib mavjud bo'sh pul daromadlari va jamg'armalarni yig'adi. Jamg'aruvchi (bo'sh pul mablag'i egasi) o'z mablag'larini bankka ishonib topshirgani uchun va bank bu mablag'lardan foydalangani uchun ma'lum foiz hisobida daromad oladilar. Bo'sh pul mablag'lari hisobidan ssuda kapitali fondi vujudga keladi va bu fond xalq xo'jaligi tarmoqlarini kreditlash uchun ishlatiladi.

Tijorat banklar faoliyatida asosiy o'rinni korxonalar, tashkilotlarni, aholini, davlatni kreditlash egallaydi. Kreditlash jarayonini tashkil qilishda bank moliyaviy vositachi rolini o'ynaydi. U bo'sh turgan mablag'larni jalb qiladi va o'z nomidan mijozlarga vaqtincha foydalanishga beradi.

Bank krediti hisobidan xalq xo'jaligining muhim tarmoqlari - sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va boshqalar moliyalashtiriladi va ishlab chiqarishni kengaytirishga asos bo'ladi.

Muomalaga kredit pullarni chiqarish funktsiyasi tijorat banklarni boshqa moliya institutlaridan ajratib turadi. Tijorat banklari depozit-kredit emissiya qilganida, ssudalar berganida pul massasi oshadi va ssuda bankka qaytarilganda muomalada pul massasi kamayadi.

Tijorat banklari kredit pullarni yaratishning emitenti hisoblanadi. Tijorat bank tomonidan mijozga berilgan kredit uning hisob raqamiga o'tkaziladi va bankning qarz majburiyati ortadi. Mijoz bu mablag'ning ma'lum qismini naqd pul shaklida hisob raqamidan olishi mumkin. Bu holda muomalada pul massasining miqdori oshadi. Shuning uchun ham tijorat banklar faoliyati ustidan Markaziy bank nazorat olib boradi.

Tijorat banklarning muhim funktsiyalaridan biri-hisob-kitoblarni olib borishdir. Hisob-kitoblarni olib borishda bank mijozlar o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qiladi.

Tijorat banklari yana qimmatli qog'ozlar chiqarish va joylashtirish bilan shug'ullanishi mumkin.

Tijorat banklari iqtisodiy ahvolni nazorat qila borib, mijozlarga har-xil axborotlar, maslahatlar berishi mumkin.

Aktiyador tijorat banklarining yuqori organi - aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Har yili aktsiyadorlarning yig'ilishi ustavdagi va ustav kapitalidagi o'zgarishlarni, yillik faoliyat va uning natijalarini, bank daromadlarini tasdiqlash, Bank Kengashi tarkibini saylash bankning shu'ba muassasalarini tashkil qilish va bekor qilish kabi masalalarni ko'rib chiqishi mumkin.

Tijorat banklari quyidagi operatsiyalarni bajaradi:

- passiv operatsiyalar;
- aktiv ssuda operatsiyalari;
- bank xizmatlari va vositachilik operatsiyalari;
- bankning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiradigan operatsiyalar va boshqalar.

Tijorat banklarni ochishga litsenziya (ruqsatnoma)ni Markaziy bank beradi. U tijorat banklar faoliyatini olib borish bo'yicha iqtisodiy normativlar belgilab beradi va ularning bajarilishini nazorat qilib boradi.

2. Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish asoslari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining faoliyati foyda olishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank foydasining iqtisodiy mohiyati yangicha ijtimoiy-iqtisodiy tus olib bormoqda. Chunki tijorat banklarining foydasi bank kapitali to'planishining va bank rivojlanishining asosiy manbasidir.

Iqtisodiy rivojlanish bosqichida tijorat banklarining asosiy ish tamoyillaridan biri-yuqori darajada foyda olishga qaratilgan bo'ladi. Banklarning faoliyati doimo foyda ko'rish bilan bog'liq bo'lmasdan, ular faoliyatida zarar ko'rish ehtimoli ham uchrab turishi mumkin.

Tijorat (aktsiyali, pay asosida va xususiy tartibda tashkil qilingan) banklar huquqiy va xususiy shaxslarga "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi" qonunda nazarda tutilgan operatsiyalarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish orqali shartnoma asosida kredit, hisob-kitob va boshqa xil bank xizmatlarini ko'rsatadi.

Tijorat banklari ustav kapitali kimga qarashli ekanligiga va uni tashkil qilish uslubiga qarab, bajarilayotgan operatsiyalarning turi, faoliyat ko'rsatish xududi va tarmoq belgilariga qarab bir-biridan farq qiladi. Respublikada, mintaqalarda ko'zda tutilgan ma'lum dasturlarni bajarish va o'zga faoliyat turlarini pul mablag'lari bilan ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda maxsus tijorat banklari tashkil etilishi mumkin.

Tijorat banklari o'z ustavlari asosida ish olib boradilar. Davlat tijorat bankining ustavi bankni tuzishga qaror qilgan organ tomonidan tasdiqlanadi. Sherikchilik asosida tuzilgan tijorat bankining ustavi muassislar (qatnashuvchilar) yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Bankning ustavida:

- bankning nomi va uning manzili (aloqa manzili);
- bank amalga oshiradigan operatsiyalarning ro'yxati;
- bank tashkil etadigan fondlarning ro'yxati;
- ustav fondining miqdori;
- bankning huquqiy shaxs ekanligi va o'zini-o'zini moliya resurslari bilan ta'minlashi negizida ishlashi to'g'risidagi nizom;
- bankning boshqaruv idoralari, ularning tarkibi va tuzilishi to'g'risidagi nizom;
- bankga qarashli muassasalarning ro'yxati va ularning maqomi;
- bank va uning filiallarini tashkil etish hamda ularning faoliyatini to'xtatish tartibi;
- faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni matbuotda e'lon qilish majburiyati (tartibi);
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan o'zaro munosabatlari aks ettirilgan bo'lishi lozim.

Sherikchilik asosida tuzilgan bankning ustavi yuqorida keltirilgan talablardan tashqari, aktsiyador jamiyatlar va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risidagi qonunlarda ko'rsatilgan talablarga javob berishi lozim.

Bank ustavga bank faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq boshqa qoidalar ham kiritilgan bo'lishi mumkin. Ustavga o'zgartishlar O'zbekiston Respublikasi qonunlaridagi o'zgartishlar munosabati bilan kiritiladi.

Aktsiyador tijorat banklarining ustav fondi qatnashchilarning badallari hisobidan yoki aktsiyalar chiqarish va sotish hisobidan vujudga keltiriladi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralarining hamma bo'limlari va ularning ijroiya organlari, siyosiy tashkilotlar va ixtisoslashgan jamoat fondlaridan tashqari barcha huquqiy va xususiy shaxslar tijorat banklarining muassislari (xissadorlari), aktsiyadorlari bo'lishlari mumkin.

Tijorat banklarini tashkil qilishda yoki faoliyat ko'rsatayotgan banklarda har bir muassis, aktsiyadorning ulushi ustav kapital miqdorining 30 foizdan kam bo'lmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 10-sonli "Tijorat banklari faoliyatini muvofiqlashtirish qoidalari" nomli Yo'riqnomasiga asosan tijorat banklarini tashkil qilishda ular quyidagi miqdorda minimal ustav kapitaliga ega bo'lishlari lozim.

2007 yil 1 yanvardan boshlab aholisi 0,5 mln.dan ortiq bo'lgan shaxarlarda ochiladigan tijorat banklarning ustav kapitali 25 mln. AQSh dollari ekvivalentidagi mablag'ga, aholisi 0,5 mln.dan kam bo'lgan shaxarlarda ochiladigan banklar 12 mln. AQSh dollari ekvivalenti miqdoridagi ekvivalent mablag'ga ega bo'lishi kerak.

Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasining soliq to'g'risidagi amaldagi qonunlariga muvofiq soliqlar to'laydilar.

Quyidagi mablag'lar banklarning o'z mablag'lari hisoblanadi:

ustav fondi;

rezervlar va foyda hisobiga vujudga keladigan hamda bankning balansida turadigan boshqa fondlar;

taqsimlanmagan foyda, aktsiyachilar yoki paychilar o'rtasida aktsiyalarni taqsimlash hisobiga yoxud pay miqdorini oshirish hisobiga olingan mablag'lar.

Tijorat banklari yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun olinadigan foydadan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilab qo'yilgan tartibda rezerv fondlari tashkil etadilar.

Tijorat banklari shartnoma asosida bir-birlarining mablag'larini depozit, kredit shaklida jalb etishlari, joylashtirishlari, o'z ustavlarida ko'rsatilgan boshqa o'zaro operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin.

Mijozlarga kredit berish va o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish uchun mablag' etishmay qolgan taqdirda tijorat banklari kredit resurslari olish uchun Markaziy bankka murojaat qilishlari mumkin.

Tijorat banklari operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalari ularning o'zlari tomonidan mustaqil belgilanadi. Ammo bu stavkalar davlat pul-kredit siyosatining bosh yo'nalishlarida belgilab beriladigan foiz stavkalari siyosatiga asoslangan holda har yili Markaziy banki tomonidan

belgilanadigan eng yuqori stavkalaridan ortiq bo'lmashligi kerak. Masalan, tijorat banklari kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini belgilaganlarida, ular foiz stavkasining asosi qilib, Markaziy bank tomonidan belgilab berilgan qayta moliyalashtirish stavkasini oladilar.

Tijorat banklari qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar olib boradilar.

Banklar davlatning qimmatbaho qog'ozlari bilan bo'lgan tez muddatli operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin.

Adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

Bankovskoe delo. Uchebnik. Pod. Rek. Gavrushina O.I. - M.: Finansi i statistika, 1998. - 576 s.

Uzbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari. - T.: 1998, 1999.

Uzbekiston Respublikasining Markaziy banki tuzilishidagi o'zgarishlari. - T.: Sharq, 1997. - 47 b.

Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Bank tizimini isloh qilish chora-tadbirlari tuzilishida. T.: 1999 yil 15 yanvar.

Analiz ekonomicheskoy deyatelnosti klientov banka. Pod. Rek. Lavrushina O.I. - M.: Infra-M, 1995. - 152 s.

Bankovskoe delo. Uchebnik. Pod. Rek. Gavrushina O.I. - M.: Finansi i statistika, 1998. - 576 s.

Bankovskie operatsii I, II, III chast', pod. red. Gavrushina O.I. - M.: Infra-M, 1995. 301 s.

Banki i bankovskie operatsii pod. Red. Jukova e.F. - M.: YuNITI, 1997. - 387 s.

Bankovskiy portfel' - 3 t. - M.: SOMINTEK, 1995. - 752 s.

Bank nazorati buyicha me'yoriy hujjatlar tuplami. III-qism. URMB. - T. 1999. - 76 b.

Bank nazorati buyicha me'yoriy hujjatlar tuplami. II-qism. URMB. - T. 1999. - 105 b.

Bankovskie operatsii. - M.: Infra-M., 1996. - 207 s.

Bankovskiy portfel' 1,2 kn. Otv. Red. Korobov Yu.I. i dr. - M.: SOMINTEK, 1994. - 746 s.

Bankovskiy nadzor i audit: Ucheb. Posobie pod red I.D.Mamonovoy. - M.: Infra, 1995. - 112 s.

Bankovskoe delo. Uchebnik - 2-e izd. Pod rek. Prof. Kolesnikova V.I. - M.: Finansi i statistika, 1996. - 480 s.

Qo'shimcha adabiyotlar:

Devid Polfremman i dr. Osnovi bankovskogo dela. - M.: Infra-M, 1996. - 986 s.

efimova L.G. Sbornik obraztsov bankovskix dokumentov. - M.: YuNITI, 1995. - 240 s.

Dengi. Kredit. Banki.: Uchebnik pod. red. Lavrushina O.I. - M.: Finansi i statistika, 1998. - 448 s.

Kozlova e.P. i Galanina e.N. Bank i klient - yuridicheskie litsa. - M.: Finansi i statistika, 1998. - 128 s.

Mullajonov F.M. Bank sohasi: maqsadimiz - iqtisodiyotdan uzgarishlarni jadallashtirish. . - T.: "Bozor, pul,kredit", 1999. № 5.

Obshaya teoriya deneg i kredita: Uchebnik (pod. Red. Prof. e.F.Jukova) . - M.: YuNITI, 1995. - 304 s.

Ol'shaniy A.I. Bankovskoe kreditovanie. - M.: RDL, 1997. - 351 s.

Oleynik O.M. Osnovi bankovskogo prava. - M.: Yurist, 1997. - 215 s.

Pul-kredit buyicha me'yoriy hujjatlar tuplami URMB. - T.: 1999. - 143 b.

Polojenie o poryadke organizatsii kratkosrochnogo kreditovaniya xozyaystvuyushix sub'ektov bankami na territorii Respubliki Uzbekistan. - T.: 1999. - 95 s.

Quyidagi tayanch so'zlarga ta'rif bering.

Bank ta'sischisi,
bank aktsiyadori,
bank manfati,
mijoz manfati,

bank paychisi,
bank operatsiyalari,
ustav kapital,
bank resurslari,
katta bank,
kichik bank,
ekvivalent mablag`,
bank turlari,
ochiq turdagi aktsiyador bank,
yopiq turdagi oktsiyador bank,
xususiy banklar,
Unversal banklar,
tijorat bankning
funktsiyalari,
bank foydasi,
bank zarari,
bank xususiyatlari,
rezerf fondlar,
qayta moliyalashtirish
stavkasi,
foiz siyosati,
foiz stavkasi,
brokerlar,

O`z bilimini tekshirish bo`yicha savollar.

Tijorat banklarining iqtisodiyotdagi rolini asoslab bering.

Tijorat banklari iqtisodiyotga qaysi jimxatlari bilan ta`sir ko`rsatadi.

Xususiylashtirish sharoitida banklarning o`rni va rolini ko`rsating.

Banklar faoliyatini erkinlashtirish deganda nimani tushunasiz?

Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish asoslarini keltiring.

Qanday shartlar (talablar) bajarilganda banklar faoliyatini olib borishga litsenziya beriladi.

Litsenziya chaqirib olinishi mumkinmi?

Markaziy bank bilan Tijorat banklarining munosabatlarini keltiring va asoslang

3-mavzu. Tijorat banklarining kredit potentsiali, resurslari va operatsiyalari

Reja:

1. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari
2. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari
3. Bankning komission (vositachilik) va trast operatsiyalari. Banklar o`rtasidagi korrespondentlik munosablari.

1. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari

Bank resurslarini shakllantirish bilan bog`liq bo`lgan operatsiyalar banklarning passiv operatsiyalari deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarning passiv va aktiv - passiv schetidagi pul mablag`larining salmog`i oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta rol o`ynaydi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklari kreditlash uchun zarur bo`lgan kredit resurslarini tashkil qiladi.

Tijorat banklari passiv operatsiyalarining asosan to`rtta shakli mavjud:

1. Tijorat banklari qimmatbaho qog`ozlarini muomalaga chiqarish yo`li bilan resurslar yig`ish;
2. Bank foydasi hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasini oshirish;
3. Boshqa kreditorlarning mablag`larini jalb qilish;
4. Depozit operatsiyalarni amalga oshirish.

Tijorat banklarining resurslari bankning o`z mablag`lari jalb qilingan va emitentlashgan mablag`lar hisobidan shakllanadi.

Yukorida keltirilgan passiv operatsiyalarning birinchi va ikkinchi shakllarida banklarning o`z mablag`lari yuzaga keladi va kolgan oxirgi ikki shaklida kredit resurslarning ikkinchi qismi jalb kilingan resurslar yuzaga keladi.

Banklarning o`z mablag`lariga - bankning ustav kapitali, rezerv kapitali, maxsus fondlar, moddiy rag`batlantirish fondi, boshqa har xil tashkil qilingan fondlar va taqsimlanmagan foydasi kiradi. Amaliyotda bank passivlarining 20 foizi banklarning o`z mablag`lariga to`g`ri keladi.

Banklarning o`z mablag`lari ichida asosiy o`rinni bankning o`z kapitali egallaydi. Bankning o`z kapitali tarkibiga biz yuqorida keltirib o`tgan kapitalning bir qismi, ya`ni ustav kapital, risklarni qoplash uchun tashkil qilingan rezerv fond, taqsimlanmagan foyda kiradi. Banklarning o`z kapitali bank kreditorlarining manfaatini himoya qilish, bank faoliyatining barqarorligini ta`minlash, bank faoliyatini boshqarish kabi funksiyalarni bajaradi.

Bankning ustav kapitali summasi bank ustavida ko`rsatiladi va bank ishini boshlashning boshlang`ich nuqtasi hisoblanadi. Banklarning tashkil qilishning shakllariga qarab bankning ustav kapitali ham har xil tashkil topadi. Agar bank aktsiyadorlik jamiyati tariqasida tashkil qilinadigan bo`lsa, ustav kapitali yoki fondi aktsiyalar chiqarish va joylashtirish yo`li orqali tashkil topadi. Banklarning ustav kapitali summasi qonun yo`li bilan chegaralanmaydi. Banklarning barqaror faoliyatini ta`minlash maqsadida uning minimal miqdori belgilab beriladi.

Bankning ustav kapitali uning balansining passivida ko`rsatiladi. Ustav fondi summasining oshirilishi bank aktsiyadorlari umumiy majlisida hal qilinadi.

Banklarning ustav kapitali ularning majburiyatlarini bajarishning asosi bo`lib xizmat qiladi. Bank kreditlari hisobidan banklarning ustav kapitalini tashkil qilish mumkin emas. Ustav kapitalini tashkil qilishda chetdan boshqa pul mablag`larini jalb qilish ham mumkin emas. Banklar tashkil qilinganda ustav kapitalining tarkibi moddiy mablag`lardan va pul mablag`laridan tashkil topadi. Bank faoliyatining boshlang`ich bosqichlarida bankning o`z mablag`lari hisobidan birinchi navbatdagi bank xarajatlari (er, bino, asbob-uskuna, ish haqi) qoplanadi. Banklarning o`z mablag`lari uzoq muddatli aktivlarga qo`yilmalar qilishning asosiy manbasi hisoblanadi.

Odatda Markaziy bank tijorat banklari uchun banklarning o`z mablag`lari bilan chetdan jalb qilingan resurslar o`rtasidagi chegarani belgilab beradi.

Banklarning aktsiyador kapitali quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topishi mumkin. Bular: a) o'z aktsiyador kapitali, bu kapital oddiy va imtiyozli aktsiyalar chiqarish va sotish hisobidan, taqsimlanmagan fondi hisobidan yuzaga keladi; b) har xil ko'zda tutilmagan xarajatlarni va to'lanmagan qarzlarni qoplash uchun tashkil qilingan rezervlar; v) bankning uzoq muddatli majburiyatlari (uzoq muddatli veksel va obligatsiyalar) bo'lishi mumkin.

Banklarning rezerv kapitali yoki rezerv fondi foydadan ajratmalar hisobiga hosil bo'ladi va u ko'zda tutilmagan **zararlar** hamda qimmatli qog'ozlar kursining tushishi natijasidagi yo'qotishlarni qoplash uchun mo'ljallangan.

Taqsimlanmagan foyda - rezerv fondiga ajratmalar va devidendlar to'langanidan so'ng qoladigan foydaning bir qismidir.

Banklarning o'z mablag'lari tijorat banklari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Banklarning o'z kapitali xissasining kamayishi ba'zi hollarda banklarning sinishiga olib keladi.

Jalb qilingan mablag'lar tijorat banklari kredit resurslarining asosiy qismini tashkil etadi. Bular depozitlar, shuningdek, kontokorrent va korrespondent schyotlardir.

Ularning asosiysi yo'qlab olinadigan qo'yilmalarga, tezkor hamda jamg'arma qo'yilmalarga bo'linuvchi depozitlardir.

Yo'qlab olinadigan qo'yilmalar, shuningdek, joriy **schyotlar** omonatchilarning birinchi talablari bilan olinadi. Joriy schyotning egasi bankdan chek daftarchasini oladi. Bunda u pul olish bilan birga iqtisodiy munosabatlar vakillari bo'lgan korxonalar, tashkilot, muassasalar hisob-kitob operatsiyalarini olib borishi mumkin.

Muddatli omonatlar - mijoz tomonidan bankka ma'lum muddatga qo'yiladigan qo'yilmalar bo'lib, ular orkali mijozlarga bank tomonidan yuqori foizlar to'lanadi. Bunda foiz stavkalari qo'yilmaning muddati va miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Muddatli qo'yilmalarning turlaridan biri - mablag'larni jalb qilishning aniq qayd etilgan vaqtga mo'ljallangan depozit sertifikatlari hisoblanadi.

Banklar uchun muddatli qo'yilmalar juda qulay hisoblanadi.

Bank resurslarining muhim manbasi - banklararo kreditlardir, ya'ni boshqa banklardan olinadigan ssudalardir.

Agar mijozning hisob-kitob schyoti yopilib, kontokorrent schyot ochiladigan bo'lsa, uning o'z mablag'lari va chetdan jalb qilingan mablag'lar hisobi shu schyotda olib boriladi.

Kontokorrent - bank va mijoz o'rtasidagi hamma hisob-kitob va kredit operatsiyalarini amalga oshiruvchi yagona schyot. Alohida davrlarda bu schyot passiv bo'ladi, boshqalarda esa aktiv bo'ladi, mijozga mablag' bo'lganida bu schyot passiv bo'ladi, bu mablag'lar yo'qligi tufayli mijoz bankka to'lov topshiriqnomasini ko'rsatganda yoki chek yozib berganda bu schyot aktiv bo'ladi. Ham debet, ham kredit bo'yicha kontokorrent schyotlarida foiz hisoblanadi.

Mol etkazib beruvchining bankida:

Dt – 161 xisobrakam (mol etkazib beruvchiga xizmat kursataetgan bankning XKKMdagi vakillik xisobrakami);

Kt- mol etkazib beruvchining xisob-kitob rakami.

Chek vositasida xisob-kitob kilish shakli.

Chek – uz xisobrakamidan chek egasiga ma`lum pul mikdorini tulash tugrisidagi pul tulovchining uz bankiga bergan ezma farmoyishi. Pul cheklari va xisob – kitob cheklari mavjuddir.

Pul cheklari – ish xaki, xujalik extiejlari, xizmat safari sarf – xarajatlari, kishlok xujalik maxsulotlarini sotib olish sarf – xarajatlari va xokazolar buyicha bankdan chek egasiga nakd pul tulash uchun kullnadi.

Xisob-kitob cheklari – nakd pulli xisob-kitoblar uchun kullnadi. Xisob-kitob cheki bu – uz xisobrakamidan mablag oluvchi (chek egasi) ning xisobrakamiga ma`lum pul mikdorini utkazish tugrisida chek beruvchi tomonidan uz bankiga berilgan va shartsiz bajarilishi lozim bulgan ezma buyruktan iborat belgilangan shakldagi xujjatdir. Xisob – kitob cheki xam tulov topshirigi singari pul tulovchi tomonidan rasmiylashtiriladi, lekin tulov topshirigidan farkli ularok pul tulovchi tomonidan tulov kabul kiluvchi korxonaga xujalik amalietini bajarish paytida beriladi. Tulv kabul kiluvchi korxonaga ushbu chek buyicha xak olish uchununi uz bankiga takdim kiladi.

Xisob-kitob cheklari koplangan va koplanmagan bulishi mumkin.

Koplangan xisob-kitob cheklari – chek beruvchi mijoz tomonidan «Xisob-kitob cheklari» 722 – aloxida bank xisobrakamiga avvaldan deponent tarzida mablag utkazilgan cheklardir. Bu tadbir ushbu cheklar buyicha tulov bajarilishi kafaolotini ta`minlaydi.

Koplanmagan xisob-kitob cheklari bank tomonidan tulov bajarilishi kafolatlangan cheklar. Bunda chek beruvchining xisobrakamida vaktincha mablag yukligi xolatida chek buyicha bank mablaglari xisobiga xak tulanishi kafolatlanadi. Chek buyicha bank kafolotiga kura xak tulanishi mumkin bulgan pul mikdorlari kafolat beruvchi bankning balansdan tashkari 9925 – «Bank tomonidan berilgan kafolat va kafilliklar» xisobrakamida kayd etiladi.

Bugungi kunda Uzbekiston Respublikasi Markaziy Bankining kursatmalariga muvofik xisob-kitob ishlarida fakat koplangan xisob-kitob cheklaridan foydalanish kuzlangan.

Mijoz xisob-kitob chekini olish uchun belgilangan shakldagi ariza bilan uziga xizmat kursataetgan bankka murojaat kiladi. Arizada cheklarning soni va chek bilan xisob kilish umumiy extiej mikdori kursatiladi. Ushbu ma`lumotlar asosida bir chekning millati urnatiladi va xar bir chekning teskari tomonidan ezib bosiladi. Chek berish arizasiga korxonaga raxbari va bosh buxgalteri imzo chekadi va muxr bosiladi.

Mijoz ariza bilan birgalikda bankka uz xisobrakamidan 722 – «Xisob – kitob cheklari» xisobrakamiga arizada kursatilgan pul mikdorini utkazishga oid tulov topshirigini takdim etadi va ushbu mablaglar deponentga olinganidan keyingina chek olish xukukiga ega buladi.

Tijorat banki mijozga chek berishdan oldin ularni kuyidagicha rasmiylashtiradi:

- pul tulovchi bankning nomi, tartib rakami, manzilgoxi;
- chek beruvchining nomi va bankdagi shaxsiy xisobrakami;
- chek ezib berilishi mumkin bulgan eng katta pul mikdori (chekning teskari tomonida bosiladi);
- bank mansabdor shaxsning imzosi va muxr.

Bundan tashkari bank xodimi mijozni chekdan foydalanish koidalari bilan tanishtirish yukotib eki ugirlatib kuyilgan cheklar uchun javobgarlik mavjudligi tugrisida xabardor etishi va undan bu xakda tilxat olishishart. Bank uz niyatiga kura eki extietkorsizlik okibatida chek buyicha xak tulagani xakida ma`lumot ezilmagani xolatida chek yukotib eki ugirlatib kuyilgani natijasida sodir bulgan xararni chek beruvchining uzi koplaydi.

Bank tomonidan mijozga cheklar bilan birgalikda shaxs guvoxlovchi (identifikatsiya) varakasi berilishi shart (chek varakasi). Ushbu varaka cheklar sonidan kat`iy nazar bir nusxada ezib beriladi va xar bir berilgan chek buyicha chek beruvchining guvoxlaydi.

Chek varakasining ungida kuyidagi ma`lumotlar bulishi zarur:

- pul tulovchi bankning nomi va uning rekvizitlari;
- «chek varakasi» ezuvi va uning tartib rakami;
- chek beruvchining nomi;
- chek beruvchining imzo namunasi;
- chek beruvchining shaxsiy xisobrakami.

Chekning teskari tarafida bank tomonidan chek buyicha bajarish kafolat shartlari kursatiladi:

- chekning limitdan ortik bulmagan mikdorga ezib berilgani;
- chekdagi va chek varakasidagi chek beruvchining imzosi aynan uxshashligi;
- chekdagi va chek varakasidagi chek beruvchining xisobrakami aynan birligi;
- chek ezib berilgan kundan boshlab 10 kun mobaynida bankka takdim etilishi zarurligi;
- chek buyicha xech kanday xizmat xaki undirib olinmasdan tula mikdorda xak tulanishi lozimligi.

Sanab utilgan shartlar bankning ma`sul xodimi tomonidan imzolanadi va bank muxri bilan tasdiklanadi.

Mijoz barcha xisob-kitob cheklarini ishlatib bulganidan keyin chek varakasini blankka kaytarib berishi shart va u yuk kilib yuboriladi. Korxonona tomonidan cheklarga yangi extiej tugilgani xakida ariza berilgani va bunda bir chek limiti uzgarmagani xolatida chek varakasi korxononada koldirilishi mumkin.

Cheklar bilan xisob-kitob kilishdagi xujjat muomalasi umumiy nuktai- nazardan kuyidagidan tashkil topadi: mol, ish, xizmatlarni xarid kilishda chek beruvchi xisob-kitob chekini ezib beradi va unda kuyidagi ma`lumotlarni kursatadi:

- tulov mikdori (rakam bilan va ezma tarzda);
- xak oluvchining nomi;
- chek ezib berilgan joy;
- tulov bajarish sanasi (oy nomi ezma tarzda kursatiladi).

ezib berilgan chek bevosita tulov bajarish (chekni xak oluvchiga topshirish) paytida chek beruvchi tomonidan imzolanadi.

Xisob-kitob chekini tulov uchun kabul kilaetgan (chek saklovchi) korxonona kuyidagilarga ishonch xosil kilishi zarur:

- chek mikdori uning teskari tarafida va chek varakasida kursatilgan eng kup mikdordan ortikcha emasligi;
- chek beruvchining chekda bosilgan xisobrakami chek daftaridagi xisobrakamga muvofikligi;
- chek beruvchining chekdagi imzosi chek varakasidagi imzoga aynan uxshashligi.

Chek notugri tekshirilgani okibatida kurilgan zararni chekni tulov uchun kabul kilingan (mol etkazib beruvchi) korxononaning uzi koplaydi. Korxonona vakili chekning teskari tomoniga imzo chekadi va turtburchak muxr izini bosadi. Sung mol etkazib beruvchi korxonona chek saklovchisi sifatida ushbu chekni xak olish maksadida uz bankiga takdim etishi mumkin. Chekni bankka takdim kilish muddati 10 kalendar kundan iborat (chek ezib berilgan kun xisobga kirmaydi).

Chek saklovchi cheklarni bankka topshirishda turt nusxadagi ruyxatni takdim etadi. Bu ruyxatda cheklar yuzasidan tula ma`lumot berilishi shart: cheklarning tartib rakami, chek beruvchining va chek saklovchining xisobrakamlari xamda ularga xizmat kursataetgan banklarning tartib rakami, cheklar mikdori. Ruyxat chek saklovchi korxononadagi ikki birinchi shaxslarning imzosi va muxr bilan tasdiklanadi.

Veksel vositasidan xisob-kitob kilish shakli.

Veksel vositasida xisob-kitob kilish shakli – mol etkazib beruvchi bilan pul tulovchi urtasida maxsus xujjat-veksel asosida mol eki xizmat uchun tulov muddatini uzaytirib berish (tijorat krediti) tarzidagi xisob-kitoblar.

Cheklangan talabli, noxaridorgir va kupdan beri sotilmay etgan kimmatliklarni foydali xujalik aylanuviga jalb kilish maksadida Uzbekiston Respublikasi Sanoat kurilish Banki Boshkaruvi shu kabi maxsulotlar tuplangan korxononalarga nisbatan 1988- yil 1 – oktyabrdan boshlab veksel vositasida xisob-kitob kilish shaklini joriy etish tajribasini boshlab berdi. Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Prezidiumining 1991-yil 24 iyundagi «Xujalik muomalasida veksellarni kullash xakida»gi karoriga binoan xukukiy va yuridik asosda barcha korxonona, tashkilot, muassasa, tayubirkorlar uchun kredit tarzida maxsulot etkazib berish, ish bajarish, xizmat kursatish bilan boglik bitimlarni rasmiylashtirishda veksellardan foydalanishga ruxsat berilgan.

Veksel – konunda kat'iy belgilangan shakldagi shartsiz bajariluvchi ezma karz majburiyati bulib, uz egasiga (veksel takdim etuvchiga) muddati kelganida veksel kursatilgan pul mikdorini shartsiz ravishda karzdordan talab qilish xukukini beradi. Konun veksellarni ikki asosiy turlarga ajratadi: oddiy va utkazma.

Oddiy veksel (salo veksel) – veksel beruvchi (karzdor) tomonidan ma'lum pul mikdorini ma'lum muddatda va ma'lum joyda mablag kabul kiluvchiga eki uning maxkamasiga tulash xakidagi oddiy va xech kandy shartsiz berilgan majburiyatdan iborat ezma xujjatdir.

Oddiy vekselni pul tulovchining uzi ezib beradi. Bunday veksel uz mazmuniga kura pul tulovchining karzdorlik tilxati sifatida kuriladi.

Utkazma veksel (ratta) – veksel kursatilgan pul mikdorini uchinchi shaxsga eki uning maxkamasiga tulash xakidagi veksel beruvchi (kreditor) tomonidan pul tulovchiga berilgan shartsiz bajariluvchi buyrukdan iborat ezma xujjatdir.

Oddiy veksel dan farkli ularok utkazma veksel da ikkita emas, balki eng kamida uchta shaxs ishtirok etadi:

- veksel beruvchi (trassant);
- veksel buyicha tulov bajarish buyrugini ijro etuvchi pul tulovchi (trassat);
- veksel saklovchi (remitent) – veksel buyicha xak oluvchi.

Utkazma veksel pul tulovchi (trassat) tomonidan aktseptlangan bulishi shart va shundan sunggina u ijro etilishi lozim bulgan xujjat kuchiga ega buladi. Utkazma veksel aktseptlovchisi oddiy veksel beruvchisi kabi veksel buyicha bosh karzdor xisoblanadi, ya'ni veksel buyicha belgilangan muddatda xak tulash uchun javobgar buladi.

Aktsept veksel uning chap kismida kayd kilinadi va «aktseptlanadi, kabul kilinadi, xak tulayman» kabi suzlar bilan ifodalanadi. Bunda albatta pul tulovchining imzosi bulishi zarur.

Veksel kat'iy rasmiy xujjat deb xisoblanadi va shart bulgan rekvizitlar ruyxatidan iborat buladi. Biror bir rekvizitning yukligi vekselni yuridik kuchdan maxrum etadi.

Shart bulgan veksel rekvizitlari katoriga kuyidagilar kiradi: veksel belgisi, ya'ni xujjat ezilgan tilda ifodalangan «veksel» ezuvi, vekselni tuzish joyi va vakti (kuni, oyi va yili):

- ma'lum pul mikdorini tulash v`dasi;
- rakam bilan va ezma tarzda kursatilgan pul mikdori (tugrilash mumkin emas);
- xak tulash muddati;
- xak tulash joyi;
- kimga (nomi) eki kimning buyrugiga binoan xak tulashi lozimligi;
- veksel beruvchining imzosi (uz kuli bilan ezma tarzda takdim etiladi).

Oddiy veksel buyicha xak tulovchi – veksel beruvchidir. Bunday farkli ularok utkazma veksel buyicha maxsus shaxs – TRASSAT xak tulaydi. Bu nom utkazma vekselga oid shart bulgan kushimcha rekvizit xisoblanadi. Odatda pul tulovchi (trassat)ning belgisi veksel uning pastgi chap burchagida kuyiladi. Oddiy veksel da «xak tulash majburiyatini olaman» suzlarining urniga utkazma veksel da «tulansin», «xak tulang» kabi buyruk eziladi. Oddiy va utkazma veksel xakidagi nizomda pul tulovchi aktseptlangan veksel buyicha xak tulanihi kushimcha tarzda kafillik (aval`) berish vositasida kafolotlanishi kuzlangan. Bunday kafillik dastlabki pul tulovchi xamda veksel buyicha majburiyat olgan boshka shaxs uchun uchinchi shaxs (odatda bank) tomonidan beriladi.

Aval` – vekselning ungida veki vekselga tegishli kushimcha varak (allonj)da avalistning maxsus imzosi bilan rasmiylashtiriladi. Aval`da kuyidagilar kursatiladi: kim uchun bank tomonidan kafolat berilgani, ezib berish joyi va sanasi, bankdagi ikki birinchi mansabdor shaxslarning imzosi va bank muxri. Aval` kilingan veksel bankning 9925 – «Bank tomonidan berilgan kafolot va kafilliklar» balansdan tashkari xisobrakami buyicha kirim kilinadi.

Avalist va kafillikdagi shaxs veksel buyicha xak tulash uchun birgalikda javobgarlik beradilar. Avalist veksel vbuyicha xak tulagani xolatida vekselga oid barcha xukuklar unga utadi.

Veksel buyicha aval` berilishi vekselning ishonchiligini oshiradi, veksel muomalasining rivojlanishiga kumaklashadi.

Veksellarga oid amaldagi konunchilikda veksellarni tulov kuroli sifatida bir shaxsdan ikkinchi shaxsga utkazish ezuvi (indossament) erdamida bir kuldandan boshqa kulga utkazish imkoniyati kuzlangan. Indossamentga binoan vekselning utkazilishi – ushbu veksel buyicha xak tulash topshirigini berish xukukining xam veksel bilan birgalikda boshqa shaxsga topshirilishini bildiradi. Veksel saklovchi vekselning teskari tarafida eki kushimcha varak (allanj)da «buyruk beruvchiga tulansin» eki «mening urnimga tulang» suzlarini ezadi va tulov xukuki kimga utganligini kursatadi.

Indossament buyicha vekselni topshiruvchi shaxs Indossant deb ataladi. Indossament buyicha vekselni oluvchi shaxs esa indosat deb ataladi.

Vekselga oid barcha xukuk va majburiyatlar indosatga utadi. Konunda aytib utilganidek, barcha chizib tashlangan indossamentlar ezilmagan deb xisoblanadi va yuridik kuchga ega bulmaydi. Kuldandan kulga utkazish ezuvi bilan rasmiylashtirilgan veksel buyicha bajarilgan tulovlar uchun unda ishtirok etgan barcha shaxslar birgalikda javobgarlik beradilar.

Indossament vositasida vekselni kuldandan kulga utkazish imkoniyati vekseldan foydalanish doirasini kengaytirish, uni tijorat kreditiga oid oddiy rasmiylashtirish kuroolidan mol va xizmat sotuviga xizmat kursatuvchi kredit muomalasi kuroliga aylantirish uchun xizmat kilish lozim.

5-mavzu. Qisqa muddatli kreditlashni tashkil qilish asoslari

1. Qisqa muddatli kreditlashni tashkil qilish asoslari
2. Kreditlashning yangi shakllari
3. Lombard krediti va veksel muomalasi asosidagi kreditlar

1. Qisqa muddatli kreditlashni tashkil qilish asoslari

O`zbekiston Respublikasi hududida xo`jalik yurituvchi sub`ektlarga kredit berish tijorat banklari tomonidan “Banklar va bank faoliyati to`g`risida”gi Qonun asosida va boshqa me`eri xujjatlarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Kreditlar O`zbekiston Respublikasining “Korxonalar to`g`risida”gi Qonuniga asosan kredit, o`z kapitali va mustaqil balansiga, yuridik shaxs huquqiga ega bo`lgan mustaqil xo`jalik yurituvchi sub`ektlarga beriladi. Tijorat banklari xo`jalik yurituvchi sub`ektlarga, ularning mulkchilik shakllaridan qat`i nazar, shartnoma asosida qisqa muddatli kredit beradilar. Kredit mijozning hisob-kitob varog`i joylashgan bankdan beriladi. Boshqa banklarning mijozlariga kredit berilishiga yo`l qo`yilmaydi. Zarar ko`rib ishlaydigan, nolikvid balansga ega bo`lgan xo`jalik yurituvchi sub`ektlarga kredit berilmaydi, ilgari berilgan ssudalar esa belgilangan tartibda muddatidan ilgari undirib olinadi. Kredit resurslaridan uzoq muddatli moliyaviy nobarqarorlik, xo`jasizlik va zararlarni qoplash uchun foydalanishga yo`l qo`yilmaydi. Kreditlar muddatiga ko`ra qisqa muddatli, o`rta muddatli va uzoq muddatli turlarga bo`linadi.

Qisqa muddatli kredit amal qilish muddati 12 oydan oshmaydigan ssuda bo`lib, uning muddatining uzaytirilishi kreditlanayotgan tadbirlarni o`tkazish muddati, ularning qoplanishi va boshqa shartlardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qisqa muddatli ssudalar kreditlarning boshqa turlariga nisbatan likvidliroq hisoblanadi. O`rta muddatli 1-5 yilgacha, uzoq muddatli kreditlar 5 yildan ortiq muddatga beriladi.

Kreditlash jarayoni bir nechta priksiplar orqali amalga oshiriladi:

- maqсадlilik;
- ta`minlanganlik;
- muddatliligi;
- qaytarilishi;
- to`lovlilik.

Qaytarilish tamoyili kreditning mohiyatini ifodalaydi. Bank tomonidan mijozlarga beriladigan har bir so'm pul mablag'lari yana bankka qaytarilishi lozim. Qaytarib berishni iqtisodiy asosi sifatida mablag'larning uzluksiz doiraviy aylanishi hisoblanadi.

Kredit iqtisodiy munosabatlarni belgilangan tizimi sifatida boshqa pulli munosabatlardan farq qiladi, ya'ni pulning harajati qaytarib berish sharti bilan amalga oshadi.

Kreditning muddatlilik tamoyili bo'lib, u qaytarishlik tamoyili bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Kreditlashning muddatliliigi ikki tomonlama xarakterga ega. Birinchidan kreditning mohiyati vaqtincha foydalanishga berilgan mablag'larning qaytarilishliginigina bildirib qolmay, balki bu qaytarilishini aniq muddatlarini belgilashni ham taqozo etadi. Kreditning muddati, bir tomondan foydalanishga berilayotgan kredit resurslarining bo'sh turish muddati bilan belgilansa, ikkinchi tomondan qarz oluvchining mablag'larga bo'lgan vaqtinchalik ehtiyojlarining muddatiga bog'liq. Kreditlashtirish muddatliliigining bu ikki tomonlama xarakteri inobatga olinganda vaqtinchalik foydalanishga berilgan mablag'larni to'liq va belgilangan muddatda qaytarilishini ta'minlash mumkin. Kreditning muddatliliigiga rioya qilish banklar uchun ham, qarz oluvchilar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Buning hisobiga bank kredit resurslarini aylanishni jadallashtiradi, ulardan oqilona foydalanishga erishsalar, xo'jaliklar esa o'z daromadlarini ko'paytirish, o'z va qarz mablag'laridan foydalanish samarasini oshirishlari mumkin. Kredit muddatini uzaytirish aksariyat hollarda bankning ruxsati bilan amalga oshiriladi. Kredit muddati qarz olingan mablag'larni qaysi davrgacha foydalanishini hisobga olgan holda belgilanadi.

Kreditning keyingi tamoyili - kreditning ta'minlanganligidir. Bunda ssudaning ta'minlanganligi kredit berilishiga asosan qarz oluvchining mulki, moddiy boyliklar zaxiralari, ko'chmas mulki yoki ishlab chiqarish harajatlari summasiga mos kelishi bilan belgilanadi. Bu o'z navbatida kreditni o'z muddatiga qaytarilishiga kafolat berilishini tasdiqlaydi. Olingan kredit mablag'lari korxonada ishlab chiqarish zahirasi, tugallanmagan ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot hamda mavjud moddiy boyliklarni ta'minlash uchun beriladi. Bu tamoyil asosan korxonalarga berilgan ssudalar yoki tomonlar majburiyatlari real ta'minlanadi. Ssudaning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash uchun kredit shartnomasiga ko'ra qarz oluvchi garovga ma'lum qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni qo'yib rasmiylashtiradilar. Agar kredit oluvchi kreditni o'z vaqtida qaytara olmasa, u holda garovni sotish choralari ko'riladi. Kredit miqdori garovga qo'yilgan mulk qiymatining 50 foizidan 80 foizigacha miqdorida beriladi.

Kreditning bosh tamoyili kreditning maqsadga

yo'naltirishidir. Bunda aniq xo'jalik jarayonlarining kredit bilan bog'liqligi ta'minlanadi. Kreditni maqsadli yo'naltirish tamoyili qarz oluvchi zimmasiga pul mablag'larini faqat rejada ko'rsatilgan maqsadlar uchun sarflashi ko'zda tutadi. Uzoq muddatli kredit maqsadli tarzda aniq qurilish ob'ektlari va asbob-uskunalarni sotib olish uchun beriladi. Kreditlar biznes-reja asosida beriladi. Iqtisodiyotda kredit resurslarini rejali taqsimlanishida maqsadlilik tamoyili muhim ahamiyatga ega. Kreditni maqsadli yo'naltirish kredit miqdorini tartibga solish usullariga bog'liq bo'ladi. Bu usullar:

limitlashtirish;

nazorat raqamlarini belgilash;

reja bo'yicha kredit miqdorini aniqlash kabilaridan iborat.

Kreditning maqsadli yo'naltirilishini ta'minlash uning o'z vaqtida qaytarilishi uchun real shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bu tamoyil rioya qilish bank muassasalari tomonidan qarz oluvchi korxonalarining hisobotlari asosida nazorat qilinadi. Berilgan kredit qarz oluvchi tomonidan boshqa maqsadga ishlatilgan bilib, u holda belgilangan tartibda kredit muddatidan ilgari qaytarib olinadi.

Kreditlashning beshinchi tamoyili - olingan kredit uchun haq to'lash yoki foizlikdir. Bunda shartnomaga ko'ra kredit oluvchi korxonaga o'z ehtiyoji uchun kreditga olgan pul mablag'laridan vaqtincha foydalanganligi uchun bankka belgilangan haqni to'lashi lozim. Amaliyotda bu tamoyil bankning foizi mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Bankning foizi stavkasi bu kreditning "narxidir". Kredit uchun haq to'lash korxonalarini xo'jalik hisobiga shu

jumladan resurslarni ko'payishiga hamda jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga ta'sir etadi. Bank muassasalari kredit foizi hisobidan o'z xarajlarini qoplaydi. Kredit uchun haq to'lash tamoyili qarzga olingan mablag'lardan unumli foydalanish va kreditni qaytarish muddatini tezlashtirish maqsadida korxonaga iqtisodiy ta'sir ko'rsatish vositasidir. Bank foizi kredit turlariga qarab turlicha belgilanadi. Qaytarilish muddati o'tib ketgan kreditlar uchun oshirilgan miqdorda foiz olinadi, bu esa qaytarish muddati shartlariga qat'iy ravishda rioya qilishga yordam beradi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan tamoyil asosida kredit olmoqchi bo'lgan mijozlarga kredit paketi tayyorlanadi va kredit olish mumkin yoki mumkin emasligi tahlil qilinadi.

Kredit paketini tayyorlash va uni tahlil qilish jarayoni quyidagi bosqichlarga bo'linadi.

- a) kredit olish to'g'risidagi buyurtmanomani ko'rib chiqish va kelgusidagi qarz oluvchi bilan muloqatda bo'lish;
- b) kredit narxini aniqlash;
- v) kredit shartnomasini tayyorlash.

Kredit olish uchun qarz oluvchi o'zining moliyaviy va ishlab chiqarish imkoniyatlarini quyidagi mazmunda tahlil qilishi lozim:

- o'z mahsulotini sotish bozori, unga talab va taklifni o'rganish;
- kredit olish uchun asos bo'luvchi tovar-moddiy boyliklarni etkazib berish, ishlab chiqarish harajatlari va tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha kontraktlar bilan ta'minlanganligi;
- kreditlanadigan tadbirning samaradorligi;
- qarz oluvchi hisob varag'iga pul mablag'larining kelib tushish davriyligi;
- kreditni va unga tegishli foizlarni to'lash manbalari;
- kredit uchun to'lanishi mumkin bo'lgan foiz hisob-kitobi va uning davriyligi;
- oldingi davr (yil, chorak, oy) gi moliyaviy xo'jalik faoliyatining respektiv tahlili;
- joriy davr uchun biznes-reja.

Xo'jalik sub'ekti kredit olish uchun tahliliy va xomcho't ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, kredit buyurtmanomasi va iltimosnomasini tuzadi.

Iltimosnomada kredit olish zaruriyati, uning samaradorligi, qaytarilishi, to'lovligi va ta'minlanishi, shuningdek, o'z kapitali tarkibi va uning kreditlanayotgan tadbirdagi ishtiroki batafsil bayon qilinadi. Iltimosnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- a) kredit buyurtmanomasi;
- b) pul oqimi tahlili ko'rsatilgan biznes-reja;
- v) oxirgi hisobot davri uchun buxgalterlik balansi, debitorlik va kreditorlik qarzlari va to'lov muddati 60 kundan oshgan qarzlarni qiyoslash dalolatnomalar talqini bilan birga;
- g) foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot;
- d) aylanma mablag'larini aylanishi hisob-kitobi;
- e) boshqa kreditlar, qarz mablag'lari mavjudligi va boshqa banklarda saqlanadigan bosh mablag'larning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- j) kapitali bilan ishtirok etganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma.

Kredit xodimi yoki kredit paketini o'rganuvchi shaxs yuqorida qayd etilgan xujjatlarni olgach, uch kunlik muddatda quyidagilarni aniqlaydi:

- sub'ektlarning kredit va to'lov qobiliyati, uning reyting bahosini, shuningdek kredit maqsadlarining ustav faoliyatiga muvofiqligi, kreditning turini aniqlaydi, bunda u majburiy tartibda likvidlilik, qoplash, muxtoriyat, qarz mablag'larini jalb qilish, foyda va aylanma mablag'lari aylanishi koeffitsientlaridan foydalanadi.

Kredit paketini tahlil qilishda nafaqat kredit bitimlarining turli sohalariga, balki rahbarning shaxsiy sifatlariga ham baho beriladi.

Taqdim etilgan xujjatlarni batafsil o'rganib chiqqach, bank xodimi kredit bitimini tuzish uchun xulosani rasmiylashtiradi. Bunda quyidagilar ko'rsatiladi:

- kreditning maqsadi, muddati va miqdori;
- kredit qaytarilishining ta'minlanishi;
- foiz miqdori va boshqalar.

Bank xodimining xulosasi rahbar tomonidan imzolangan va xujjatlar ilova qilingan holda kredit qo`mitasiga ko`rib chiqish uchun yuboriladi. Qo`mita o`z vakolatlaridan kelib chiqqan, holda uch kun mobaynida tegishli qaror qabul qiladi. Mazkur xulosa kredit qo`mitasi raisi tomonidan tasdiqlanadi. Shundan so`ng kredit shartnomasi tuziladi yoki kredit bitimini tuzish va ssuda berishdan bosh tortish sabablari ko`rsatilgan holda qarz oluvchiga yozma ravishda rad javobi beriladi.

Kredit qo`mitasining ijobiy xulosasidan so`ng kredit shartnomasi tuziladi. Kredit shartnomasiga bank rahbari va qarz oluvchi imzo chekkanidan so`ng u yuridik kuchga ega bo`ladi.

Kredit shartnomasida quyidagilar ko`zda tutiladi:

- kreditning maqsadi va summasi;
- uni berish tartibi hamda to`lash tartibi va shakli;
- majburiyatlarni ta`minlash shakllari, foiz stavkalari, ularni hisoblash tartibi va to`lash shakli;

kredit berish va uni to`lash vaqtida tomonlarning huquq va majburiyatlari;

kredit berish uchun zarur bo`lgan ma`lumotlar, hisob-kitob va xujjatlarning ro`yxati hamda ularning davriyligi;

bank tomonidan joyida hisob yuritish, kreditning qaytarilishini ta`minlash yuzasidan tekshiruvlar o`tkazish imkoniyati va boshqa masalalar.

Kredit xodimi kredit shartnomasi tuzilganidan so`ng kreditni to`lash muddati va foiz stavkalarini ko`rsatgan holda ssuda hisob varog`ini ochish to`g`risida qaror qabul qilgach, qarz oluvchiga kredit varoqchasi ochilib, unga asosan kredit yuzasidan nazorat amalga oshiriladi.

Bank kreditdan foydalanilgan vaqt uchun haq to`lash kredit narxini tashkil etadi, u hisobot oyi boshlangunga qadar bank bo`yicha yuzaga keladigan o`rtacha foiz stavkasi va marjani o`z ichiga oladi.

Kredit narxi Markaziy bankning “ qayta moliyalash” stavkalarini me`yorlari bilan tartibga solinadi hamda mahsulot va xizmatlar tan-narxi darajasini hisobga olgan holda belgilanadigan chegara ko`rsatkichlaridan oshmasligi lozim. Amalda qayta moliyalash stavkasi “O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki to`g`risida”gi Qonunning tegishli moddasiga muvofiq Markaziy bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Hozirgi kunda qayta moliyalashtirish foiz stavkasi oyiga 3 foizni, hamda yiliga 36 foizni tashkil etadi. Bu foiz stavkasiga tijoart banklari 1,5 martagacha marja qo`yishi mumkin, ya`ni bir oylik tijorat kreditini foiz stavkasi 4,5 foiz bo`lib, yillik 54 foizni tashkil etadi. Demak eng oxiri chegara 54 foiz, quyi chegara 36 foiz va bu barcha kreditlar uchun bir xildir.

2. Kreditlashning yangi shakllari

Tijorat banklari tomonidan xo`jaliklarga berilgan har bir kreditlar sifatini tovar moddiy qiymatlari va ishlab chiqarish harajatlari bilan ta`minlangan bo`lishi lozim. Kreditning bu sharti boshqa shartlar bilan o`zaro bog`liq bo`lib, o`z vaqtida ularning bajarilishini ham ta`minlaydi. Qachonki berilgan kreditlar to`la ta`minlangan bo`lsa, kredit o`rnatilgan muddatda, to`lov bilan qaytarish mumkin, aks holda kreditning qaytarilishi ma`lum muddatga kechikishi yoki boshqa negativ holatlar sodir bo`lishi mumkin.

Xo`jaliklarni qisqa muddatli kreditlash “O`zbekiston Respublikasi banklar va bank faoliyati to`g`risidagi qonun”ga muvofiq amalga oshiriladi. Qisqa muddatli kreditlar yuqoridagi shartlar asosida o`z balansiga ega bo`lgan, iqtisodiy jihatdan mustaqil, o`z mablag`lariga ega korxonalar to`g`risidagi qonunga bo`ysunuvchi shaxslarga beriladi.

Qisqa muddatli kredit 11 kundan 1 yilgacha beriladi deb aytdik. Demak, bu kredit berilishidan avval kredit paketi tashkil qilinib, u chuqur tahlil etiladi. Kredit paketining tashkil topishi va uning tahlili quyidagi bosqichlardan iborat bo`ladi:

1. Bundan qarz oluvchi mijoz rahbarining mutaxassisiligi, ishbilamonlik qobiliyati, hujjatning boshqa xo`jaliklar bilan munosabatlari va so`rayotgan kreditni ishlatishdan maqsad kabi holatlar aniqlanadi.

2. Qarz oluvchining kreditga layoqatliligini aniqlash va baholash. Bu bilan soʻralayotgan kreditning tavakkalchilik darajasini aniqlash, uning qaytarilmaslik imkoniyatlari va boshqa moliyaviy holatlar aniqlanadi.

3. Soʻralayotgan kreditning bahosini aniqlash (foiz oʻrnatish).

4. Kredit shartnomasini tayyorlash va uning kuchga kiritilishi.

Kredit olish uchun har bir mijoz oʻz moliyaviy holatini chuqur tahlil qilgan holda soʻralayotgan kreditning samaradorligini aniqlashi lozim. Bu borada xoʻjalik tomonidan ishlab chiqarilgan tovar yoki koʻrsatilgan xizmatlar uchun isteʼmolchilarning mavjudligining, xoʻjalik hisob-kitob schyotiga kelib tushishi mumkin boʻlgan mablagʻlar kanallarini aniqlash hamda kredit va u uchun foizni oʻz vaqtida qaytarilishi imkoniyatlarini hisoblash lozim. Bundan keyin qarz oluvchi bankka kredit soʻrab ariza bilan murojaat qiladi. Xoʻjalik tomonidan bankga taqdim etilgan barcha hujjatlar: ariza, xodataystvo, kreditga layoqatlilikning tahlili, xoʻjalikning balansi va statistik maʼlumotlari, kredit shartnomasi va boshqa zarur hujjatlar majmuasi kredit paketini tashkil etadi. Kredit paketining tahlili esa yuqoridagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Kredit paketi chuqur tahlil etilgandan keyin hujjatlar bankning kredit qoʻmitasiga taqdim etiladi va bank rahbarining roziligi bilan kredit berish-bermaslik haqida qaror qabul qilinadi (belgilangan miqdordan yuqori hajmdagi kreditlar Markaziy bank kredit qoʻmitasining roziligi bilan beriladi).

Bizga maʼlumki, xoʻjaliklar tomonidan bank kreditini ishlatganligi uchun qilinadigan toʻlov kredit bahosining oʻrtacha foiz miqdori bilan marjadan iborat boʻladi. Xoʻjaliklarga berilishi lozim boʻlgan kreditlar bahosi Markaziy bankning remoliyalashtirish siyosati boʻyicha oʻrnatilgan foiz asosida belgilanadi.

Kontokorrent va overdraft kreditlari

Kontokorrent krediti bank bilan doimiy munosabatda boʻlgan, bank va boshqa xoʻjaliklar oldidagi majburiyatlarni oʻz vaqtida bajaruvchi moliyaviy jihatdan barqaror boʻlgan xoʻjaliklarga berilishi mumkin. Yaʼni bank kontokorrent kreditni moliyaviy jihatdan barqaror boʻlgan xoʻjalik subʼektlarga beradi. Kontokorrent schyoti kredit shartnomasi asosida ochilib, xoʻjalik uchun yagona schyot hisoblanadi, yaʼni bu schyot ochilishi bilan xoʻjalikning hisob-kitob schyoti tugatiladi.

Kontokorrent schyotidan kredit belgilangan limit miqdorida tovar moddiy qiymatlari uchun hisob-kitob hujjatlarini toʻlashga, bajarilgan ishlar va koʻrsatilgan xizmatlar haqini toʻlashga yuboriladi. Bu schyot aktiv-passiv boʻlib, aktiv qoldiqqa ham, passiv qoldiqqa ham ega boʻlishi mumkin. Lekin asosiy faoliyatidan kelib tushadigan barcha mablaglar shu schyotga yoʻnaltiriladi. Agarda kelib tushgan mablagʻ korxonaning qarzidan yuqori boʻlsa, kredit qoldigʻi hosil boʻladi va aksincha debet qoldigʻi hosil boʻladi. Kontokorrent schyoti boʻyicha debet qoldigʻi mavjud boʻlsa, korxonadan bankdan kredit olgan deb hisoblanib, bank foydasiga foiz undiriladi (shartnomada koʻrsatilgan miqdorda), aksincha kredit qoldigʻi mavjud boʻlsa, korxonaning oʻz mablagʻlari mavjud hisoblanib, bank korxonaga foydasiga foiz toʻlaydi.

Kontokorrent hisobvaragʻidan kredit asosiy faoliyat bilan bogʻliq tovar-moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar va koʻrsatilgan xizmatlar uchun pul-hisob-kitob hujjatlari haqini toʻlash yoʻli bilan beriladi. Boshqa turdagi toʻlovlar (kechiktirib boʻlmaydigan ehtiyojlar, ish haqi, byudjetga toʻlovlar va boshqa toʻlovlar) kontokorrent hisobvaragʻidagi kredit qoldigʻi doirasida beriladi.

Kreditni qaytarish tovarlar sotish, ishlar bajarish va xizmatlar koʻrsatishdan olingan tushumni kontokorrent hisobvaragʻi kreditiga kiritish tartibida amalga oshiriladi.

Korxonaga ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlarni kontokorrent schyotining kredit qoldigʻi miqdorida amalga oshirish mumkin.

Kontokorrent schyoti shartnoma boʻyicha 12 oygacha ochilishi mumkin. 12 oy toʻlishi bilan xoʻjalik bu schyot kredit qoldigʻini taʼminlash mumkin. Yil mobaynida har oyning 1-chislosiga schyot boʻyicha kredit qoldigʻi taʼminlanishi lozim. 12 oy toʻlgandan keyin korxonaning arizasiga asosan schyotdan qayta foydalanishni bank hal qiladi. Kredit shartnomalarini doimiy bajarib, moliyaviy jihatdan barqarorlikni saqlab qolgan xoʻjaliklar uchun

bu schyot oldingi yil limit miqdorida qayta tiklanishi mumkin. Har oyda schyot bo'yicha pul mablag'larining harakati kredit va debet qoldiqlari bo'yicha hisoblanib, tahlil olib boriladi.

Agarda oy bo'yicha mijozning moliyaviy ahvoli ijobiy, hamda kredit qoldiq debet qoldiqdan ko'proq bo'lgan bo'lsa, kredit bo'limi xodimi mijoz kontokorrent schyotidan yana foydalanishi mumkinligi to'g'risida xulosa qabul qiladi.

Qarz oluvchi moliyaviy ko'rsatkichlarni buzgan, uning to'lov layoqati yomonlashgan va yaxshilanishi ehtimolidan uzoq bo'lgan hollarda, qo'mita qarz oluvchini, kontokorrent hisobvarag'i bo'yicha kreditlashni to'xtatish va ilgari berilgan kreditlarni qoidalarda ko'zda tutilgan tartibda undirib olish masalasi ko'rib chiqadi.

Overdraft schyoti ham kontokorrent schyotining maxsus turi bo'lib, moliyaviy jihatdan barqaror bo'lgan xo'jaliklar uchun qo'llanishi mumkin. Overdraft schyotining kontokorrent schyotidan farqi shundaki, bu schyot bo'yicha ma'lum muddatga debet qoldig'i hosil bo'lishiga ruxsat etiladi. Overdraft schyotidan kredit xo'jalik asosiy faoliyatiga tegishli bo'lgan tovar moddiy qiymatliklari va ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitob hujjatlarini to'lashga beriladi.

Boshqa to'lovlar (ish haqi, kechiktirib bo'lmas xarajatlar, byudjetga to'lovlar va boshqalar) overdraft hisobvarag'idagi kredit qoldig'i doirasida o'tkaziladi.

Kreditning qaytarilishi pul tushumlarining shu schyotga qabul qilinishi bilan amalga oshiriladi.

Overdraft schyoti bo'yicha debet qoldig'i ma'lum muddatga hosil bo'lishi, xo'jalikning depozit schyotida mavjud bo'lgan pul mablag'lari hajmida bo'lishi mumkin. Kredit uchun foiz belgilangan miqdorlarda o'rnatilib, uning yo'nalishi shartnomada ko'rsatiladi. Bu schetdan foydalanish davrida bank schyotida mavjud bo'lgan summadan ortiq to'lovlarni rad etish huquqiga ega bo'ladi.

Oy oxirida ushbu bankda qarz oluvchining depozit mablag'lari bo'lmas va overdraft bo'yicha debet sal'dosi bo'lsa, u to'liq qoplanguncha bunday qarz berish to'xtatilib turiladi. Overdraft scheti boshqa schetlarga qayta rasmiylashtirilishi ham mumkin. Buning uchun kredit qaytarilishi ta'minlangan bo'lishi hamda qisqa muddatli kreditlash yuzasidan belgilangan muddatga rioya etilishi shart. Bunda bu schetni kontokorrent schetiga qayta rasmiylashtirilishi mumkin emas.

3. Lombard krediti va veksel muomalasi asosida kreditlar.

Qimmatli qog'ozlar garovi ostidagi kredit (lombard krediti) alohida ssuda schyotidan tovar moddiy qiymatlar va xizmatlari uchun hisob-kitob xujjatlarini to'lashga qimmatli qog'ozlar garovi ostidagi kredit beriladi.

Kredit berishda ta'minlanganlik sifatida (garovi) davlatning qimmatli qog'ozlari va boshqa elementlarning aktsiya, obligatsiya, veksel yoki depozit sertifikatlari qabul qilinishi mumkin. Bunda bankning o'zi tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlari garov sifatida qabul qilinishi mumkin emas.

Lombard krediti ta'minoti sifatida quyidagilar garov shartnomasi rasmiylashtirilib berilishi mumkin:

- davlat qimmatli qog'ozlari;
- boshqa elementlarning aktsiyalari va obligatsiyalari, veksellari va depozit sertifikatlari.

Bankning o'z aktsiyalari garov sifatida qabul qilinishi mumkin emas.

Lombard kreditning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, garov shartnoma tuzilgan kundagi nominal qiymat bo'yicha emas, balki garov sotilayotgan vaqtda yuzaga keladigan kurs risklari munosabati bilan uning muayyan qismi uchun baholanadi.

Shu bois qimmatli qog'ozlarni garovga olib lombard krediti berish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda bank qarz oluvchining moliyaviy ahvoli va kredit qobiliyatini tahlil qilish bilan bir vaqtda kredit ta'minoti tarzida qabul qilinadigan qimmatli qog'ozlar sifatida, ularning kurs riski darajasini baholashga alohida e'tibor beradi.

Shu tariqa qimmatli qog'ozlar kotirovka qilinayotganda ularning kurs riskini belgilab beruvchi qimmatli qog'ozlar bozoridagi birja kursi o'zgarishlari munosabati bilan qimmatli qog'ozlarning garov qiymati birja qiymatining 80 foizdan, kotirovkalanmaydigan qimmatli qog'ozlar garov qiymati esa nominal qiymatining 60 foizdan oshmasligi zarur.

Qimmatli qog'ozlarni garovga olib beriladigan kredit 12 oygacha muddatga yoki qimmatli qog'ozlar muomalada bo'lishi muddatigaberilishi lozim.

Qimmatli qog'ozlar kotirovkasining birja kurs kredit shartnomasida qayd etilganda fond birjasidagi oxirgi savdoda chiqarilgan kotirovka ma'lumotlari hisobga olinadi. Davlat qimmatli qog'ozlari reyting sifati, ayniqsa, yuqori darajada bo'ladi. Shu bois ular garovga qabul qilinaetganda beriladigan kreditning maksimal summasi ular garov qiymatining 90 foizgacha etishi mumkin.

Qarz oluvchi fond bozoridagi sotib olgan boshqa qimmatli qog'ozlar garovga olinayotganda kredit maksimal summasi ular garov qiymatining 80 foizdan yuqori bo'lmaydi.

Lombard kreditini berish, qaytarish va ulardan foydalanganlik uchun foizlar to'lash tartibi umumiy asoslarda amalga oshiriladi va u alohida qarz hisobvarag'i bo'yicha kreditlash tartibiga o'xshashdir.

Asosiy faoliyat bilan bog'liq tovar moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar haqini to'lash maqsadida tuzilgan pul-hisob-kitob xujjatlari pulini to'lash uchun qabul qilinadi.

Qarz oluvchi bankga garovga qo'ygan qimmatli qog'ozlar bo'yicha olinadigan daromadlarga foizlar qo'shilmaydi.

Qimmatli qog'ozlarni garovga olib kredit shartnomasi tuzilgandan keyin bank qimmatli qog'ozlar elementiga uning qimmatli qog'ozlarini garovga qo'yish bitimi tuzilganligini hamda qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar kiritilishi lozim bo'lgan depozit hisobvarag'i nomerini ma'lum qiladi. Lombard krediti beriladigan hollarda garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha olinadigan daromadlar qarz oluvchining muddatsiz depozit hisobvarag'iga qo'yiladi (depozit shartnomasini rasmiylashtirmasdan) va birinchi navbatda ularni saqlash xarajatlarini qoplashga, shuningdek, kreditdan foydalanish uchun foizlarni to'lashga yo'naltiriladi.

Kreditlash jaraenida bank garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar kotirovkasi birja kursidagi o'zgarishlar to'g'risida teleks, komp'yuter aloqasi va aloqaning boshqa turlari erdamida axborot to'plab boriladi.

Kreditlash davomida fond birjasida o'tkazilgan savdo natijalariga ko'ra, garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar qiymati pasaygan bo'lsa, u holda kredit qo'mitasining qaroriga muvofiq qarz oluvchiga shu summada qo'shimcha ta'minot berish talabi bildirilishi yoki kredit miqdori qaytarilib kreditning ta'minlanmagan qismi muddatidan oldin undirilib olinishi mumkin.

Lombard krediti bo'yicha barcha majburiyatlari bajarilganidan keyingina garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar va ular bo'yicha olingan daromadlar qarz oluvchiga qaytariladi.

Lombard krediti belgilangan muddatlarda qaytarilmagan hollarda bank imtiyozli oy tugaganidan keyin garov to'g'risidagi amaldagi qonunga muvofiq o'z garov huquqidan foydalanadi.

Lombardli kreditning kredit oluvchi uchun afzallik tomonlari quyidagilar hisoblanadi:

- likvidli mablag'larga kuchli ehtiyoj sezilgan taqdirda vaqtinchalik, qisqa muddatli pullarni yuzaga keltiradi;
- kreditning amal qilish muddati unga bo'lgan zaruriyatiga bog'liq ravishda o'rnatilishi mumkin;
- rentabelli qimmatli mulklar garovga qo'yilganda ularni sotishga zarurat qolmaydi;
- garovga qo'yilgan buyumga mulkchilik huquqi saqlanib qoladi;
- kredit beruvchi tom uchun avzalligi:

Lombard kredit - bu avvalo ishonchli kredit, ya'ni kredit to'lovi kechilib qolgan taqdirda kreditor garovni sotadi va tushgan pulga ega bo'ladi.

Adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

- Bankovskoe delo. Uchebnik. Pod. Rek. Gavrushina O.I. - M.: Finansi i statistika, 1998. - 576 s.
Uzbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari. - T.: 1998, 1999.
Uzbekiston Respublikasining Markaziy banki tuqrisidagi Őonuni. - T.: Sharq, 1997. - 47 b.
Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Őarori. Bank tizimini isloh qilish chora-tadbirlari tuqrisida. T.: 1999 yil 15 yanvar.
Analiz ekonomicheskoy deyatel`nosti klientov banka. Pod. Rek. Lavrushina O.I. - M.: Infra-M, 1995. - 152 s.
Bankovskoe delo. Uchebnik. Pod. Rek. Gavrushina O.I. - M.: Finansi i statistika, 1998. - 576 s.
Bankovskie operatsii I, II, III chast`, pod. red. Gavrushina O.I. - M.: Infra-M, 1995. 301 s.
Banki i bankovskie operatsii pod. Red. Jukova e.F. - M.: YuNITI, 1997. - 387 s.
Bankovskiy portfel` - 3 t. - M.: SOMINTEK, 1995. - 752 s.
Bank nazorati buyicha me`yoriy hujjatlar tuplami. III-qism. URMB. - T. 1999. - 76 b.
Bank nazorati buyicha me`yoriy hujjatlar tuplami. II-qism. URMB. - T. 1999. - 105 b.
Bankovskie operatsii. - M.: Infra-M., 1996. - 207 s.
Bankovskiy portfel` 1,2 kn. Otv. Red. Korobov Yu.I. i dr. - M.: SOMINTEK, 1994. - 746 s.
Bankovskiy nadzor i audit: Ucheb. Posobie pod red I.D.Mamonovoy. - M.: Infra, 1995. - 112 s.
Bankovskoe delo. Uchebnik - 2-e izd. Pod rek. Prof. Kolesnikova V.I. - M.: Finansi i statistika, 1996. - 480 s.
Finansovoe upravlenie kompaniey. Obsh. Red. Kuznetsovoy e.V. - M.: Pravovaya kul`tura, 1996. - 384 s.
Upravlenie finansovimi riskami. Redxed K., X`yus S. - M.: 1996. - 288 s.
Upravlenie investitsionnim proektom. Opit IBM. Per s angl. - M.: 1997. - 225 s.
Upravlenie bankom. - M.: A.O. "MeNATeP-INFORM", 1995. - 208 8s.
Panova G.S. Kreditnaya politika kommercheskogo banka. - M.: 1997. - 462 s.
Osnovnie printsipi bankovskogo nadzora. Bank of England. 1996. - 128 s.
Sadvakasov K. Kommercheskie banki. - M.: Os`-89, 1998. - 157 s.
Sadvakasov K, Sagdiev A. Dolgosrochnie investitsii bankov. - M.: 1998. - 210 s.

Qo`shimcha adabiyotlar:

- Devid Polfremman i dr. Osnovi bankovskogo dela. - M.: Infra-M, 1996. - 986 s.
efimova L.G. Sbornik obraztsov bankovskix dokumentov. - M.: YuNITI, 1995. - 240 s.
Dengi. Kredit. Banki.: Uchebnik pod. red. Lavrushina O.I. - M.: Finansi i statistika, 1998. - 448 s.
Kozlova e.P. i Galanina e.N. Bank i klient - yuridicheskie litsa. - M.: Finansi i statistika, 1998. - 128 s.
Mullajonov F.M. Bank sohasi: maqsadimiz - iqtisodiyotdan uzgarishlarni jadallashtirish. . - T.: "Bozor, pul,kredit", 1999. № 5.
Obshaya teoriya deneg i kredita: Uchebnik (pod. Red. Prof. e.F.Jukova) . - M.: YuNITI, 1995. - 304 s.
Ol`shaniy A.I. Bankovskoe kreditovanie. - M.: RDL, 1997. - 351 s.
Oleynik O.M. Osnovi bankovskogo prava. - M.: Yurist, 1997. - 215 s.
Pul-kredit buyicha me`yoriy hujjatlar tuplami URMB. - T.: 1999. - 143 b.
Polojenie o poryadke organizatsii kratkosrochnogo kreditovaniya xozyaystvuyushix sub`ektov bankami na territorii Respubliki Uzbekistan. - T.: 1999. - 95 s.

Quyidagi tayanch so`zlarni ta`riflang

Qisqa muddatli kreditlar,
o`rta muddatli kreditlar,

uzoq muddatli kreditlar,
kreditlash printsiplari,
kredit maqsadligini,
kredit muddatligini,
kredit qaytarlishi,
lombard kredit,
ishonch kredit,
veksel bo'yicha kredit.

O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar.

Kreditlarni asosiy tamoyillarini keltiring va asoslang.
Kreditning shakllarini izohlang.
Muddati o'tgan kreditlar deganda nimani tushunasiz, u qanday yuzaga keldi.
Kreditning ta'minlanganligini tushuntiring.
Kreditning muddati bo'yicha turlarini asoslang.
Kredit bilan aylanma mablag'lar aylanishi bog'liqligi.
Lombard kredit nima, u nima uchun zarur.
Kredit paketi nima? U qanday tahlil qilinadi.
Tijorat banklarini kredit ifodasini tushuntiring
Kredit portfelini boshqarish yo'llarini keltiring

5-mavzu. Mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash yo'lari

1. Kreditga layoqatlilik tushunchasi
2. Kreditga layoqatlilikning asosiy ko'rsatkichlari
3. Kreditga layoqatlilikning qo'shimcha ko'rsatkichlari
4. Qisqa muddatli kreditning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlashda bank nazoratining roli.

1. Kreditga layoqatlilik tushunchasi

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xo'jalik sub'ektlarining, banklar faoliyatining tijoratlashuvi yuzaga keladi. Keyingi yillarda turli xil mulkchilik shakliga asoslangan korxonalar tashkil topdi. Bu korxonalar qaysi mulk shakliga asoslangan bo'lishiga qaramasdan iqtisodiy jihatdan to'liq mustaqil bo'lib, o'z harajatlarini o'zi qoplaydigan korxonalar hisoblanadi. Bozor sharoitida iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan korxonalarda qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj yuzaga keladi va bu ehtiyoj zarur bo'lganida bank kreditlari hisobidan qoplanishi mumkin. Shu sababli bozor iqtisodi sharoitida kredit mexanizmining o'rni va roli muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit mexanizmi xo'jalik mexanizmining tarkibiy qismi bo'lib, o'z ichiga kreditlash shartlarini, usullarini va kreditni boshqarish tamoyillarini oladi. Kredit mexanizmi yordamida bank tizimining kredit siyosati amalga oshiriladi.

Bank risklarini kamaytirish va uning daromadini oshirishda kreditlash jarayonini to'g'ri tashkil qilish, mijozning kreditga layoqatliligini aniqlash muhim o'rin tutadi. Mijozga berilgan kredit o'z vaqtida qaytib kelishini hohlaydigan bank avvalom bor mijozning kredit zayavkasi va uning kredit tarixini mukammal o'rganib chiqishi lozim. Bu jarayon bank riskining oldini olishning ilk bosqichi hisoblanadi.

Qarz oluvchining kreditga layoqatliligini o'rganish va kredit berilgandan keyin kredit monitoringini muntazam olib borish bank riskini kamaytirish va uning daromadini oshirishning navbatdagi bosqichlaridandir.

Kreditlash jarayonini tashkil qilish kredit zayavkani ko'rib chiqishdan boshlanadi. Biz amaliyotda kredit zayavkalarini ko'rishda nimalarga e'tibor berish zarurligini ta'kidlamoqchimiz.

Har bir mijozga chuqur diqqatlilik bilan munosabatda bo'lish, har bir bank xodimining faoliyat ko'rsatish qoidalarining ajralmas qismi bo'lishi kerak. Odatda o'z mijozlariga diqqat bilan muomala qilmaydigan xodimlari bo'lgan bankning, bizning fikrimizcha, kelajagi bo'lmaydi. Biz amaliyotimizda bank bilan mijoz o'rtasida mavjud kredit munosabatlarga to'xtalmasdan, jahon amaliyotida kredit jarayonining tashkil qilinish asoslariga to'xtalamiz. Jahon amaliyotida kreditlash jarayonini tashkil qilishda bank xodimi mijozlarga kreditlash shartlari haqida ma'lumot beradi va bankning anketa savollariga javob berishni taklif qiladi. Chet el banklarida mijozlar bilan bo'lgan birinchi va undan keyingi uchrashuvlar natijasi hisobotlarda umumlashtiriladi. Bu hisobotlar ma'lum miqdorda savollarning standart yig'imini o'z ichiga oladi. Bunday hisobotga mijozning bankga har tashrifidan so'ng o'zgartirish kiritiladi va yangi ma'lumot bilan to'ldiriladi. Bu hisobotlar kredit inspektoriga kelgusi mijoz to'g'risida uchrashuvlari oldidan kerakli ma'lumotlarni beradi. Kelgusi mijoz kredit inspektori bilan bo'ladigan uchrashuvga olinadigan ssuda, uning ishlatilish maqsadi, summasi, qaytarilish muddati va taqdim qilingan ta'minlovini o'z ichiga olgan kredit zayavkasi bilan keladi.

Ko'pgina davlatlarda nufuzli banklar kredit zayavkasi bilan birga bir necha xujjatlarni ko'rib chiqadi, bularga:

- 1) qarz oluvchi kompaniya (korxon) ta'sis xujjatlarining notarial tasdiqlangan nusxasi;
- 2) moliyaviy hisobot, korxon balans va oxirgi uch yil uchun foyda va zarar hisobotini o'z ichiga oladi. Balans yil oxirigacha tuzilib, unda aktivlar, majburiyatlar va kapital tuzilmasi ko'rsatiladi. Foyda va zarar schyoti bir yillik vaqtini o'z ichiga oladi va kompaniya daromadi va harajatlari, sof daromadi, uning rezervga taqsimlanishi va chegirmalar, dividend to'lovlari va h.k.lar to'g'risida batafsil ma'lumot beriladi.
- 3) Kassa tushumlari va harakati to'g'risida hisobot. U ikki hisobot muddatida tuzilgan balanslarning solishtirilishiga asoslangandir va u har xil bo'limlar va fondlar harakatida bo'ladigan o'zgarishlarni ko'rishga yordam beradi. Hisobot resurslari defitsitini, ishlatilishini, foizlar uchun mablag'lar bo'sh vaqti va kassa tushumlarining defitsitini yuzaga kelishi va h.k.ning umumiy holatini ko'rishga yordam beradi.
- 4) Ichki moliya hisoboti. Bu hisobot kompaniya moliyaviy holati, 1 yil, kvartal yoki oy davomida resurslarga bo'lgan ehtiyojining o'zgarishlarini aks ettiradi.
- 5) Ichki operativ hisob bo'yicha ma'lumotlar. Balans tuzish uchun ko'p vaqtini talab qiladi. Lekin kreditor bankga qarz oluvchi kompaniya to'g'risida ba'zi bir operativ hisobot ma'lumotlari kerak bo'lib qolishi mumkin.
- 6) Moliyalashtirishning prognozi. Bu hisobot kelgusi sotuvni baxolash, harajat, tovarni ishlab chikarish bilan bog'liq harajatlar, debitor qarzdorlik, zaxiralar qaytarilishi, naqd pulga ehtiyoj, kapital qo'yilma va h.k.larni o'z ichiga oladi.
- 7) Soliq deklaratsiyasi eng kerakli qo'shimcha axborot sifatida. Unda qarz oluvchi soliq to'lovchi sifatida boshqa hujjatlarga kirgizilmagan axborotlar bo'lishi mumkin.
- 8) Biznes-plan. Ko'pgina kredit zayavkalari xali moliya hisoboti va boshqa hujjatlarga ega bo'lmagan ishni endi boshlayotgan korxonalarni moliyalashtirish bilan bog'liq. Bunday paytda qarz oluvchi kompaniya bankga kreditlanadigan loyixa maqsadi va uni amalga oshirish usullari xaqida ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi batafsil biznes-planni taqdim etishi kerak.

Kredit inspektori kredit zayavkasi va unga kiritilgan hujjatlarni yaxshilab o'rganib chiqadi. Bundan so'ng u kelgusi qarz oluvchi bilan yana bir bor suhbatlashadi. Suhbat davomida kredit inspektori qarz oluvchi kompaniya (bank) ishlarini har tomonlama o'rganishi shart emas, u kreditor-bankni qiziqtiradigan savollarga kerakli darajada axamiyat berishi kerak.

Ko'zga ko'ringan chet el banklarining amaliyoti shuni ko'rsatadiki, kelgusi mijoz bilan suhbat aniq bir tartibda berilgan quyidagi savollarga bog'liq bo'lishi mumkin.

Bank kreditlashning birinchi bosqichida quyidagilarni aniqlashi kerak:

A. Qarz oluvchining ishonchligi va kreditga layoqatliligi, uning partnyor sifatidagi faoliyati doimiyli va samarasi.

B. Kredit zayavkasining asoslanganligi va kredit qaytarilishining ta'minlanganlik darajasi. Bank kerak bo'lsa kredit taklifi bo'yicha o'z talablarini ishlab chiqishi va mijozni u bilan tanishtirishi mumkin.

V. Kredit taklifining bank kredit siyosati va ssuda portfeli tuzilmasiga to'g'ri kelishi. Yangi kredit berish va kredit portfeli diversifikatsiyasi kredit riskining pasayishiga olib keladimi yoki yo'qmi?

Bankning kredit berish bilan shug'ullanuvchi xodimlari yaxshi bilmaydigan iqtisod tarmoqlaridagi korxonalariga ssuda bermasligi kerak. Lekin bunday hollarda kredit taklifini baxolash uchun nufuzli ekspertlarni jalb qilishlari mumkin. Ammo bu bankning qo'shimcha harajatiga olib kelsa-da, kreditlash bilan bog'lik risklarning oldini olishi mumkin.

Har qanday zayavka va qo'shimcha hujjatlar hamda suhbat natijalarini aniqlashning hal qiluvchi omili bo'lib qarz xarakteri va kreditga layoqatliligini aniqlash hisoblanadi. Kredit inspektori qarz oluvchiga zayavkani tayyorlash davomida mijozning kreditni qoplashga loyiq qimmatli aktivlarini va daromad miqdorini biladi. Mijozning og'zaki javoblari yozma bergan ma'lumotlariga qaraganda ko'prok ma'lumot beradi. Shu bilan bir vaqtda inspektor mijoz xamkorlik qilgan banklarga murojaat qiladi.

Kredit inspektori qarz oluvchi daromadining fakatgina miqdoriga emas, balki stabilligiga ham e'tibor berish kerak. Ular mijozdan sof daromad xaqida ma'lumot olishni istaydilar (ya'ni daromaddan hamma to'lovlar to'langandan so'ng).

Daromadning miqdori va doimiyli turg'enliginiyu bilvosita ko'rsatichi bo'lib, mijozlarning depozit hisoblaridagi o'rtacha bir kunlik qoldiq to'g'risidagi ma'lumotlar xizmat qiladi. Qarz oluvchi tomonidan berilgan bu ma'lumotlar inspektor tomonidan tegishli bank tomonidan berilgan ma'lumotlar bilan taqqoslanadi.

Bank depozit hisoblaridagi salmoqli qoldiqlarni bo'lishi mijoz moliyaviy ahvolidan ishonchligidan, uning moliyaviy intizomligidan va olingan kreditlarni qaytarish borasidagi intilishlari jiddiyligidan dalolat beradi.

Tajribali kredit inspektori ahamiyat beradigan omillardan yana biri mijozning bir joyda uzoq va doimiy faoliyat ko'rsatishi, yashashi hamda mashg'ul bo'lishidir. Ko'pgina banklar odatda ko'rsatilgan joyda bir necha oygina ishlayotgan shaxslar va yaqinda ro'yxatdan o'tgan firmalarga rad javobini beradilar.

Odatda mijozning bir manzilda yashash davri ko'rib chiqiladi, chunki u bir joyda qancha ko'p tursa, uning ahvoli shunchalik muhim deb hisoblanadi. Turar joyining nomuhimligi yoki manzilining tez-tez o'zgarishi kredit berish masalasini hal qilishda noxush holat deb qaralishi lozim.

Kredit inspektorlari "qarzlarning piramidasini" deb ataluvchi holatning paydo bo'lishini qo'llab-quvvatlamaydilar. "Piramida" holati bu qarzdor 1 ta bank yoki firmadan olgan qarzini to'lash uchun boshqa kreditordan qarz olishi tushuniladi. Mijozning kredit kartochkalari bo'yicha qarzining kattaligi, ko'pligi o'zining hisobidan yozib berilgan cheklarning tez tez qaytib kelishi inspektor nazaridan chetda qolmasligi kerak. Bunday dalillar asosida mijozning haqiqiy moliyaviy ahvoli va uning pul mablag'larini boshqarish qobiliyati haqida xulosa qilinadi.

Agar mijoz bilan ishlarni davom ettirish hal qilinsa, unda inspektor kredit dos'esini yig'adi va uni kredit bo'limiga yuboradi. Bu bo'limda mijozning kreditga layoqatliligi chuqur o'rganiladi va kredit riskiga baxo beriladi.

Kredit mexanizmining muhim elementlaridan biri - kreditga layoqatlilikdir. Korxonalarining kreditga layoqatliligini hisobga olgan holda kredit berish, kreditni o'z vaqtida qaytarishning muhim shartidir. Davlat mulkchiligiga asoslangan jamiyatda kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi kredit mexanizmi muhim o'rinni egallay olmaydi. Banklar faoliyatiga davlat yakka xukmronligi ularning mustaqil sub'ekt sifatida faoliyat ko'rsatishiga tusqinlik qiladi va kredit resurslari markazlashgan tarzda, reja asosida tasdiqlanadi. Eng xususiyatli tomoni shundaki, banklar beradigan kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini mustaqil belgilay olmaydilar.

Bozor iqtisodi sharoitida esa, kreditga layoqatlilik ko'rsatgichi kredit berishda e'tibor qilinadigan asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib qoladi. Chunki tijorat banki o'z faoliyati natijasi uchun to'liq javobgar hisoblanadi. Kredit uchun foiz esa uning asosiy daromad manbai bo'lib qoladi.

Korxonaning kreditga layoqatliligini o'rganish tijorat bankiga kredit berish mumkinligini aniqlashga, uning miqdorini, foiz stavkasining darajasini belgilashga imkon beradi. Bundan tashqari, kreditga layoqatliligini aniqlash ssudani o'z vaqtida qaytarish ehtimolini, eng asosiysi bank riskini kamaytirishga imkon beradi.

Kreditga layoqatlilikni baholash korxonaning o'ziga ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu ko'rsatkichlarning tahliliga asoslanib, ular mol etkazib beruvchilar haridorlar va boshqa banklar bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatishlari mumkin.

Ijobiy kreditga layoqatlilik ko'rsatkichga ega bo'lgan korxonalar hech qanday tusiqlarsiz kredit olishlari va uning hisobidan tovar moddiy boyliklarni sotib olishi, salmoqli mablag'larni ishlab chiqarishni rivojlantirishga, oldindan olingan kreditlar bo'yicha qarzlarni to'lashga yunaltilishlari mumkin. Salbiy kreditga layoqatlilik ko'rsatkichga ega bo'lgan korxonalar bankdan kredit ololmasada, o'z moliyaviy ahvolini yaxshilash, ishlab chiqarish, sotuv hajmini, o'z mablag'lari miqdorini, rentabellik ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha choralar ishlab chiqish lozimligi to'g'risidagi axborotga ega bo'ladilar.

Korxonalar va banklar uchun kreditga layoqatlilik ko'rsatkichining ahamiyati muhimligini hisobga olib biz kreditga layoqatlilik ko'rsatkichining iqtisodiy mohiyati to'g'risida fikr yuritmoqchimiz.

Iqtisodiy adabiyotlarda bu ko'rsatkichning mohiyati to'g'risida turli ta'riflarni uchratish mumkin. Ko'pgina mualliflar tomonidan kreditga layoqatlilikka, korxonalarining qarz majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajara olish imkoniyati sifatida ta'rif beriladi. Bizning fikrimizcha, bu ta'rif ko'proq korxonaning to'lovga layoqatliligiga berilgan ta'rifdir. Amaliyotda kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi ko'prok bankdan qarz oluvchi korxonalar faoliyatini ifoda qiladi. Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini ikki tomonlama ko'rib chiqish mumkin:

- qarz oluvchi nuqtai nazaridan kreditga layoqatlilik;
- kredit shartnomasini tuzish imkoniyati, olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytara olish qobiliyatini ifodalasa;
- bank nuqtai nazaridan - korxonaga beriladigan kreditning hajmini to'g'ri aniqlay olish mas'uliyatini bildiradi.

Ba'zi iqtisodchilar qarz oluvchining kreditga layoqatlilik ko'rsatkichini baholashda? birinchi o'ringa korxonaning daromad olish imkoniyatini qo'yishadi. Bizning fikrimizcha daromad olish - korxonaning ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyat turining natijasi hisoblanib, shu natijaga erishish maqsadida korxonalar kreditga muxtojlik sezadi.

Agar qarzlarni to'lash miqyosida qaraydigan bo'lsak, kreditga layoqatlilikka nisbatan to'lovga layoqatlilik tushunchasi kengroqdir. Chunki to'lovga layoqatlilik jismoniy va huquqiy shaxslarning barcha qarz va majburiyatlarini o'z vaqtida to'lay olish imkoniyatini ifodalaydi. Kreditga layoqatlilik to'lovga layoqatlilikdan farq qilib, ssuda bo'yicha qarzlarni o'z vaqtida to'lash imkoniyatini ko'rsatadi. Undan tashqari kreditga layoqatlilik to'lovga layoqatlilikdan to'lash manbalari bilan ham farq qiladi.

Korxonalar, tashkilotlar o'z qarz, majburiyatlarini sotishdan tushgan tushum yoki boshqa har xil tushumlar hisobidan amalga oshirsa, kredit bo'yicha qarzlarni to'lash birinchi navbatda mahsulotni sotish hisobidan tushgan tushumdan amalga oshirilishi belgilanadi. Bank kreditini to'lash bo'yicha muammolar yuzaga kelganda, ssudani to'lashning kafolatlik manbalari qo'l kelishi mumkin. Bular:

- ssuda bo'yicha garov sifatida olingan mulk;
- boshqa bank yoki korxonalarining kafolati;
- sug'urtalash hisobidan qoplash va boshqalar.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, to'g'ri kredit bergan bank, korxonaga to'lovga layoqatli bo'lmagan holda ham bergan kreditni, to'liq yoki qisman qaytib olishni mo'ljallashi mumkin.

O'zining barcha ahamiyatiga qaramasdan bu ko'rsatkichlar ayrim ma'noda chegaralangan ahamiyatga ega. Birinchidan, ko'pgina ko'rsatkichlar shu jumladan moliyaviy ahvolni, kapitalning borligi va boshqalarni harakterlovchi ko'rsatkichlar asosan o'tmish bilan bog'liq bo'lib, ular o'tgan davr ko'rsatkichlari asosida hisoblanadi, kelajakdagi kreditga layoqatlilikni rejalashtirish esa kelajakda ssudalarni qaytarilish imkoniyatlariga baho beradi. Ikkinchidan odatda bunday ko'rsatkichlar hisobot muddatiga qolgan qoldiq asosida hisoblanadi, vaxolanki ma'lum davrdagi oborotlar haqidagi ma'lumotlar ssudalarni qaytarish imkoniyatlarini to'laroq tasvirlaydi.

Kreditga layoqatlilikni tahlil qilishda ma'lumotlarning har xil manbalaridan foydalaniladi:

- a) bevosita mijozlardan olingan materiallar;
- b) mijoz xaqidagi bank arxivida mavjud bo'lgan materiallar;
- v) mijoz bilan ish yuzasidan aloqada bo'lgan shaxslar (uning mol etkazib beruvchilari, kreditorlari, uning mijozlari, banklari va boshqalar) tomonidan berilgan ma'lumotlar;
- g) shaxsiy va davlat agentliklari va tashkilotlarining hisobotlari va materiallari (kreditga layoqatlilik haqidagi hisobotlari, investitsiya bo'yicha ma'lumotnomalar va boshqalar).

Bunday tashkilotlar hozirchalik bizning amaliyotimizda yo'q. Biz oldingi boblarda shunday agentlik zarurligi to'g'risida gapirib o'tgan edik.

Bank tomonidan o'rganib chiqilgan materiallarni va mijoz tomonidan berilgan bevosita ma'lumotlarni olgan kredit bo'limining ekspertlari o'z bank arxiviga murojaat qiladi. Agar mijoz oldin ham kredit olgan bo'lsa arxivda uning qarzini kechiktirib to'langanligi va boshqa kamchiliklari haqidagi ma'lumot bo'ladi. Undan tashqari bank boshqa kredit tashkilotlari bilan aloqa o'rnatib, ushbu qarzdor to'g'risida ma'lumot olishi mumkin.

Kredit zayavkasini baholashda kredit bo'limi xodimlari konkret qarz oluvchi bilan bog'liq savollarni ko'rib chiqibgina qolmay, u faoliyat ko'rsatayotgan mintaqaga, tarmoqlarda yuzaga kelgan iqtisodiy ahvolni ham hisobga olishlari lozim.

Kredit berish bo'yicha sifat analizi ham bosqichlarda amalga oshiriladi:

- a) qarz oluvchi reputatsiyasini o'rganib chikish;
- b) kredit maqsadini aniqlash;
- v) asosiy qarz va foizlarning qaysi manbalar hisobidan qoplanishini aniqlash;
- g) bank qisman o'z bo'yniga oladigan qarz oluvchining risklarini baholash.

Qarz oluvchining reputatsiyasi sinchkovlik bilan tekshiriladi, bunda mijozning kredit tarixini o'rganib chiqish juda muhimdir. Korxonaga rahbarining shaxsiy va ish bilan bog'liq bo'lgan xislatlari ham katta e'tiborga ega.

Qarz oluvchining kreditga layoqatlilikini aniqlash ssuda berish imkoniyatini aniqlashda bank vazifalarining ajralmas bir qismidir.

Bank amaliyotida mijozning kreditga layoqatlilikini tekshirishning to'g'ri va egri usullari mavjuddir.

Tug'ri usullardan kam foydalaniladi. Bunda mijoz tomonidan to'plangan ballar, u olishga haqli bo'lgan ssuda summasiga tenglashtiriladi.

Egri usullar esa juda keng tarqalgan. Uning mazmuni turlicha baholash ko'rsatkichlariga ma'lum ballar berishdan iboratdir. Buning natijasi bo'lib mijozning kreditga layoqatlilikini sinfini aniqlash xizmat qiladi. o'z - o'zidan ayon bo'lib turibdiki, mijozning kreditga layoqatlilikini baholashda ballar sistemasidan foydalanish - eng ob'ektiv va iqtisodiy asoslangan qarorlarni kabo'l qilish jarayonidir. Yagona muammo shundan iboratki, bunda mijozning kreditga layoqatlilikini baholash bo'yicha axborotlarning yangilanishi talab qilinadi, bu esa o'z navbatida bank uchun juda qimmatga tushishi mumkin. Shuning uchun uncha katta bo'lmagan banklar odatda axborot bazasining cheklanganligi va ko'p harajatliligi tufayli mijozning kreditga layoqatlilikini tahlil qilishda "koeffitsientlari" usulidan foydalaniladi. Xuddi shunday

“koeffitsientlar” usuli Uzbekiston Respublikasida xo`jalik sub`ektlarini kreditlashda ham qo`llaniladi.

O`zbekiston Respublikasida xo`jalik sub`ektlarining kreditga layoqatliligini hisoblash quyidagi koeffitsientlar orqali baholanadi:

likvidlilik koeffitsienti;

qoplash koeffitsienti;

muxtorlik koeffitsienti va qo`shimcha ko`rsatkichlardan aylanma mablag`lar holati va aylanish koeffitsientlari aniqlanadi.

“Qarz oluvchining likvidlili” deganida uning o`z vaqtida pul majburiyatlarini bajara olish qobiliyati tushuniladi. Likvidlik va qoplash koeffitsientlari qarzlarni to`lash uchun o`z mulkini pulga aylantirish imkoniyati xaqida dalolat beradi. Ikkala koeffitsient ham balansning aktiv va passivlarini solishtirish yuli bilan hisoblanadi. Likvid mablag`lar o`zining tez pulga aylanishi darajasiga qarab 3 guruxga bo`linadi.

Birinchi guruh likvid mablag`larga:

- pul mablag`lari (balansning 170-qatori), jumladan hisob-kitob schyoti; valyuta schyotidagi (180 - q), boshqa schyotlardagi va kassadagi pul mablag`lari (190 - q) kiradi;

Ikkinchi guruh likvid mablag`lariga tez pulga aylanadigan talablar:

- muddati 3 oygacha bo`lgan avans to`lovlar (230 - q);

- byudjet bilan hisob-kitoblar (240 - q);

- ishonchli debitorlar va ko`rsatilgan xizmatlar bo`yicha hisob-kitoblar (200-220 - q);

- korxonalar bilan qisqa muddatli xarakterga ega bo`lgan boshqa operatsiyalar (260-270 - q) bo`yicha xizmatchilar bilan hisoblashishlar (250- q);

- ta`sischilar hamda boshqa debitorlar bilan hisob-kitoblar (280-290 - q).

Uchinchi guruh likvid mablag`lariga tez sotiladigan tovar moddiy qimmatliklarining zaxiralari bo`yicha talablari kiradi:

- ishlab - chiqarish zaxiralari va kelgusi davr harajatlari (120 - q);

- tugallanmagan ishlab-chiqarish (130 - q);

- tayyor maxsulot (140 - q);

- tovarlar (150 - q);

- boshqa zaxiralar va harajatlar kiradi.

Qisqa muddatli majburiyatlarni aniqlashda:

a) o`zgartirishlar kiritmasdan quyidagi ko`rsatkichlar olinadi:

- qisqa muddatli qarzlilar (420 - q);

- qisqa muddatli kreditlar (430- q);

- buyurtmachilardan tushgan avanslar (440 - q);

Kreditorlar:

- mol etkazib beruvchilar oldidagi qarzlilar (450 - q);

- byudjetga qarzlilar (460 - q);

- ish haqi bo`yicha qarzlilar (470 - q);

- ijtimoiy sug`urta va ta`minot bo`yicha qarz (480 - q);

- mulk va shaxsiy sug`urtalash bo`yicha qarz (490 - q);

- byudjetdan tashqari to`lovlar bo`yicha qarz (500 - q);

- sho`ba korxonalar bo`yicha qarzlilar (510 - q);

- uyushma korxonalar bo`yicha qarzlilar (520 - q);

- boshqa kreditorlar (530 - q);

b) o`zgartirishlar kiritilib quyidagi ko`rsatkichlar olinadi (yaqin uch oy muddatga):

- uzoq muddatli qarzlilar (400 - q);

- uzoq muddatli kreditlar (410 - q);

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda pul mablag`lari =170+180+190 balans qatorlari.

Tez sotiladigan talablar =200+220+230+240+250+260+ 270+ +280+290 balans qatorlari.

Tez sotiladigan zaxiralar =120+140+150 balans qatorlari.

Qisqa muddatli majburiyatlar = 420+430+440+450+460+470+

480+490+500+510+530+(400+410 o'zgartirishlar bilan) balans qatorlari.

Agar mijozning likvid aktivlari uning qisqa muddatli majburiyatlaridan ikki barobar va undan ortiq, bo'lsa, mijoz moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi.

Mijoz balansi va boshqa moliyaviy xujjatlarga asosan kreditga loyohatlilik ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Likvidlik koeffitsienti (Kl) quyidagicha hisoblanadi:

1 va 2 guruh likvid mablag'lar

$$Kl = \frac{\text{qisqa muddatli qarz majburiyatlari}}{\text{Qoplash koeffitsienti (Qp)ni hisoblashda barcha likvid mablag'larning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati olinadi.}}$$

qisqa muddatli qarz majburiyatlari

Qoplash koeffitsienti (Qp)ni hisoblashda barcha likvid mablag'larning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati olinadi.

1,2 va 3-guruh likvid mablag'lari

$$Qp = \frac{\text{qisqa muddatli qarz majburiyatlari}}{\text{qisqa muddatli qarz majburiyatlari}}$$

qisqa muddatli qarz majburiyatlari

Likvidlilik koeffitsienti qarz oluvchi o'z mablag'lari hisobidan qarzning qancha qismini to'lay olish qobiliyatini ko'rsatadi, ya'ni bu koeffitsientdan mijozning yaqin kelajakda operativ ravishda bankga qarz to'lab berish qobiliyatini prognozlash uchun foydalaniladi. Likvidlilik koeffitsienti qancha yuqori bo'lsa, kreditga layoqatlilik shuncha yuqori bo'ladi.

Qoplash koeffitsienti mijozning qisqa muddatli majburiyatlarini to'lash uchun barcha turdagi aylanma mablag'larning etarli darajasini aniqlashga imkon beradi.

Aylanma mablag'larning aylanishi koeffitsienti (Kob) joriy aktivlarning aylanish tezligi va aktivlarga qo'yilgan mablag'larning pul mablag'lariga aylanish tezligini harakterlab, u ma'lum davr ichida aylanma mablag'lari necha marta aylanganligini ifodalaydi :

Realizatsiya qilingan mahsulot xajmi

$$Kob = \frac{\text{aylanma mablag'larning o'rtacha xronologik qoldig'i}}{\text{aylanma mablag'larning o'rtacha xronologik qoldig'i}}$$

aylanma mablag'larning o'rtacha xronologik qoldig'i

Kob ni hisoblash aylanishni prognozlash va kreditlash muddatini aniqlashga imkon yaratadi. Aylanma mablag'larning aylanishi koeffitsienti aylanma mablag'larning harakati tezligini ifodalaydi va tahlil qilinayotgan davrda mahsulotning realizatsiyasidan tushumlarning cheklanishi hamda aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati hisoblab borishga imkon yaratadi.

Shuningdek, aylanma mablag'larning kunlarda aylanishini ham hisoblash mumkin. Bu ko'rsatkich korxonada aylanma mablag'larining bir marta aylanishi (P-T-i\ch-T-P) uchun necha kun ketishini ko'rsatadi.

O kunlarda Aylanma mablag'larining o'rtacha qoldig'i x 360 kun

$$\text{aylanishi} = \frac{\text{aylanma mablag'larining o'rtacha qoldig'i} \times 360 \text{ kun}}{\text{realizatsiya xajmi}};$$

realizatsiya xajmi

Aylanma mablag'lar aylanishiga qancha kam kun ketsa, korxonaning foyda olishi, binobarin kreditni bankka to'lashi shuncha tez amalga oshiriladi.

Moliyaviy mustaqillik yoki muxtorlik koeffitsienti (Kfn) mijozning o'z mablag'larini moliyalashtirish manbalari ichida tutgan salmog'ini, ya'ni korxonada faoliyatining qancha qismi o'z kapitali hisobidan moliyalashtirilishini ko'rsatadi va quyidagi formula orqali aniqlanadi

O'z mablag'larini manbalari

$$Kfn = \frac{\text{O'z mablag'larini manbalari}}{\text{balans summasi} \times 100 \text{ foiz}}$$

balans summasi x 100 foiz

Bank uchun Kob va Kan ko'rsatkichlari kredit shartnomasi tuzilayotganda risk darajasini aniqlash nuqtai nazaridan muhimdir. O'z mablag'lari manbalari va uning hajmi qanchalik katta bo'lsa, mijozning o'z vaqtida qarz majburiyatlarini to'lash qobiliyati shuncha yuqori bo'ladi. Korxonani kreditlash uchun uning o'z mablag'lari manbalari bilan ta'minlanganligi 30 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

O'z aylanma mablag'larining mavjudligi ko'rsatkichi (NSOS):

NSOS = O'z mablag'lari manbalari - Uzoq muddatli aktivlar
(110-330 balans qatorlari)

qoplanmagan zararlar

Agar korxonaning asosiy vositalari va oborotdan tashqari aktivlari o'z mablag'lari manbalaridan yuqori bo'lsa, u holda korxonalar bank kreditlaridan foydalanish huquqidan mahrumdirlar. Korxonalarga kredit berishda uning kreditga layoqatlilikini baholashda quyidagi jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar hisob-kitob qilinishi lozim.

4-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Davrlar			
		1 kv	1/2 yil	9 oy	yil
1.	Qoplash koeffitsienti				
2.	Likvidlilik koeffitsienti				
3.	Muxtorlik koeffitsienti				
4.	O'z aylanma mablag'lari mavjudligi dinamikasi				
5.	Foydalilik				
6.	To'lanmagan qarzlار a) bank ssudalari bo'yicha b) hisob kitoblar bo'yicha				
7.	Aylana mablag'lar aylanishi a)aylanish koeffitsienti b)kunlarda aylanishi				

Yuqoridagi ko'rsatkichlarning natijasi me'yoriy talablar bilan taqqoslanadi va korxonaning moliyaviy ahvoli aniqlanib, kredit berish mezonlari belgilanadi. Kredit berish bo'yicha sinflarga ajratishda quyidagi talablar hisobga olinadi.

5-jadval

Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlariga qarab mijozlarni sinflarga ajratish bo'yicha talablar

№	Ko'rsatkichlar	I sinf	II sinf	III sinf
1.	Qoplash koeffitsienti (Kq)	$Kq \geq 2,0$	$2,0 > Kq \geq 1,0$	$1,0 > Kq$
2.	Likvidlilik koeffitsienti (Kl)	$Kl \geq 1,5$	$1,5 > Kl \geq 1,0$	$1,0 > Kl$
3.	Muxtorlik koeffitsienti (Km)	$Km \geq 60\%$	$60\% > Km \geq 30\%$	$30\% > Km$

Yuqoridagi ko`rsatkichlar bo`yicha birinchi sinfga kiruvchi mijozlar umumiy talablar asosida kreditlanishi mumkin. Mumkin bo`lganda ularga ishonch kreditlari (ta`minlanganlik talab qilmasdan) yoki boshqa engilliklar berilishi mumkin.

Agar mijoz 2-sinfga taalluqli bo`lsa va uning qo`shimcha ko`rsatkichlari ijobiy bo`lsa, unga umumiy asosda kredit berilishi, ba`zi engilliklar qo`llanilishi mumkin. Agar qo`shimcha ko`rsatkichlar bo`yicha kamchiliklar bo`lsa, uning moliyaviy ahvoli nobarqaror deb topilishi va uni yaxshilash uchun choralar ko`rishni talab qilish, kredit bo`yicha garovni mustahkamlash, foiz stavkalarini oshirish, ssudaning summasini va muddatini cheklash choralari ko`rish mumkin. III sinfga kiruvchi mijozlar aniq garov va yuqori foiz stavka asosida kredit oladi (mijozning kreditga layoqatliligini aniqlashga doir hisob-kitoblar 1-ildoda keltirilgan).

4. Qisqa muddatli kreditni o`z vaqtida qaytarilishini ta`minlashda bank nazoratining roli.

Tijorat banki o`zi xizmat ko`rsatayotgan mijozlar faoliyati to`g`risida doimiy axborotga ega bo`lishi, uning kredit qobiliyatini, to`lov intizomi ahvolini tahlil qilib borishi, ya`ni “ma`lumotlar banki”ni barpo etishi lozim. Kreditlash jarayonida kredit shartnomasi shartlarini bajarishga qarz oluvchi olingan kreditdan samarali foydalanishga, uni o`z vaqtida va to`liq qaytarishiga, kreditdan foydalaniladigan butun davr mobaynida qarz oluvchi bilan yaqin aloqa saqlab turishga qaratilishi lozim. Shu maqsadda mijozning xo`jalik moliyaviy holati, uning tuzilgan shartnomalarga muvofiq mahsulot etkazib berish borasidagi o`z majburiyatlarini, ishlab chiqarish xajmlarini qanday bajarayotgani, yo`l qo`yayotgan behuda xarajatlar va yo`qotishlar, muomala chiqimlari, olayotgan foydasi, o`z aylanma mablag`lari ko`payishi dinamikasi, tovar-moddiy boyliklar zaxiralari hamda aylanma mablag`lari aylanishini ahvoli tahlil qilib turiladi.

Bank har chorakda mijozning kredit qobiliyatini hisoblab chiqib qarz oluvchi bo`yicha tutilga maxsus yig`ma -jildda bu ma`lumotlarni to`plab boradi.

Joyning o`zida buxgalteriya hisobi va hisobot ishlarining ahvoli, balans ma`lumotlarining to`g`riligi va debitorlik-kreditorlik qarzlarning holati, shuningdek, bankka berilgan garov holati tekshirib turiladi. Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashgan, u bank nazoratidan bo`yin tovlagan, hisobot ma`lumotlari noto`g`ri olib borsak, buxgalteriya hisobi o`z holiga tashlab qo`yilgani aniqlangan hollarda “Banklar va bank faoliyati to`g`risida”gi qonunga muvofiq, bank bundan buyon kredit berishni to`xtatishga, hamda ilgari berilgan kreditlarni ta`minot sifatida qabul qilingan va kredit shartnomasi shartlarida ko`zda tutilgan majburiyatlar orqali qarz oluvchining o`z mablag`lari hisobidan muddatidan oldin undirib olishga haqli.

Garov to`g`risidagi shartnoma bo`yicha, bank garovga qo`yilgan mulkni mustaqil ravishda sotishi mumkin. Garov predmeti auksion orqali sotiladi. Ayni paytda qarz oluvchi bankka garovga qo`yilgan mulk oldindan ma`lum past narxlarda sotilishi uchun javobgarlik to`g`risida talab qo`yishga haqli. Agar auksion bo`lib o`tmagani e`lon qilinsa, bank garovga qo`yilgan mulkni dastlabki narxda o`z ixtiyorida qoldirishga haqli. Bunda bank qonunga muvofiq uning talablari oldida ustunlikka ega bo`ladigan davolarni qoldirishga majbur.

Bunday hollarda bank majburiyati shu mulkning auksion uchun dastlab belgilangan narxi summasidan oshmasligi zarur.

Garov predmetini sotishdan oldin summa kreditini qoplash uchun etarli bo`lmagan hollarda, bank, agar shartnomada boshqa shart ko`zda tutilmagan bo`lsa, etishmayotgan summani qarzdorning boshqa mulki hisobidan qonunda ko`zda tutilgan navbatdagi tartibda olish huquqiga ega.

Garov predmetini sotishdan tushgan summa qaytarilmagan kredit xajmidan ortiq bo`lsa, bank o`rtadagi bu tafov bir oy ichida qarz oluvchiga to`lashi shart.

Agar qarz oluvchi to`lov muddati kelgandan so`ng 90 kun ichida kredit shartnomasiga muvofiq qarzni to`lash bo`yicha majburiyatlarni bajarmasa bank “Bankrotlik to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq, to`lovga layoqatsizlik to`g`risida ish qo`zg`ash uchun xo`jalik sudiga murojaat qilish kerak.

Tijorat banklari amaldagi nizomga muvofiq kredit portfeli sifatini muntazam ravishda tahlil qilib borishlari, har bir kredit bilan bog`liq xatar darajasini tasniflashlari hamda uni quyidagi 5 ta tasnif razryadidan biriga kiritishlari lozim:

- a) yaxshi
- b) qoniqarli
- v) substakdart
- g) shubhali
- d) umidsiz

Tijorat banki qarz bo`yicha ehtimol tutilgan yo`qotishlar uchun rezerv barpo etishi shart. Bu rezervga mablag`lar amaldagi tartibga muvofiq kiritiladi. Qarzlilar bo`yicha ehtimol tutilgan yo`qotishlar uchun rezerv xo`jalik organlarga berilgan kreditlar tahlili hamda bank xatar darajasiga ta`sir ko`rsatuvchi omillarni belgilash asosida tashkil qilinadi. Rezerv hajmi amaldagi qarzdorlik yoki xatar guruhiga bog`liq bo`ladi. Tijorat banklari rezerv xajmini hisobot o`yning har birinchi kuni uchun amaldagi tartibga asosan hisoblab chiqadilar. Berilgan qarzlilar kiritilgan "xatlar guruhi" yomonlashgan taqdirda qarzlilar bo`yicha ehtimol tutilgan yo`qotishlar uchun rezervga ajratmalar har oyda o`tkazib boriladi. Bank oldidagi o`z majburiyatlarini bajarmagan qarz oluvchiga nisbatan bank kredit shartnomasi shartlariga ko`ra quyidagi huquqlarga ega:

- agar u kelishilgan muddatlarda bank tavsiyalarini bajarmasa, kreditlash to`xtalib qiyilishi to`g`risida ogohlantirilgan da`vo xati yuborish;

- kreditdan foydalanganlik uchun foizlar o`z vaqtida to`lanmagan, shuningdek kredit shartnomada belgilangan muddatda qaytarilishi ehtimoldan uzoq bo`lgan holarda, qarz oluvchiga bankrotlik to`g`risidagi qonunda ko`zda tutilgan jazo choralari qo`llanishi haqida ogohlantirish berilgan da`vo xati yuborilib, kredit bo`yicha qarz qoldig`ini muddatdan oldin undirib olish;

- qarz oluvchi hisob yuritish va buxgalteriya hisobi qoidalarini buzganligi aniqlansa, kreditlashni to`xtatish va bu haqda soliq inspeksiyasiga xabar berish, shuningdek, undan hisob va hisobot qoidalarini buzilish sabablari to`g`risida izoh berilishi, ularni tugatish yuzasidan qanday choralar ko`rilayotgani bildirilishini talab qilish.

Kreditni o`z vaqtida qaytarish borasidagi majburiyatlarni bajarayotgan qarz oluvchi o`zining to`lovga layoqatsizligi to`g`risida matbuotda e`lon berishi, bank esa bu haqda soliq inspeksiyasiga xabardor qilishi kerak. Buni xo`jalik sudiga murojat qilib, bundan qarz oluvchi bankrot deb tanilishini so`rashga haqlidir.

Qarz oluvchi to`lovga layoqatsiz yoki bankrot deb e`lon qilinganda unga yangi qarzlilar berish to`xtaliladi, ilgari berilgan kreditlart esa muddatidan oldin undirib olinadi. To`lovlar navbati "Bankrotlik to`g`risida"gi qonunga muvofiq belgilanadi. Qarz oluvchi bankrot deb e`lon qilingan vaqtdan boshlab uni quyidagilar bilan bog`liq operatsiyalari to`xtatiladi:

- mulkni begonalashtirish va berish;
- majburiyatlarni qoplash;
- hisob-kitobdagi harakatlar;
- dividendlar, soliqlar, to`lovlar to`lash.

To`lovga layoqatsiz qarz oluvchining barcha qarz majburiyatlari tugagan hisoblanadi va unga yangi talablar bildirilishiga yo`l qo`yilmaydi. Bunday qarz oluvchining barcha turdagi qarzlilariga penya va foizlar qo`yish to`xtatiladi. Uning mulkini sotib, pul undirish borasidagi barcha cheklashlar bekor qilinadi. Mulkiy yoki moliyaviy tusdagi hamma talablar faqat tugatish jarayonida doirasida hal qilinadi. Bunda bank talablari ikkichi navbatda qanoatlantiriladi.

Mulk etarli bo`lmagani tufayli qondirilmagan qarz majburiyatlari qanoatlantirilgan hisoblanadi va belgilangan tartibda hisobdan chiqariladi. Kreditdan ko`zlanmagan maqsadlarda foydalanganlik uchun qarz oluvchi bankka kredit shartnomasida belgilangan hajmda jarima to`laydi.

Bank tuzilgan shartnomaga muvofiq qarz oluvchini kredit resurslari bilan ta`minlashi shart.

Bank o`z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda qarz oluvchiga shartnomada ko`zda tutilgan miqdorda jarima to`laydi.

6-mavzu. Tijorat banklarining likvidliligi va to'lovga layoqatliligi

1. Tijorat banklarining aktivlari va ularning risklilik darajasi
2. Tijorat banklarining to'lovga layoqatliligi mohiyati va ahamiyati
3. To'lovga layoqatlilik asosiy ko'rsatkichlari va aniqlash usullari
4. Tijorat banklarining to'lovga layoqatliligini mustahkamlash yo'llari

1. Tijorat banklarining aktivlari va ularning risklilik darajasi

Tijorat banklari faoliyatida uning aktivlari va ular bilan bog'liq aktiv operatsiyalari, ularning risklilik darajasini boshqarib borish muhim o'rin tutadi. Banklarning barcha aktiv operatsiyalari ham risk bilan bog'liq bo'lmaydi.

Tijorat banklarining aktivlari o'ziga xos belgilarga ko'ra likvidlik darajasiga qarab, risk darajasiga qarab va daromad keltirish darajasiga qarab bir necha guruhlariga bo'linadi.

Bank balansida aktivlar likvidlik darajasiga qarab aks ettiriladi va likvidlik darajasiga qarab, ular quyidagi 3 guruhga bo'linadi.

1 guruh - yuqori likvidli aktivlar. Bularga:

- a) kassadagi va yuldagi naqd pullar, qimmatbaho toshlar, moneta, cheklar va boshqa pul hujjatlari;
- b) korschyotdagi mablag' qoldiqlari;
- v) "Nostro" va "Vostro" schyotlardagi qoldiqlar;
- g) majburiy rezervlar schyoti bo'yicha mablag'lar qoldig'i;
- d) qimmatli qog'ozlar, schyotdagi mablag'lar qoldig'i, xazina veksellari, davlat obligatsiyalari, O'zR MBning qimmatli qog'ozlari va obligatsiyalari.

2 guruh - likvid aktivlar. Bularga:

- a) berilgan kreditlar(jumladan banklararo ham);
- b) o'z investitsiyalari;
- v) boshqa qimmatli qog'ozlar.

3 guruh - nolikvid aktivlar. Bularga:

- a) muddati o'tgan ssudalar;
- b) muddati o'tgan foizlar;
- v) sud aralashuvi bilan o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan ssudalar;
- g) tugallanmagan ishlab chiqarish;
- d) asosiy vositalar.

Risklilik darajasiga qarab aktivlar to'rt guruhga bo'linadi.

1-guruh - riskdan holi bo'lgan aktivlar.

Bularga: naqd pullar va boshqa kassa hujjatlari, MB dagi "Nostro", "Vostro" schyotidagi mablag'lar, majburiy rezerv schyotidagi mablag'lar, xazina veksellari, davlat obligatsiyalari, MBning qimmatli qog'ozlari va obligatsiyalari kiradi.

2-guruh - kichik (minimal) riskli aktivlar. Bularga boshqa banklarning "Nostro", "Vostro" korschyotlaridagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar, evroobligatsiyalar, qisqa muddatli birinchi sinf ta'minlanganlikka ega bo'lgan kreditlar va boshqa hujjatlar kiradi. Bu aktivlar bo'yicha risk darajasi 20 foizga teng.

3-guruh - yuqori riskli aktivlar: boshqa banklarga berilgan kreditlar, boshqalar uchun bank bergan garantiya va kafolatlar. Bu aktivlar bo'yicha risk 50 foizga teng.

4-guruh - yuqori darajadagi riskli aktivlar qimmatli qog'ozlar sotish va sotib olish schyoti, sotib olingan veksellar, trast hujjatlar va akkreditivlar tratalari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari, bankning to'lanmagan aktsiyalari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari, sud jarayonida bo'lgan kreditlar, akkreditivlar, forvard sotish va sotib olish (bank bilan va banklararo).

Bular bo'yicha risk darajasi maksimal bo'lib, 100 foizga teng.

"A" bankning balansi ma'lumotlarni 1-jadval shuni ko'rsatadiki, 1998 yil 1 yanvarda bankning umumiy aktivlari 60,1 mlrd sumni tashkil qildi. Shundan 14 foiz (ya'ni 8,5 mlrd so'mni) riskdan holi bo'lgan aktivlar, 68 foiz (41mlrd. so'm) kam riskli aktivlar, 1 foiz (0,6 mlrd. so'm) katta riskli aktivlarni, maksimal darajali riskli aktivlar 17,1 foizni tashkil qiladi. Riskni inobatga olganda aktivlar 18,8 mlrd. so'mni tashkil qilgan.

6-jadval

"A" bank bo'yicha riskga tortilgan aktivlarni hisoblash:

Ko'rsatkichlar	risk 0 foiz	risk 20 foiz	risk 50 foiz	risk 100 foiz
Aktivlar				
1.Naqd pullar va boshqa kassa xujjatlari	683502			
2.M.Bning Nostro korschyotidan olishi lozim aktivlar	5928150			
3.M.Bning majburiy rezervlar schyotidan olishi lozim aktivlar	237544			
4.Boshqa banklardan olinadigan aktivlar		1020766		
5.Korschyot Nostro	1678797			
6.Xazina veksellari	246			
7.Kimmatbaho metallar				300970
8.Sotib olingan veksellar			447943	
9.Boshqa banklarga berilgan kreditlar		3990879		
10. 1-sinf ta'minotga ega bo'lgan kreditlar				4611503
11. Ta'minlagan kreditlar				39544
12.Sud jarayonidagi kreditlar				358490
13.Investitsiyalar				2878040
14.Bank binosi va aslaxalar				2149420
15.Boshqa aktivlar				
Jami aktivlar	8528239	40929745	447943	10337967
16.Berilgan garantiya va kafolatlar			207181	
Akkreditivlar				38515
18. Jami balansdan tashqari schyotlar			207181	38515
19. Jami aktivlar	8528239	40929745	655124	10376482

20. Jami riskli aktivlar		8185949	327562	1037648 2
21. Jami riskni inobatga olgandagi aktivlar			188899 93	

Daromad keltirishga qarab bank aktivlari: daromad keltiruvchi aktivlar va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo`linadi.

Daromad keltiruvchi aktivlarga

- a) barcha berilgan kreditlar (jumladan banklararo kreditlar)
- b) investitsiyalar (o`ziniki)
- v) xazina veksellari
- g) davlat obligatsiyalari
- d) qimmatli qog`ozlar.

Daromad keltirmaydigan aktivlar

- a) pul aktivlari guruhi
- b) asosiy vositalar
- v) kapital xarajatlar
- g) barcha moddiy aktivlar va boshqa aktivlar
- d) nomoddiy aktivlar.

Bu guruhda pul mablag`idan tashqari barcha aktivlar ham likvid aktivlarga kiradi.

2-guruh aktivlariga bank faoliyatida katta e`tibor berilishi lozim. Chunki bu guruhda aktivlarning sifatini tushiruvchi aktivlar, muddati kechiktirilgan, foizsiz ssudalar, muddati o`tgan ssudalar va foizlar to`lanmagan аренда va boshqalar bo`lishi mumkin.

Bu aktivlar shartli NPA deb belgilanadi va ularning darajasi umumiy aktivlar xajmidan 3 foizdan oshmasligi lozim.

Agar bu aktivlar miqdori 2 va undan ortiq marta o`rnatilgan normadan ortiq bo`lsa, bank faoliyati juda muammoli, uning kredit siyosati juda zaif deb baholanadi. **7-jadval**

Daromad keltirish darajasiga qarab

“A” bank aktivlarini guruhlash

Aktivlar	01.01.1997	01.01.1998	Farq + -
Daromad keltiruvchi aktivlar	17353	52593	+ 35240
Summa	55	80,2	+ 25,2
Foiz			
Daromad keltirmaydigan aktivlar	14224	1296	- 1262
Summa	45	19,8	- 25,2
Foiz			
Jami	31577	65555	+ 33978

Jadval ma`lumotlari shuni ko`rsatadiki, 1998 yilda 1997 yilga nisbatan bankning daromad keltiruvchi aktivlari 25,2 punktga oshgan, muvofiq ravishda daromad keltirmaydigan aktivlar miqdori 1262 mln so`mga kamaygan.

Bu bankning moliyaviy ahvoli yaxshilanganligidan dalolat beradi.

8-jadval

“A” bank aktivlarining likvidlik darajasiga qarab guruhlanishi

Aktivlar	Barcha	Foiz	Farq
-----------------	---------------	-------------	-------------

	aktivlardan	hisobida	
	1.01.1997	1.01.1998	
Birinchi guruh aktivlar			
Aktivlar summasi foizda	6614 21,0	9548 14,6	2934 - 6,4
Ikkinchi guruh aktivlar			
Aktivlar summasi foizda	16639 52,7	45270 69,0	28631 + 16,3
Uchinchi guruh aktivlar			
Aktivlar summasi foizda	8324 26,3	10737 16,4	2413 - 9,9
Jami:	31577	65555	33978

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, likvidlik darajasi bo'yicha ikkinchi guruh aktivlar asosiy o'rinni egallaydi va ularning salmog'i 69 foizni tashkil qiladi, ularning miqdori 1996 yilga nisbatan 2,7 marta usgan, yuqori likvid mablag'lar 14,6 foizni tashkil qilib ularning miqdori 1,4 marta usgan bo'lsa, uchinchi guruh aktivlar 16,4 foizni tashkil qilib yil davomida 1,3 marta o'sgan. Shu bilan birga birinchi va uchinchi guruh aktivlarining miqdori 1.01.1998 yilda 1.01.1997 yilga nisbatan mos ravishda 6,4 foiz va 9,9 foizga kamaygan.

Tijorat banklari aktivlari bilan bog'liq bo'lgan risklar ichida kredit operatsiyalar bo'yicha risklar asosiy o'rinni eallaydi. Bu aktiv operatsiyalar bilan bog'liq risklarga berilgan kreditlar, to'lov muddati kechiktirilgan ssudalar bo'yicha risklar kiradi.

Kredit riski nafakat kredit ob'ektiga, balki kredit sub'ektiga yangicha yondashishi orqali ham o'sib boradi.

Bu risk turi mijozning moliyaviy ahvoli og'irlashganda, ularning faoliyatida ko'zda tutilmagan qiyinchilik va muammolar yuzaga kelganda, bozorda noqulay sharoit yuzaga kelgani sababli paydo bo'lishi mumkin.

Xuddi shuning uchun ham har bir tijorat banki aktivlarni joylashtirishni, boshqarish usullarini o'zi ishlab chiqmog'i zarur. Tijorat banklari aktivlarining qiymati va ulardan olinadigan foyda o'zgarib turishi mumkin. Aktivlar bilan bog'liq risklar aktivlar bahosining va ular bo'yicha olinadigan foyda miqdorining kamayishi aktivlar bo'yicha risklar salmogini oshishiga olib keladi.

Bu masalani aktivlarni to'g'ri diversifikatsiya qilish yo'li bilan hal qilish mumkin. Chunki ba'zi bir aktivlar bo'yicha ular qiymatining pasayishi boshqa aktivlar qiymatining usishi bilan koplanishi va natijada bank aktivlarining umumiy qiymatlarini saklab kolishi imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin.

Bank aktivlari qiymatini to'g'ri hisoblash va ulardan keladigan daromadlarni to'g'ri hisob-kitob qilib rejalashtirish bank faoliyatining samaradorligiga olib kelishi, aktivlar qiymatini noto'g'ri hisoblash, joylashtirish bankning moliyaviy ahvolidagi qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Shu sababli biz Germaniya bank tizimidagi aktivlarni boshqarish usullaridan foydalangan holda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatida uning aktivlarining etakchi qismi bo'lgan kredit operatsiyalari bo'yicha ularning samaradorligini, berilgan kreditning bahosini aniqlash usulini ishlab chiqishni maqsad qilib qo'ydik.

Hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan kreditlar berishda shu kreditning bahosi qancha ekanligi banklar tomonidan chuqur tahlil qilinmaydi. Tijorat banklari tomonidan kreditlar uchun qo'yiladigan baho hozirgi kunda quyidagi elementlardan tashkil topadi: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 33-yo'riqnomasiga asosan barcha tijorat banklari uchun 3,0 foiz atrofida qayta moliyalashtirish stavkasi o'rnatilgan bo'lib, qoida bo'yicha foiz o'rnatishda

qayta moliyalashtirish stavkasini 1,5 barobar oshirish mumkin. Amaliyotda xuddi shu yo'l bilan, qo'shimcha hisob- kitoblarsiz banklar kreditning bahosini belgilaydi.

Bozor iqtisodiyoti yuksak rivojlangan davlatlarda kreditning bahosini belgilashda kreditning bozor bahosi hisobga olinadi-yu, lekin kreditning mijozga beriladigan bahosini hisoblash bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi va tijorat banklari tomonidan bu ko'rsatkich chuqur tahlil qilib hisoblab chiqiladi. Kreditning bahosini aniqlashdan asosiy maqsad-bank tomonidan berilgan kreditning samaradorligiga erishgan holda, foyda olish va bank likvidligini ta'minlashdan iborat. Bu natija esa bank risklarini oldindan aniqlab, uni oldini olishga imkon yaratishi mumkin.

Tijorat banklarining faoliyatini tahlil qilish va aktivlar bahosini belgilashning asosi bo'lib uning balans hisoblanadi. Balans asosida tijorat banklarining faoliyatini tahlil qilishda ba'zi bir marta bo'ladigan xarajatlar yoki daromadlarni alohida hisobga olgan ma'qul deb hisoblaymiz. Chunki bu bir martalik bo'ladigan tushum yoki xarajat tijorat banki faoliyatining olib borilishi yoki uning likvidligi, samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligi mumkin.

Biz bularni neytral xarajatlar va neytral daromadlar deb atadik. Bularga nimalar kiradi?

Neytral xarajatlar-

bir martalik to'lovlar (yong'in, pulni o'g'irlash);
o'tgan davrdagi foizlar bo'yicha xarajatlar;
bank biznesiga yod to'lovlar (yordam ko'rsatish).

Neytral daromadlar-

bir martalik tushumlar;
o'tgan davrdagi foizlar bo'yicha tushumlar;
bank biznesiga yod tushumlar (boshqa bank yordami, MBdan tushum).

Bular neytral xarajatlar va daromadlar bo'lib, ular bankning asosiy moliyaviy faoliyatiga (uning daromad va xarajatlarga) ta'sir qilmasligi lozim.

Tijorat banklarining asosiy daromad keltiruvchi operatsiyalari kredit operatsiyalari bo'lgani uchun bankning kredit operatsiyalari bo'yicha oladigan daromadi u bo'yicha risk darajasini aniqlash lozim. Bank kreditlari bo'yicha o'rtacha riskni aniqlab bu risk bo'yicha rezerv tashkil qilish to'g'risida o'ylash kerak bo'ladi. Agar bankning foydasi yuqori bo'lsa, rezervni ham ko'prok tashkil qilish imkoniyati bo'ladi. Shuning uchun ham risk bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich olinib, shu ko'rsatkichga qarab rezerv tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Banklar kredit berishda avvalam bor o'z kapitaliga to'g'ri kelishi mumkin bo'lgan foiz stavkasini hisoblab chiqishlari lozim. Chunki bank kapitaliga to'g'ri keluvchi foiz yoki (foyda) normasi bank likvidligini ta'minlashning asosi hisoblanadi. Bank kapitaliga to'g'ri keluvchi foiz stavkasini hisoblashda bank qancha summada o'z aksionerlariga dividend to'lash majburiyatini olganini inobatga olish lozim.

Masalan, A tijorat bankining o'z kapital miqdori 400 mln. sum bo'lib, undan 100 mln. sum asosiy kapital, 300 mln. so'm qo'shimcha (jalb qilingan) kapital deylik. Reja bo'yicha tijorat banklari 20 mln so'm, ya'ni xarajatlarning 70 foiz aksionerlarga dividend to'lash uchun mo'ljallangan bo'lsin. Real talab bundan yuqori ham bo'lishi mumkin. Foydadan olinadigan soliq 30 foizni tashkil qilsa - bu 8,571 ming so'mga teng bo'ladi. Agar bank boshqaruvi 20 mln. so'm aksionerlarga to'lanadigan mablag'ni rezervga o'tkazadigan bo'lsa, unda soliq stavkasi 45 foizgacha oshadi va u 16.363 ming so'mni tashkil qiladi. Shundan kelib chiqqan holda bank qancha foyda olishni rejalashtirishi lozim?

Bank to'lashi lozim bo'lgan dividend miqdori	-	20 mln. so'm
Foydadan olingan soliq miqdori	-	8,571 mln. so'm
Dividendning to'lanmadan rezervga o'tkazilishi	-	20 mln. so'm

To'lanmagan dividenddan soliq miqdori - 16,363mln. so'm

Jami : - 64,934mln so'm

Boshqa turli soliqlar miqdori - 12,987mln so'm

Bank o'z faoliyatida erishishi lozim bo'lgan summa- 77,921mln so'm

Demak, tijorat banki samarali faoliyat ko'rsatishi uchun 77,921 mln. so'mlik daromad olishi lozim. Endi biz bu mablag'ni ishlashi uchun tijorat banki o'zi amalga oshiradigan kredit operatsiyalari bo'yicha necha foiz stavkasini o'rnatishi lozimligini hisoblab chiqishimiz lozim. Hisob-kitoblar shuni kursatadiki, yuqoridagi mablag'ni olish uchun tijorat banki kredit operatsiyalari bo'yicha yiliga 19,48 foiz atrofida foiz stavkasini belgilashi lozim.

Bank mijozga kredit taklif qila turib o'zi qancha miqdorda foydaga ega bo'lishi mumkinligi ehtimolini hisoblab chiqishi lozim. Buning uchun bank o'zining asosiy xarajatlari (xodimlarga qilinadigan xarajatlar, arenda va boshqa xarajatlari) summasini va umumiy xarajatlar (elektroenergiya, boshqa mayda xarajatlar)ni hisoblab chiqishi lozim bo'ladi.

Bank o'zi beradigan kreditning samaradorlik darajasini aniqlash uchun bankda amalga oshiriladigan har bir operatsiya bilan bog'liq harajatlarni aniqlashi lozim. Bu esa har bir operatsiya uchun sarflanadigan vaqtni aniqlashni talab qiladi. Buning uchun banklarda har bir bo'lim xodimlari ma'lum bir turdagi operatsiyani amalga oshirishga qancha vakt sarflanishini belgilab, yozib borishi lozim. Operatsiyani amalga oshirish uchun ketadigan vakt aniq bo'lishi uchun bu jarayon 2-3 hafta, 1 oy davomida yozib borilishi, har bir operatsiya vaqti, minutlari yoki xronometrik yo'l bilan sekundlarda o'lchanishi lozim.

Masalan, biron bir bo'limning xarajati 320 ming so'm bo'lsa bank bo'yicha boshqa bo'limlar xarajatlarini taqsimlash orqali o'rtacha xarajatlar 422 ming so'mga teng bo'lishi mumkin. Agar bo'lim 182 operatsiya amalga oshirgan bo'lsa, u holda bir operatsiyaning qiymati 2,32 so'mga teng bo'ladi

$$\frac{422\text{ming so'm}}{182}$$

Tijorat bank bo'limi to'rt xil faoliyat turini amalga oshiradigan bo'lsin deylik.

9-jadval

Operatsiya turlari	1 operatsiya uchun sarflangan vaqt	Ekvivalent son	Operatsiyalar soni	Birlik operatsiya hisobi	1 operatsiya qiymati
A	1,5	1	60000	6000	0,94
B	4,5	3	7000	21000	2,82
V	2,25	1,5	25000	37500	1,41
G	3	2	6000	12000	1,88
			98000	130500	o'rtacha 1,88

Bank bo'yicha elektroenergiya, suv, isitish va boshqalar bo'yicha umumiy xarajatlar 122500 so'mni tashkil qiladi. Shundan kelib chiqqan holda bo'limlarga to'g'ri keluvchi operatsiyalarning bank bo'yicha qiymati 0,94 so'm (122500/130500) ga teng bo'ladi. Bu summani har bir bo'lim bo'yicha belgilangan ekvivalent songa ko'paytirgan holda bo'lim bo'yicha bir operatsiyaning qiymatini aniqlash mumkin. Bank bo'yicha operatsiyaning qiymatini aniqlashda shu operatsiyalarning o'rtachasini 1,88 so'mni olish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko'rsatishda bank o'z mahsulotlarining samaradorligiga qanday erishish mumkinligini hisoblab chiqishi lozim. Buning uchun bank tomonidan bankning o'z kapitaliga olishni rejalashtirgan daromadi summasi, bir operatsiya

bo'yicha xarajatlar miqdori, kreditning bozor fond stavkasi va risk darajasi ko'rsatkichlarini to'g'ri aniqlab chiqish zarur bo'ladi. Hisoblashni quyidagi uslubda amalga oshirish mumkin.

Kreditning bozor bahosi - 5,5 foiz

Operatsiyani amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar - 0,3 foiz

(Agar 1 yilga 100000 so'm kredit berilsa va bir operatsiya uchun xarajat 250 so'mni yoki 0,25 foiz = 0,3 foizni tashkil qilsa)

Risk (risk bilan bog'liq xarajatlar)

O'tgan yilda qaytarilmagan kreditlar bo'yicha bu yilda 0,4 foiz to'lanmagan kreditlar

$$\text{risk darajasi} = \left(\frac{\text{to'lanmagan kreditlar}}{\text{berilgan kreditlar}} \right)$$

O'z kapitaliga foiz stavkasi.

Jahon amaliyoti bo'yicha bank o'zida mavjud mablag'larning 8 foiz atrofida o'z kapitaliga ega bo'lishi lozim. 100000 so'm kredit berishda bank 8000 o'z kapitaliga ega bo'lishi kerak.

Oldingi hisob-kitoblar bo'yicha bank o'z kapitaliga to'g'ri keluvchi foiz stavkasi 20 foiz (1248)ni tashkil qilishidan kelib chiqadigan bo'lsak 8000dan 20 foiz - 1600 so'mni tashkil qiladi. Nisbatan kredit berganda bankning o'z kapitali bo'yicha qo'yiladigan foiz stavkasi 1,6 foizga teng bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda bank beradigan kredit bo'yicha 7,8 foiz stavka qo'yishi lozim (5,5 foiz + 0,3 foiz + 0,4 foiz + 1,6)

Bank kredit bo'yicha foiz stavkasini o'rnatishda mijozning moliyaviy ahvoli, uning ishlab chiqarish faoliyati natijalarini, oldingi olgan kreditlari bo'yicha qarz majburiyatlarini bajarish darajasini hisobga olib, risk bo'yicha o'z kapitali bo'yicha foiz stavkasini kamaytirishi (agar mijoz faoliyati ijobiy natijalik bo'lsa) yoki oshirish (agar yuqoridagi ko'rsatkichlar bo'yicha mijoz salbiy natijalarga ega bo'lsa) mumkin.

Bank bergan krediti bo'yicha qancha samaradorlikka erishganligini aniqlash uchun barcha aktiv, passiv operatsiyalar, xizmatlar va boshqa vositachilik operatsiyalari bo'yicha oladigan daromadlari hisoblab chiqilishi mumkin. Bank faoliyatining rentabellik darajasini aniqlash zarur bo'ladi. Shu fikrimizni asosi sifatida quyidagi hisob-kitoblarni keltirmoqchimiz.

Bankning aktivlari xajmi:

	ming sum	foiz tushumi	mijoz foiz stavkasi	bozor foiz stavkasi	foiz foizos hi-shi	operats xarajat	risk bog'liq xarajat	qoplash summasi
Qisqa muddatli kreditlar	70000	4900	7	5,5	1050	500	380	170
Uzoq muddatli kreditlar	90000	6750	7,5	6,5	900	400	210	290
Jami	160000	11650			1950	900	590	460

II. Bank passivlari xajmi:

	ming sum	foiz to'lash bog'liq xara-	foiz stavkasi	bozor foiz stavkasi	mini m. rezerv	foiz oshi-shi	xarajatlar	qoplash summasi
--	----------	----------------------------	---------------	---------------------	----------------	---------------	------------	-----------------

		jat						
	30000	100	0,33	4,5	0,45	1116	280	836
	50000	2000	4.00	5,0	0,35	325	200	125
	60000	1800	3,00	5,5	0,27	1335	775	560
					5			
Jami	140000	3900				2776	1255	1521

Xizmat ko`rsatish soha xajmi:

	Tushum	Ba`zi operatsiyalar bo`yicha xarajatlar	Qoplash summasi
Qimmatli qog`ozlar aylanishida	800	1500	- 700
To`lov oboroti	1200	500	700
Xalqaro valyuta operatsiyalari	700	400	300
Jami	2700	2400	300

Endi bankning barcha faoliyat turlari bo`yicha natijalarni jamlab chiqadigan bo`lsak:

Aktiv operatsiyalar bo`yicha foyda - 460 mln. so`m
 Passiv operatsiyalar bo`yicha foyda - 1521 mln. so`m
 Vositachilik operatsiyalar bo`yicha - 300 mln. so`m
 Foydaning umumiy summasi - 2281 so`m

Bu ko`rsatkich ijobiy faoliyat natijasini ko`rsatsada, xali bank faoliyatining samaradorlik darajasini aniq ifoda qilmaydi. Amaliyotimizda ko`pincha banklar o`z faoliyatining natijasiga baho berishda ular o`zlari olgan foydaning absolyut ko`rsatkichiga qarab faoliyatimizning natijasi ijobiy, ya`ni “N” summada foyda olish bilan hisobot yilni yakunladik”, deb xulosa qiladilar. Lekin bank olgan “N” summadagi foyda uning haqiqatda qanday darajada rentabellik bilan ishlaganini ko`rsata olmaydi. Bizning fikrimizcha bank faoliyatining haqiqatda qanchalik samarali yakunlanganligini bilish uchun bankning o`z kapitaliga to`g`ri keluvchi foyda miqdorini, ya`ni bankning o`z kapitalining rentabellik darajasini aniqlash zarur.

Yuqorida keltirilgan bank bo`yicha qisqa muddatli kreditlarning barchasi 70 000 m. so`m, uzoq muddatli kreditlardan aytaylik, 50 foiz (90 000 m. so`mdan) - 45 000 m. so`m to`lanish kerak bo`lsa, kreditning umumiy xajmi - 115 000 m. so`mni tashkil qiladi. Bank faoliyatini boshqarish bo`yicha me`yorlarga asosan tijorat banklari bergan kreditning 8 foiz atrofida o`z kapitalining minimal miqdoriga ega bo`lishi kerak. Shu me`yorga asosan tijorat banki ustav kapitalining minimal miqdori 9200 m. so`mga teng bo`ladi. Yuqoridagi ko`rsatkichlarga asosan endi tijorat bankining o`z kapitaliga to`g`ri keladigan foyda miqdorini yoki bank kapitalining rentabelligini aniqlashimiz mumkin. Bu ko`rsatkich bizning bankimiz misolida (2281 x 100 foiz/115000 x 8 foiz) x 24,79 foizga teng, ya`ni tijorat bankining kapitaliga to`g`ri keluvchi foiz 24,79 foizga teng.

Biz shu tadqiqotni olib borishning boshida tijorat banki faoliyatini boshlashda o`z siyosatini ishlab chiqishi va kredit berishda o`z kapitaliga qo`yiladigan foiz stavkani hisob-kitob qilib chiqishi lozim deb ta`kidlagan va biz tahlil qilayotgan bank misolida uni hisoblab, bankning kapitaliga qo`yiladigan foiz stavka 20 foizga teng bo`lganida, u barcha o`z majburiyatlari bo`yicha qarzlarni to`lab, foyda olishi mumkin ekanligini hisoblab chiqqan edik. Haqiqatda esa biz tahlil qilayotgan bankda o`z kapitaliga to`g`ri keluvchi foyda 24,79 foizni tashkil qildi. Bu albatta bankning moliyaviy ahvolini, likvidligini, uning kredit potentsialini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Banklarning aktiv operatsiyalari bilan bog'liq risklarni tahlil qilishda asosiy o'rinni ular beradigan kreditlar bilan bog'liq risklar tashkil qiladi. Bu turdagi risklar va ularni inobatga olish usullari to'g'risida biz keyingi paragrafimizda to'xtalamiz.

2. Tijorat banklarning to'lovga layoqatliligi mohiyati va ahamiyati

Tijorat bankining faoliyatini olib borishda eng avvalo uning likvidliligi yotadi. Likvidliligi bo'lmagan bank to'lovga layoqatli bo'la olmaydi. Amalda aynan nolikvidlik banklarning to'lovga layoqatsizligining asosiy sababi bo'lib, ularni bankrotlikka va bank tizimining beqarorligiga olib keladi.

“Likvidlilik” atamasi (lotincha liquidus - oquvchan, suyuqlik) sotish, aktivlarni pul mablag'lariga aylantirishning asosan amalga oshirilishini, ya'ni Markaziy bank yoki vakil banklardagi naqd pul mablag'laridan oqilona foydalanish likvid aktivlarni sotish imkoniyati va hokazolarni anglatadi.

Tijorat bankining likvidliligi uning balans tuzilmasi bo'yicha belgilanib, unda aktivlar passivga doir muddatli majburiyatlarni qoplash uchun o'z qiymatini tushirmagan holda yo'qotishlarsiz pul mablag'lariga aylantirilishi lozim

Bankning o'z likvidliligini tahlil qilishi masalasi bank nazorati bo'yicha Bazel bitimida chuqur ko'rib chiqilgan. Ushbu bitimga muvofiq “likvidlilikni tahlil qilish bankning o'z majburiyatlarini muddatida va zarar ko'rmagan holda bajarish layoqatini aniqlash zaruratini ko'zda tutadi. Aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi banklarning o'z majburiyatlarini benuqson bajarishiga bog'liq. Demak, banklarning likvidliligi hamda to'lovga layoqatliligi banklarning umumiy moliyaviy barqarorligini ta'minlash lozim bo'lgan bank nazorati organlarini ko'proq o'ylantiradigan soha hisoblanadi”. Mijoz har safar o'z hisobvarag'idan pul olmoqchi bo'lganda bankning o'z majburiyatini bajarish zarurati yuzaga keladi. Majburiyat bajarilmagan taqdirda bank o'z obro'sini yo'qotadi va bu ham bankni bankrotlikka olib kelish mumkin. Likvidlilikni ta'minlashning eng oddiy usuli bankning bir qism aktivlarini likvid shaklida, masalan naqd pul, Markaziy bank va boshqa banklardagi vakillik hisobvarag'idagi qoldiqlar, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) shaklida saqlash hisoblanadi.

Banklar likvidliligining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda likvid aktivlarining zarur miqdorini belgilab olishlari lozim. Mazkur omillarga quyidagilar kiradi:

- omonatlarning ko'payishi yoki kamayishiga ko'ra mablag'larga ega bo'lish yoki ularni yo'qotish; bank jalb qilingan mablag'lar bo'yicha majburiyatlarni yaqin muddatlarda bajarishi lozim, bu omonatlar va boshqa passivlarning muddatlari bilan bog'liq hamda bankda qoladigan depozitlar miqdorini (asosiy depozitlar) hisobvaraqdan olinadigan yoki darhol to'lanadigan depozitlar va boshqa passivlar (“Uchuvchan mablag'lar”) bilan qiyoslagan holda tahlil qilishni ko'zda tutadi;

- omonatlar summasining o'sishi yoki qisqarishiga muvofiq majburiy zaxiralar me'yoriy miqdorining ko'payishi yoki kamayishi ham likvidlilikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki majburiy zaxiralar me'yorini bajarishga yo'naltirilgan mablag'lar likvid aktivlarning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi;

- ssudalar va investitsiyalar summasining oshishi yoki kamayishiga ko'ra mablag'lar oqib kelishining ko'payishi yoki kamayishi; ushbu omilning ta'siri shundan iboratki, ssudalar va investitsiyalar miqdorining oshishi likvid aktivlar ulushini kamaytiradi; chunki investitsiyalar aksariyat hollarda uzoq muddatga jalb qilinadi.

Daromadlilik oshayotgan bir paytda likvidlikning maqbul darajasini ta'minlash uchun bank jalb etilgan omonatlar muddatlari va ularga doir xarajatlarni tahlil qilib chiqib, kredit qo'yilmalari va investitsiyalar muddatlari hamda rejalashtiriladigan daromadlar bilan taqqoslash lozim. Bunday taqqoslash joylashtirilgan va jalb etilgan mablag'larni muddatlari bo'yicha solishtirish asosida bank likvidligi holatini aniqlash, shuningdek, likvidlikning zarur darajada

eng ko'p foydaga erishish uchun qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlarning optimal nisbati bilan kredit siyosatini olib borish imkoniyatini beradi.

“To'lovga layoqatlik” “likvidlik”ga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, bank zarur muddatlarda kreditlar-omonatchilar, banklar davlat oldidagi majburiyatlarini to'la summada bajara olish layoqatini bildiradi. Lekin u faqat balans likvidligiga bog'liq bo'lib qolmasdan, balki boshqa bir qator omillarga ham bog'liqdir. Ular qatoriga quyidagilar kiradi: regiondagi yoki respublikadagi siyosiy va iqtisodiy holat, pul bozorining holati, Markaziy bankning remoliyalashtirish imkoniyati, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanganligi, bank qonunchiligining mavjudligi va zamonaviyligi, bankning o'z kapitali bilan ta'minlanganligi, mijozlar va partner-banklarning ishonchliligi, bankdagi menejment darajasi, mazkur kredit muassasasi bank xizmatlarining maxsuslashtirilganligi va xilma xilligi va boshqa omillar kiradi. Shu bilan bir vaqtda ko'rsatilgan omillar to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita bank balansi likvidligiga ta'sir ko'rsatadi, shuningdek bir-biri bilan ma'lum darajada aloqada bo'ladi.

3. To'lovga layoqatlilikning asosiy ko'rsatkichlari va uni aniqlash usullari

Tijorat banklarining balansi ikki qismdan aktiv va passivdan iborat bo'ladi. Bank passivlari tarkibiy jihatdan va iqtisodiy mazmuniga ko'ra bankning o'z mablag'lari va uning majburiyatlaridan tashkil topadi. O'z navbatida bank majburiyatlari iqtisodiy mazmuniga ko'ra ikkiga: jalb qilingan va qarz mablag'larga bo'linadi. Demak, bank passivlari:

1. Bank kapitali - bankning o'z mablag'lari;
2. Jalb qilingan mablag'lar - qarz mablag'laridan iborat.

Bank aktivlarini iqtisodiy mazmuni tarkibiga ko'ra bir necha qismlarga ajratish mumkin. Bunda aktivlarning muddatiga ko'ra yoki likvidligiga ko'ra ma'lum tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Aktivlarni likvidligiga ko'ra quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. Yuqori likvidlikka ega bo'lgan aktivlar;
2. O'rtacha likvidlikka ega bo'lgan aktivlar;
3. Likvidligi past bo'lgan aktivlar.

Tijorat bankining balansi shu bank resurslarining ahvolini, ularni shakllantirish manbalarini, shuningdek, hisobot davrining boshidan oxirigacha bo'lgan bank faoliyatining moliyaviy natijalarini pul bilan ifodalab ta'riflab beradi. Balansdagi ma'lumotlarni tahlil qilib chiqish yo'li bilan banklarning ma'lum davr ichidagi faoliyatini har tomonlama bilib olsa bo'ladi. Balansning tahlili bankning o'ziga tegishli mablag'lari qay tariqa o'zgarib borayotganligini, bank aktivlarining tarkibi va ularning qaysi tomonga qarab o'zgarayotganini, bankning likvidlik va to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlari darajalarini bilish imkonini beradi.

Tijorat banklari to'lovga layoqatlilikini tahlili jarayonida ularning to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlari bo'yicha belgilangan me'yorlarga amal qilayotganligini tekshiramiz.

Sarmoya etariligi koeffitsienti bank sarmoyasi bilan riskni hisobga olib chamalangan aktivlar umumiy hajmi nisbati sifatida belgilanadi.

K

Ar

Bunda: K - bank sarmoyasi, kapitali.

Ar - riskni hisobga olib chamalangan bank aktivlari. Bu koeffitsientning minimal miqdori 0,1 (10 foiz) ga teng.

Bank sarmoyasi ikki qismga: asosiy va qo'shimcha qismga bo'linadi. Bunda asosiy sarmoya jami sarmoyaning kamida 50 foizini tashkil etishi kerak.

Faqat tijorat banki ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgarishlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun o'z vaqtida taqdim etgan hollarda ustav sarmoyasining Markaziy bankda ro'yxatga olinganidan ortiq to'langan qismini sarmoya hisob-kitobiga qo'shishga ruxsat etiladi.

Tijorat banki aktivlari risk darajalariga qarab besh guruhga bo'linadi. Risk darajasi bo'yicha birinchi guruhga minimal riskli aktivlar, ikkinchi guruhga o'rta riskni, uchinchi va to'rtinchi guruhga katta riskli aktivlar, beshinchi guruhga maksimal darajada riskli aktivlar kiradi.

Ushbu ko'rsatkichning minimal darajasi 0,08 hajmida belgilanadi.

Bank sarmoyasi bilan uning majburiyatlari o'rtasidagi nisbat ko'rsatkichi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli risklardan qat'i nazar, faoliyat umumiy hajmi funktsiyasi sifatida sarmoya etarliciligini belgilab beradi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

K

O

Bunda: K - bankning o'z sarmoyasi (kapitali);

O - bank majburiyatlari.

Bu ko'rsatkichning eng yuqori nisbati 0,05 hajmida belgilanadi. Ya'ni jalb qilingan va qarz mablag'lar bank kapitalining 20 baravaridan oshib ketmasligi kerak.

Bir qarz oluvchiga katta hajmda kreditlar berilishi tijorat banki uchun juda riskli ekanligi munosabati bilan "bir qarz oluvchiga to'g'ri keladigan riskning maksimal hajmi" normasiga rioya etilishi ayniqsa qattiq nazorat qilinmog'i kerak:

K_p

$M_b = \frac{K_r}{K}$

K

Bunda: K_r - bir qarz oluvchiga to'g'ri keladigan bank riskining umumiy summasi qo'shuv bank mazkur qarz oluvchiga nisbatan bergan balansdan tashqari majburiyatlarning 75 foizi ayiruv depozitlar bilan ta'minlangan majburiyatlar.

K - bank sarmoyasi (o'z mablag'lari).

Ushbu me'yor kreditlarning hukumat kafolati bilan ta'minlangan qismiga, jumladan xalqaro qarzlar bo'yicha takror moliyalanadigan kreditlarga taalluqli emas. Boshqa kreditlar uchun qarz oluvchi majburiyatlarining umumiy summasidan O'zbekiston Respublikasi davlat qimmatli qog'ozlarini garovga qo'yib olingan qarzlar garov summasining 90 foiz hajmida chegirib tashlanadi.

Bu ko'rsatkich 0,25 dan oshmasligi kerak.

Bir qarz oluvchiga berilgan qarzlar bo'yicha jami qarzdorlik hamda balansdan tashqari majburiyatlarning 75 foizi birgalikda bank kapitalining 15 foizidan ortiq bo'lsa, bunday kreditlar "yirik kreditlar" deb ataladi. Yirik kreditlarni bank boshqaruvi alohida nazorat qilishi kerak va ular tijorat banki kengashi yangi qaror qabul qilgandagina berilishi mumkin. Bank kengashining shunday kreditlar berish to'g'risida qarorlar qabul qilish vakolati Boshqaruvga topshirilishi mumkin emas.

Yirik kreditlar berilishi va ular qaytarilishi bilan bog'liq barcha hollar to'g'risida tijorat banklari sira kechiktirmay Markaziy bankning tijorat bankini nazorat qiluvchi boshqarmalariga ma'lumot taqdim etishlari lozim.

Barcha yirik kreditlar uchun maksimal risk hajmi, yirik kreditlar risklari, maksimal hajmli yirik kreditlar umumiy hajmi bilan bankning o'z mablag'lari (sarmoyasi) o'rtasidagi nisbat sifatida belgilanadi:

SSK

K

Bunda: SSK - yirik kreditlar umumiy summasi qo'shuv bank mazkur qarz oluvchilarga bergan balansdan tashqari majburiyatlarning 75 foizi (depozitlar bilan ta'minlanganlari bundan mustasno),

K - bank sarmoyasi.

Shu holat belgilab qo'yiladiki, bank balansdan tashqari majburiyatlarning 75 foizni hisobga olib bergan yirik kreditlar umumiy hajmi (depozitlar bilan ta'minlanganlaridan tashqari) bank sarmoyasining 3 baravaridan oshib ketmasligi kerak.

Bir omonatchi (kreditor) ga to'g'ri keladigan maksimal risk hajmi maksimal omonat yoki olingan kredit, bir depozitarning depozit hisobvaraqlaridagi qoldiqlar hajmi (O'zmarkazbankdan, O'zR Moliya vazirligi kredit liniyasi bo'yicha olingan mablag'lar, Pensiya fondi va respublika byudjeti mablag'lari bundan mustasno) bilan bankning o'z mablag'lari o'rtasidagi nisbat sifatida belgilanadi:

Ovkl

K

Bunda: Ovkl - omonatlar, olingan kreditlar, kafolatlar va kafilliklar (75 foiz) bo'yicha bir omonatchiga (kreditorga) to'g'ri keladigan hisob-kitob, joriy hisob varaqlaridagi hamda qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar hisobvaraqlaridagi qoldiqlar bo'yicha bank majburiyatlarining so'm va xorijiy valyutadagi maksimal umumiy summasi.

K - bank sarmoyasi

Tijorat qimmatli qog'ozlariga qo'yilmalar me'yori:

Ts

AK

Bunda: Ts - nodavlat qimmatli qog'ozlarini sotib olishga yo'naltirilgan bank kapitali

AK - aktsiyador kapitali (Ustav kapitali)

Bu ko'rsatkichning haqiqiy ahamiyati 0,25 dan oshmasligi lozim.

Bankning o'z mablag'laridan investitsiyalarda foydalanish me'yori, ham belgilangan bo'lib, bank boshqa banklar, moliya muassasalari, davlatga qarashli va xususiy korxonalar ustav fondlariga yo'naltiradigan investitsiyalar umumiy hajmi bankning o'z sarmoyasi 20 foizdan oshmasligi kerak. Bunda har qanday biror bir korxonalar, tashkilot ustav sarmoyasida ishtirok ulushi bank ustav sarmoyasining 15%idan oshmasligi darkor.

Ushbu ko'rsatkich quyidagi formula asosida hisoblanadi:

Sin

K

Bunda: Sin - bank investitsiyalari umumiy summasi,

K - bankning o'z mablag'lari (sarmoyasi).

Bu ko'rsatkichning maksimal darajasi 0,2 hajmida belgilanadi.

Bank har qanday biron bir korxonalar yoki tashkilot ustav sarmoyasida ulushbay asosida ishtirok etishi (investitsiyalashi) ushbu yuridik shaxs ustav sarmoyasining 30 foizdan oshmasligi lozim. Faqat bank va moliya faoliyati bilan shug'ullanuvchi birlashmagan filiallar bundan mustasno.

To'lovga layoqatsizlikning asosiy sababi nolikvidlilik hisoblanganligi uchun tijorat banklari likvidlilik ko'rsatkichlari tahlili muhim ahamiyatga ega.

Joriy likvidlitlik koeffitsienti likvid shakldagi balans aktivlari bank talab qilib olinguncha saqlanadigan va muddati 30 kungacha bo'lgan hisobvaraqlar bo'yicha majburiyatlari summasi o'rtasidagi nisbatni tavsiflaydi:

Lak

Obo

Bunda: Lak - bank yaqin 30 kun ichida qaytarish sharti bilan bergan likvid aktivlar va kreditlar (bir marta muddati uzaytirilgan hamda ilgari berilgan qarzlarni qaytarish uchun taqdim etilgan kreditlar bundan mustasno),

Obo - talab qilib olinguncha saqlanadigan va so'ndirish muddati 30 kungacha bo'lgan majburiyatlar.

Bu ko'rsatkichning yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan minimal darajasi 0,3 hajmida belgilanadi.

Lahzalik likvidlilik ko'rsatkichi.

Bu ko'rsatkich balansning ekstremal vaziyatlarda tez sotilishi mumkin bo'lgan likvid shakldagi aktivlari bilan bankning talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvaraqlar bo'yicha majburiyatlari summasi o'rtasidagi nisbatni tavsiflaydi:

LA

OV

Bunda: LA - bankning pul shaklidagi aktivlari,

OV - bankning talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvaraqlar bo'yicha majburiyatlari.

Ushbu ko'rsatkichning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan minimal darajasi 0,25 hajmida belgilanadi.

“Qisqa muddatli likvidlilik ko'rsatkichi” deganda bankning so'ndirish muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan aktivlari bilan 30 kundan 1 yilgacha qabul qilingan depozitlar va resurslarning nisbati tushuniladi.

A

D+K

Bunda: A - qaytarilish muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan aktivlar;

D - 30 kundan 1 yilgacha qabul qilingan depozitlar va resurslar;

K - bank kapitali.

Bu ko'rsatkichning haqiqiy ahamiyati 1 dan oshmasligi kerak.

Yana quyidagi likvidlik koeffitsientlari mavjud:

Likvid aktivlar / jami aktivlar;

Doimiy bo'lmagan majburiyatlar / jami aktivlar;

Likvid aktivlar / doimiy bo'lmagan majburiyatlar;

Kreditlar / depozitlar;

Garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar / jami qimmatli qog'ozlar.

Bank rahbariyati likvidlilik ko'rsatkichlarini mustaqil ishlab chiqishi va ulardan tanlab foydalanishi mumkin, faqat joriy likvidlilik ko'rsatkichi bundan mustasno. Kapitalning etarliligi koeffitsientlaridan tashqari tijorat banklari leveraj koeffitsientini aniqlashlari lozim. Bu ko'rsatkich quyidagicha hisoblanadi.

I darajali kاپial

KI= _____

Umumiy aktivlar - nomoddiy aktivlar - gudvil

Leveraj koeffitsientining minimal miqdori 0,06 yoki 6 foiz bo'lmog'i lozim.

Yuqoridagi koeffitsientlar asosida banklarning moliyaviy ahvoriga to'liq baho berish mumkin.

4. Tijorat banklarining to'lovga layoqatliligini mustahkamlash yo'llari

Banklarda to'lovga layoqatlilik va likvidlilik muammosini muvaffaqiyatli hal etilishi aktiv va passiv operatsiyalarning bir paytda samarali boshqarilishiga bog'liq. Banklar aktiv operatsiyalarni o'tkazish uchun pul resurslariga ehtiyoj sezadilar. Ularni passiv operatsiyalarni amalga oshirish orqali jalb etish mumkin va shundan so'ng bank belgilangan muddatlarda o'zining qarz majburiyatlarini qoplab borishi lozim. Qarz majburiyatlarini qoplash uchun banklar foyda olib faoliyat yuritishlari va bunda to'lovga layoqatlilikning maqbul darajasini saqlashlari hamda likvidlilikni ta'minlashlari kerak.

Aktiv va passiv operatsiyalarni, shuningdek, likvidlilikni kompleks va o'zaro bog'lab boshqarish zarurati shunday izohlanadi.

Yuqorida qayd etilganidek, banklar likvid mablag'larga bo'lgan zaruratni qondirish uchun kerakli miqdorda omonatlar va depozitlarni safarbar etadilar. Bunda banklar depozitlar miqdorining o'sishini kredit portfelining o'sishi bilan taqqoslaydilar hamda depozit bazasining barqarorligini avvalo muddatli jamg'arma depozitlari va talab qilib olinuvchi depozitlar hisobidan ta'minlash lozim.

Tijorat banklarining to'lovga layoqatliligini mustahkamlash, majburiyatlari bajarilishi uzluksizligini ta'minlash maqsadida boshqa kredit institutlaridan kredit olinadi.

Kredit berish to'g'risidagi qaror tijorat banki moliyaviy tahlili asosida chiqariladi. Bunda bankning o'z mablag'larining shakllanishi, bank tomonidan korxonalar va tashkilotlarning hisob-kitob, joriy, depozit va boshqa schyotlarga jalb qilingan mablag'lari hisobga olinadi. Tijorat banklari boshqa kredit institutlaridan kreditni shartnoma asosida unda belgilangan muddat va shartlarda oladi.

Likvidlilik muammosi yuzaga kelganda banklar tezkor choralar ko'rishadi. Buning uchun ular likvid mablag'larini ko'paytirish uchun kreditlar berishni vaqtincha to'xtatishi yoki berilgan kreditlarni qoplash muddatlarini qayta ko'rib chiqishi yoki ilgari berilgan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzlarni qaytarilishini ta'minlash mumkin.

Aktivlarni konvertatsiyalash nolikvid aktivlarni qisqa va o'rta muddatli likvid aktivlarga aylanishni ta'minlaydi. Banklar asosiy vositalarning bir qismini sotib, ularning o'rniga yuqori likvid vositalar qatoriga kiradigan davlat qisqa muddatli majburiyatlarini sotib olish mumkin. Ko'pgina banklar asosiy e'tiborni aktiv operatsiyalarni boshqarishga qaratadilar, biroq banklarning to'lovga layoqatliligini va likvidligi yomonlashganda qarz mablag'larini tez topish imkoniyati bank faoliyati barqarorligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Bank likvidligini va to'lovga layoqatliligini mustahkamlashda tezkor choralarini qo'llash bank harajatlarning oshishiga va foydaning kamayishiga olib keladi.

Banklar to'lovga layoqatliligining mustahkamligi ularning mijozlarining, qarz oluvchilarining moliyaviy holatiga ham bog'liq. Kredit berishda banklar mijozlarning kreditga layoqatliligini aniq va real hisoblab chiqishlari va ularning kreditga layoqatlilik darajasiga e'tibor berishlari lozim. Lekin bunda bir yoki bir nechta olingan kreditni vaqtida qaytarmaslik hollari bo'lishi mumkinligini e'tiborga olish kerak. Olingan kredit o'z vaqtida qaytarilmasa, bu bankning o'z majburiyatlarini qoplashida qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Bank tajribasi ko'rsatishicha, bunday holatni oldini olish uchun bir qarz oluvchiga beriladigan kreditni chegaralash kerak. Aks holda bir mijozning patta hajmdagi kreditni vaqtida qaytarmasligi bankning nolikvidligi va to'lovga layoqatsizligini keltirib chiqaradi.

Tijorat banklarining to'lovga layoqatliligini mustahkamlash maqsadida, bank jamg'armachilarining manfaatlarini himoyalash maqsadida Markaziy bank majburiy zahiralarni miqdorini belgilaydi. Har bir tijorat banki o'zi tomonidan 3 yil muddatgacha qabul qilingan depozitlardan 20 foiz, 3 yildan ortiq muddatga qabul qilingan depozitlardan 10 foiz miqdorida Markaziy bankga, zaxiralarni fondiga ajratilmalar har oyning 1-chislogacha bank balansi asosida hisoblanib, 5-chisloga qadar Markaziy bankga o'tkazilishi lozim. Bu davrda depozit va jamg'armalarning o'zgarilishiga qarab zaxira fondi tartibga solib turiladi. Agarda ham Markaziy

bank ham tijorat banki belgilangan muddatda ajratmalarni o'tkazmasa yoki qaytarmasa o'tkazilishi, qaytarilishi lozim bo'lgan summadan remoliyalashtirish foiz miqdorini ikkiga ko'paytirib har bir ish kuni uchun jarima undiriladi.

Banklarda tashkil qilingan maxsus fondlarning ham bankning to'lovga layoqatlilikni mustahkamlashda ahamiyati katta.

Agar bu fondlar ham kreditlash maqsadida ishlatib yuborilsa, favqulotda holatlar yuz berib qolsa, bank o'z likvidligi va to'lovga layoqatliligini ushbu fondlar hisobidan ta'minlay olmaydi.

To'lovga layoqatsizlikning yana bir sababi - garovni baholashdagi xatolikka yo'l qo'yishdir. Garovni to'g'ri baholash va ularning bahosi o'zgarishi ustidan doimiy nazorat olib borish to'lovlarda qiyinchiliklar kelib chiqishning oldini oladi.

Balans likvidligining buzilishi va to'lovga layoqatsizlik mijozlar moliyaviy holatini yomonligidan ham kelib chiqadi. Qarz oluvchining kreditga layoqatliligini to'g'ri baholash va ular ustidan doimiy nazoratning mavjudligi kredit riskini o'z vaqtida bilish va to'lovga layoqatlilik bo'yicha zarur choralarini o'z vaqtida ko'rishni ta'minlaydi.

Banklar yangi operatsiyalar bajarishga buning uchun maxsus tayyorlangan kadrlarga ega bo'lmasdan kirishishi oqibatida ham to'lovga layoqatsizlik kelib chiqishi mumkin.

Bar shaxsdan yirik miqdorda depozitlar qabul qilish ularning moliyaviy holati birdan yomonlashgan hollarda ham tijorat banklarida to'lovlar bo'yicha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham bir omonatchi (kreditor)ga to'g'ri keladigan maksimal xatar hajmi belgilab qo'yilgan.

Tijorat banklari ustav kapitalining minimal miqdori ham Markaziy bank tomonidan belgilab qo'yilgan. Uni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

10-jadval

Sana	Aholisi soni 0,5 mln.dan ortiq bo'lgan shaharlarda ochiladigan tijorat banklari uchun	Aholisi soni 0,5 mln.dan kam bo'lgan shaharlarda ochiladigan tijorat banklari uchun	Xorij kapitali ishtirokida ochiladigan banklari uchun	Xususiy banklar uchun
1.01.1998y.	1,5 mln. AQSh dollari ekvivalentida	0,75 mln. AQSh dollari ekvivalentida	5 mln. AQSh dollari ekvivalentida	0,3 mln. AQSh dollari ekvivalentida
1.01.1999y.	2,0 mln. AQSh dollari ekvivalentida	1,0 mln. AQSh dollari ekvivalentida	5 mln. AQSh dollari ekvivalentida	0,3 mln. AQSh dollari ekvivalentida
1.01.2000y.	2,5 mln. AQSh dollari ekvivalentida	1,25 mln. AQSh dollari ekvivalentida	5 mln. AQSh dollari ekvivalentida	0,3 mln. AQSh dollari ekvivalentida

Har bir tijorat banki o'z ustav kapitalini har kvartallik ajratmalar asosida (yillik ko'zda tutilgan o'sishga nisbatan 25%) to'ldirishlari lozim.

Yuqoridagilardan tashqari hisobni to'g'ri yo'lga qo'yish, boshqarishdagi xato va kamchiliklarni tugatish, kadrlar malakasini oshirish ham banklar to'lovga layoqatliligini ta'minlashga ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

- Bankovskoe delo. Uchebnik. Pod. Rek. Gavrushina O.I. - M.: Finansi i statistika, 1998. - 576 s.
Uzbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari. - T.: 1998, 1999.
Uzbekiston Respublikasining Markaziy banki tuqrisidagi Šonuni. - T.: Sharq, 1997. - 47 b.
Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Šarori. Bank tizimini isloh qilish chora-tadbirlari tuqrisida. T.: 1999 yil 15 yanvar.
Analiz ekonomicheskoy deyatel`nosti klientov banka. Pod. Rek. Lavrushina O.I. - M.: Infra-M, 1995. - 152 s.
Bankovskoe delo. Uchebnik. Pod. Rek. Gavrushina O.I. - M.: Finansi i statistika, 1998. - 576 s.
Bankovskie operatsii I, II, III chast`, pod. red . Gavrushina O.I. - M.: Infra-M, 1995. 301 s.
Banki i bankovskie operatsii pod. Red. Jukova e.F. - M.: YuNITI, 1997. - 387 s.
Bankovskiy portfel` - 3 t. - M.: SOMINTEK, 1995. - 752 s.
Bank nazorati buyicha me`yoriy hujjatlar tuplami. III-qism. URMB. - T. 1999. - 76 b.
Bank nazorati buyicha me`yoriy hujjatlar tuplami. II-qism. URMB. - T. 1999. - 105 b.
Bankovskie operatsii. - M.: Infra-M., 1996. - 207 s.
Bankovskiy portfel` 1,2 kn. Otv. Red. Korobov Yu.I. i dr. - M.: SOMINTEK, 1994. - 746 s.
Bankovskiy nadzor i audit: Ucheb. Posobie pod red I.D.Mamonovoy. - M.: Infra, 1995. - 112 s.
Bankovskoe delo. Uchebnik - 2-e izd. Pod rek. Prof. Kolesnikova V.I. - M.: Finansi i statistika, 1996. - 480 s.

Qo`shimcha adabiyotlar:

- Devid Polfremman i dr. Osnovi bankovskogo dela. - M.: Infra-M, 1996. - 986 s.
efimova L.G. Sbornik obraztsov bankovskix dokumentov. - M.: YuNITI, 1995. - 240 s.
Dengi. Kredit. Banki.: Uchebnik pod. red. Lavrushina O.I. - M.: Finansi i statistika, 1998. - 448 s.
Kozlova e.P. i Galanina e.N. Bank i klient - yuridicheskie litsa. - M.: Finansi i statistika, 1998. - 128 s.
Obshaya teoriya deneg i kredita: Uchebnik (pod. Red. Prof. e.F.Jukova) . - M.: YuNITI, 1995. - 304 s.
Ol`shaniy A.I. Bankovskoe kreditovanie. - M.: RDL, 1997. - 351 s.
Oleynik O.M. Osnovi bankovskogo prava. - M.: Yurist, 1997. - 215 s.
Pul-kredit buyicha me`yoriy hujjatlar tuplami URMB. - T.: 1999. - 143 b.
Polojenie o poryadke organizatsii kratkosrochnogo kreditovaniya xozyaystvuyushix sub`ektov bankami na territorii Respubliki Uzbekistan. - T.: 1999. - 95 s.

Quyidagi tayanch so`zlarni ta`riflang

Tijorat bank likvidliligi,
tijorat bank to`lovga layoqatliligi,
bank aktivlari,
bank passivlari,
bank foydasi,
bank likvid mablag`lari,
likvidlilik omillari,
nolikvid aktivlar,
riskli aktivlar,
yuqori riskli aktivlar,
minimal riskli aktivlar,
risk,
bank riski,
daromad keltiruvchi aktivlar,

daromad keltirmaydigan aktivlar,
kredit bahosi,
kredit stavkasi.

O`z bilimini tekshirish bo`yicha savollar.

Tijorat banklarining likvidliligi deganda nimani tushunasiz va u qanday aniqlanadi?
Tijorat banklari to`lovga layoqatliligi va uning ko`rsatkichlari.
Tijorat bankining to`lovga layoqatliligi qanday aniqlanadi?
Daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan daromadlar va ularni ta`riflang.
Banklarning likvidlilik darajasi qanday aniqlanadi?
Tijorat banklar likvidliligi va to`lovga layoqatliligiga ta`sir qiluvchi olimlar.
Tijorat banklarining aktivlari va ularning risklilik darajasi.
Tijorat banklarining daromadlarini sanang.
Tijorat banklarining xarajatlarini keltiring.
Tijorat banklarining daromadlarini oshirish imkoniyatlari.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. "Banklar va bank faoliyati to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi qonuni. Toshkent. O`zbekiston nashriyoti. 1996 y.
2. "O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki to`g`risida"gi qonun. Toshkent: O`zbekiston nashriyoti 1996 y.
3. "O`zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobi va hisoboti to`g`risida" 1997 yil 9 sentyabrdagi 61 - sonli yo`riqnoma.
4. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 2 oktyabrdagi "Aktsiyadorlik-tijorat banklari faoliyatini yanada rivojlantirish to`g`risida"gi qarori.
5. Karimov I. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida. Toshkent O`zbekiston nashriyoti 1995 y..
6. "Xo`jalik yurituvchi sub`ektlarni qisqa muddatli kreditlashni tashkil qilish qoidalari" 6 mart 1996 yil 33-sonli yo`riqnoma.
7. Abashina A. M. Simonova N. N. Kredit i zaymi. M. 1997 g.
8. Anikin A. V. Zashita bankovskix vkladchikov. M. 1997 g.
9. Asaliev A. I. i dr. Banki 95, 1,2 tom. M. 1996 g.
10. Banki, informatsiya, analiz. Moskva-Vashington. 1996, 1-3 tom.
11. Blank A. I. Investitsionniy menedjment. M. 1996 g.
12. Brizgalin A. V. Bernik V. R. Valyutniy kontrol` na predpriyatii. M. 1997 g.
13. Bukado V. I. i dr. Banki i bankovskie operatsii. M. 1996 .
14. Bunkina M. K. Makroekonomika. M. 1996 g.
15. Valovaya D. Valyutniy rinok i ego kolebaniya. M. 1996 g.
16. Valovoy G. I. Istoriya menedjmenta. M. 1997 g.
17. Vera Smit. Proisxojdienie Tsentral`nix bankov. M. 1996.
18. Vladimirskaya A. S. Valyutnie operatsii. M. 1996 g.
19. Voronov P. Yu. Stranitsi istorii deneg. N. 1996 g.
20. Goremkin V. A. Lizing. M. 1997 g.
21. Grudkov F. I. Investitsii i tsennie bumagi. M. 1996 g.
22. Dord. F. Polfrenan D. Osnovi bankovskogo dela. M. 1996g.
23. Drobozina L. A. Finansi, denejnoe obrashenie, kredit. M. "Finansi", 1997 g.
24. efimova e. T. Banki, otvetstvennost` za narushenie pri raschetax. M. 1996 g.
25. Ivanov V. Kassovaya rabota v kommercheskix bankax. M. 1996 g.
26. Ivanov V. Operatsionnaya rabota v kommercheskix bankax. M. 1996 g.

27. Mullajonov F. i dr. Bankovskaya sistema Uzbekistana v godi nezavisimosti T.: "Uzbekistan"
1996 y.